



**O‘quv - uslubiy nashr**

**Safar Bozorov**

**Madaniyatshunoslik  
fanidan reting nazoratlari uchun**

(o‘quv – uslubiy qo‘llanma)

O‘zbek tilida

Ma‘sul muharrir: A. Erkaev  
Texnik muharrir: M.Rahmatov

Terishga 12.02.2007 yilda berildi. Bosishga 27.07.2007  
ruxsat etildi. Nash bosma tabogi 7,5.  
Tiraji 300 nusxada. Erkin narxda

Qarshi Davlat universiteti bosmaxonasida bosildi.  
Qarshi shahri, Ko‘chabog‘ ko‘chasi 17-uy

|   |  |
|---|--|
| Kirish.....   |  |
| Ta'lim Yo'nalishi.....  |  |
| Madaniyatshunoslik fanining dolzarb vazifalari .....  |  |
| Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati .....   |  |
| Madaniyatshunoslik fani –madaniyat haqidagi falsafiy<br>ta'limot ekanligi .....                         |  |
| Ma'naviy madaniyat tizimlarining shakllanishi va rivojlana<br>borishining o'ziga xos xususiyatlari..... |  |
| Madaniyat va sivilizatsiya.....   |  |
| Din va siyosiy mafkuraning madaniyatga ta'siri.....   |  |
| Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik masalasi.....   |  |
| Qadimgi Sharq xalqlari madaniyatining ilk markazlari .....  |  |
| Qadimgi Misr madaniyati.....  |  |
| Qadimgi Falastin va Finikiya madaniyati .....   |  |
| Qadimgi Osuriya madaniyati.....   |  |
| Qadimgi Eron madaniyati .....   |  |
| Qadimgi Hindiston madaniyati .....  |  |
| Qadimgi Xitoy madaniyati .....  |  |
| Sharq va G`arb uyg`onish davrlari madaniyatining o`ziga xos<br>xususiyatlari .....                      |  |
| Sharq uyg`onish davri madaniyati .....  |  |
| G`arb uyg`onish davri madaniyati .....  |  |
| Temur va temuriylar davri madaniyati .....  |  |
| Temuriyzodalar davri Movarounnaxr madaniyati .....  |  |
| Alishyer Navoiy va Xuroson madaniyati .....   |  |
| Chorizm istilosi va sho`rolar davri o`zbek<br>madaniyati rivojidagi ziddiyatlar .....                   |  |
| Mustaqillik sharoitida o`zbek milliy madaniyatining<br>istiqloli va istiqbollari .....                  |  |
| Madaniyatshunoslik fanidan yozma ishlar varianti .....  |  |
| Madaniyatshunoslik fanidan test savollari .....   |  |
| Tavsiya etiladigan adabiyotlar .....  |  |

**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O`RTA  
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**QARSHI DAVLAT UNIVERSITETI**

**S. BOZOROV**

**MADANIYATSHUNOSLIK**

(Reyting nazoratlari uchun o`quv  
qo`llanma)

Qarshi-2007

Ushbu o'quv qo'llanmada madaniyatshunoslik fanidan reyting nazorati topshiruvchi talabalar uchun madaniyat tushunchasi uning tarixi haqida qisqacha ma'lumotlar beriladi. Eng muhimi madaniyat tushunchasi ijtimoiy hodisa sifatida talqin etilarkan, uning shakllanish va rivojlanish qonunlari va jamiyat hayotida tutgan o'rni hamda ijtimoiy, amaliy vazifalari ham qisqacha tahlil etiladi. Qo'llanmada madaniyat taraqqiyotining o'ziga xos bosqichlari, Sharq va G'arb madaniyati rivojiga xos xususiyatlar zaruriy manbalar asosida izohlanadi.

(Ushbu qo'llanmaning Qadimgi Sharq xalqari madaniyati masalalariga bag'ishlangan mavzulari dotsent G'. Soatov bilan hamkorlikda tayyorlandi)

Mazkur o'quv qo'llanma Qarshi Davlat universiteti o'quv-uslubiy kengashining 2007 yil 27 fevral oyidagi №2 yig'ilish qaroriga asosan nashrga tavsiya etilgan.

**Ma'sul muharrir:** f.f.n. dots. A. Erkayev

**Taqrizchilar:** f.f.d. prof. I. Xudoyberdiyev  
f.f.d. dots. M. Oltiboyev.  
f.f.n. dots. J. Do'stmurodov

yil, 212-224 betlar.

51. Xayrullaev M. O'rta Osiyoda ilk uyg'onish davri madaniyati. Toshkent, O'zbekiston Respublikasi fanlar akademiyasi «Fan» nashriyoti, 1994 yil.

52. Shayxova X, Nazarov K. «Umuminsoniy qadriyatlar va ma'naviy kamolot» Toshkent, 1992 yil.

53. Shermuxammedov Said. Falsafa fani yangilanishining ba'zi muammolari. O'zbekiston FAsining «Fan» nashriyoti. Toshkent-1996, 15-bet.

54. Shermuxammedov S.A.Ochildiev. Madaniyat va sivilizatsiya. Kuvasoy. 1999 yil.

55. Shermuxammad Said. Istiqlol quyoshi. Toshkent, «Ma'rifat-madadkor»-2002 yil, 43-48 betlar.

56. O'zbekiston qaramlik va mustaqillik yillarida. Toshkent, «O'qituvchi», 1996 yil, 76-91 betlar.

57. O'zbekistonning yangi tarixi. Birinchi kitob. Turkiston chor Rossiyasi mustamlakachiligi davrida. «Sharq» nashriyoti. «Sharq» nashriyoti, Toshkent-2000 yil, 321 betlar.

58. Erkaev A. Mustaqillik va madaniy meros «Muloqot», 1996 yil, 1-son.

59. Erkaev A. Ma'naviyat-millat nishoni. Toshkent, «Ma'naviyat», 1997 yil.

60. Erkaev A. Milliy mafkura va ma'naviyat. Toshkent «Ma'naviyat» 2002 yil.

61. Quddus A'zam. Milliy qadriyatlarimiz tiklanish zamoni// «Tafakkur» 2005 yil, 1-son, 7-8 betlar.

62. Xazratqulova R. Qadriyatlarining hayotdagi o'rni. «Muloqot» 2001 yil, 5-son, 17-18 betlar.

63. Xayitmetov A. Alisher Navoiy. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi. Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2000 yil, 224-bet.

64. Xazratkulov Murod. Madaniyat gulshani. G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti. 2001 yil.

65. Xabibullaeva D.A. Milliy o'z-o'zini anglash va o'tmish madaniy merosini o'rganishning ahamiyati. Manba: O'zbekiston tarixining dolzarb masalalari.// Ilmiy –uslubiy anjumanning qisqa bayon (tezis)lari to'plami. Toshkent-1994 yil, 48-bet.

Ismatulla Abdullaev. Markaziy Osiyoda Islom madaniyati. Toshkent. «Sharq», 2005 yil.

## KIRISH

31. Dustmurodov J. Mustaqillik va din. Qarshi, «Nasaf» nashriyoti, 2003 yil.
32. Ziyaev X. Tarix-o'tmish va kelajak kuzgusi. G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, Toshkent-2000 yil, 81-86 betlar.
33. Ziyaev X. Turkistonda Rossiya tajovuzi va xukmronligiga qarshi kurash. «Sharq» nashriyoti, Toshkent-1998 yil, 329-bet.
34. Karimov Sh, Shamsiddinov R. Turkiston Rusiyo bosqini davrida «Meros», Andijon-1995 yil, 12-61 betlar.
35. Murtazaeva R.X. Eshov B.J va boshqalar. O'zbekiston tarixi. Ma'ruzalar matni. Toshkent-2000 yil, 140-142 betlar.
36. Mustaqillik: izohli ilmiy-ommabop lug'at. «Sharq» nashriyoti, Toshkent-1998 yil.
37. Nasriddinov A. Milliy ong va madaniy meros. // «Muloqot», 2001 yil, 5-son, 11-bet.
38. Nasriddinov A. Milliy ong va madaniy meros «Muloqot», 2001 yil, 5-son, 10-11 betlar.
39. Olti asr adolati. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 yil.
40. Ravshanov P. Uroqov R. Ajdodlarimiz qadri. «Sharq» nashriyoti, Toshkent-1999 yil, 282 bet.
41. Ravshanov P. General Kaufmannning antiqa yig'masi. «Muloqot» 2001 yil 4-son, 30-bet.
42. Soatov G, Bozorov S, Dustmurodov J. Madaniyatshunoslik. O'quv qo'llanma. Qarshi «Nasaf» nashriyoti, 2000 yil, 3-45-174-190 betlar.
43. M. Abdullaev. Madaniyatshunoslik asoslari. Farg'ona 1997 yil.
44. U. Qoraboev. XX1 asr madaniyat asri. «Muloqot» jurnali №6, 1999 yil. 15-18 betlar.
45. A. Turaev. Bir oila farzandlarimiz. «Muloqot» jurnali. 1995 yil. №9-10. 18-25 betlar.
46. T. Maxmudov. Til yaqinligi, dil yaqinligi. «Fan va turmush» jurnali, №4, 10-12 betlar.
47. F. Sulaymonova. Sharq va g'arb. Toshkent 1995 yil.
48. Fan va turmush jurnali №4. (Amir Temurga bag'ishlangan) soni.
49. Sodiqova N. Talon-taroj qilingan mulk «O'zbekiston adabiyoti va san'ati», 1991 yil 19 iyul.
50. Tulenov J. Hayot falsafasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1993

Bizga ma'lumki reyting tushunchasi inglizcha "rating" so'zidan olingan bo'lib, uning mazmun mohiyatida u yoki bu ta'lim tizimida o'qiyotgan o'quvchilar yoki talabalarining bilimlarini baholash usuliga xos me'yoriy talablar mutassamlashgandir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan ta'lim tizimidagi islohatlarning ustuvor yo'nalishlari bo'lgan "Ta'lim to'g'risida" va "Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi" qonunlarining asosiy bosh maqsadi bo'lgan ta'lim sifati va samaradorligini yo'lga qo'yishda reyting tizimiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu boisdan ham hozirgacha reyting tizimini amalga oshirish borasida bir qator me'yoriy hujjatlar ishlab chiqildi va bu jarayon yildan – yilga yanada mukamallashtirilib borilmoqda.

2005 yil oktyabr oyida bizning Qarshi Davlat universitetida O'zbekiston Respublikasi oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 2005yil 30 sentyabrdagi №217 buyrug'i asosida tayyorlangan reyting tizimi haqidagi me'yoriy hujjatlarga asoslangan holda talabalar bilimini baholashning reyting tizimi to'g'risida muvaqqat nizom ishlab chiqilib, bugungi kunda u amaliyotga to'liq joriy etilgandir.

Reyting tizimi borasida fikr yuritganda, bu tizimning asosiy bosh maqsadi – u yoki, bu ixtisoslik yo'nalishlarida ta'lim olayotgan yoshlarni oz sohasida po'xta bilim va malakalarga ega bo'lishga, qolaversa bugungi talablarga har tomonlama javob beradigan raqobatbardosh kadrlar bo'lib shakllantirishga qaratilganligini alohida ta'kidlash joiz. Shu boisdan ham uning asosiy vazifalari o'quvchini ma'lum bir fan yo'nalishlari bo'yicha olgan bilimlarini o'ziga xos tizim asosida o'zlashtira borishi darajasini belgilangan ballar asosida baholab berishga qaratiladi.

Ayni mana shu talabga xos jarayonda talabalarining o'rganayotgan fanlar bo'yicha mustaqil ishlash kunikmalari yanada faollasha borib ularga belgilangan darsliklar qo'shimcha adabiyotlar, keng tarmoqli axborot manbalaridan yanada unumliroq foydalanishga bo'lgan ehtiyojlarini malakaviy zaruriyatga aylantiradi.

Albatta, bugungi kunda reyting tizimi asosida o'z bilim va malakalarini shakllantira borayotgan talabalarimizga darsliklar,

qo'shimcha adabiyotlar, o'quv – qo'llamalari etishmasligi kabi bir qator muommalar mavjudligini inkor eta olmaymiz. Shu ma'noda ham "Madaniyatshunoslik" fanidan tayyorlanayotgan ushbu o'quv qo'llanma mavjud muomma echimiga qaratilgan dastlabki urinishlarimizdan biridir. Albatta uning nuqsonlari va kamchiliklari bo'lishi tabiiydir. Bu borada bizga o'zining xolis fikrlari va maslahatlarini bildirgan barcha o'rtoqlarning ko'rsatmalarini kelgusida e'tiborga olamiz.

16. Islom Karimov. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot-pirovard maqsadimiz.8 Toshkent, «O'zbekiston» 2000 yil.
17. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. Toshkent, «O'zbekiston» 2000 yil.
18. Islom Karimov. Qashqadaryo vohasining zumrad gavhari. Shahrisabzning 2700 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlangan nutq. «Turkiston» gazetasi. 2002 yil, 2 noyabr.
19. I.Karimov. Samaraqandda bo'lib o'tgan «Sharq taronalar» 5-xalqaro musiqa festivalining tantanali ochilish marosimida so'zlagan nutqi. O'zbekiston ovozi gazetasi.2005 yil 28 avgust.
20. I.Karimov. O'zbek xalqi hech qachon, hech kimga qaram bo'lmaydi. Toshkent, «O'zbekiston» nashriyoti, 2005 yil.
21. I.Karimov. Inson, uning huquq va erkinliklari hamda manfaatlar-eng oliy qadriyat. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 13 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. «O'zbekiston ovozi» gazetasi 2005 yil, 8 dekabr.
22. Madaniyatshunoslik./ma'ruzalar matni/ (E.Gulmetov va boshqalar) Toshkent-2000yil.
23. Abu Rayxon Beruniy. Tanlangan asarlar. 1-tom. Toshkent, «Fan» nashriyoti, 1968 yil, 72-82 betlar.
24. Abilov U.Milliy g'oya shakllanishi va ma'naviy yangilanish jarayonlarining mushtaraklik xususiyatlari// Manba: Mustaqil O'zbekiston: falsafa fanlarining dolzarb muammolari. VII. Toshkent-2000 yil, 29-bet.
25. Azizxonov A.T, Musaev O.R va boshqalar. O'zbekistonda demokratik jamiyat qurish nazariyasi va amaliyoti. Ma'ruzalar matni. Toshkent -2001 yil, 225-240 betlar.
26. Azizxujaev A. Davlatchilik va ma'naviyat. «Sharq» nashriyoti, Toshkent-1997 yil.
27. Alimova Nodira. Noyob qulyozmalar taqdiri. «Muloqot», 2001 yil, 4-son, 34- bet.
28. Axmedov B. Tarixdan saboqlar Toshkent,»O'qituvchi» nashriyoti, 1994 yil.
29. Buyuk siymolar, allomalar. (Markaziy Osiyodagi mashxur mutafakkir va donishmandlar) 2-kitob. Abdulla Qodiriy nomi-dagi xalq merosi nashriyoti. Toshkent-1996 yil.11-16,19-27,71-78 betlar.
30. B.Tuxliev. Mushtarak dillar, mushtarak tillar. «Muloqot» jurnali. 1996 yil,№2, 14-15 betlar.

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 yil.

2. «Qarshi shahrining 2700 yilligini nishonlashga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. «Xalq so'zi» gazetasi. 2005 yil, 27 iyul.

3. «Milliy g'oya targ'iboti va madaniy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2006 yil 25 avgustdagi qarori «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2006 yil 26 avgust.

4. Prezident I.Karimovning O'zbekiston Respublikasi mustaqilligining 15 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqi. «O'zbekiston ovozi» gazetasi, 2006 yil, 1-sentyabr.

5. I.Karimov. O'zbekiston demokratik taraqqiyotining yangi bosqichida. Toshkent, «O'zbekiston» 2005 yil.

6. I.A.Karimov. Istiqlol va ma'naviyat. Toshkent, «O'zbekiston», 1994 yil, 105 bet.

7. Islom Karimov. Hozirgi bosqichda demokratik islohotlarni chuqurlashtirishning muxim vazifalari. Toshkent- «O'zbekiston»-1996 yil, 5-18 betlar.

8. Islom Karimov. Bunyodkorlik yo'lidan. 4.Toshkent, «O'zbekiston» 1996 yil.

9. I.Karimov. Amir Temur faxrimiz, g'ururimiz. Amir Temur tavalludining 660 yilligiga bag'ishlangan xalqaro konferensiyada so'zlagan ma'ruzasi. «Ma'rifat» gazetasi, 1996 yil, 20 oktyabr.

10. I.Karimov. barkamol avlod O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. «O'zbekiston», 1997 yil.

11. Islom Karimov. O'zbekiston XXI asr busag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. Toshkent, «O'zbekiston», 1997 yil.

12. I.A.Karimov.Jamiyatimiz mafkurasi xalqni-xalq, millatni-millat qilishga xizmat qilsin. «Tafakkur» jurnali. 1998 yil, №2.

13. I.Karimov. Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q. Toshkent, «O'zbekiston»,1998 yil.

14. I.A.Karimov. Adolatli jamiyat sari. Toshkent, «O'zbekiston», 1998 yil, 39-40 betlar.

15. Islom Karimov. Biz kelajagimizni o'z qo'limiz bilan quramiz.7. Toshkent, «O'zbekiston», 1999 yil.

## TA'LIM YO'NALISHI: Bakalavr, barcha ixtisosliklarning II – kurslari uchun

### FANNING NOMI: Madaniyatshunoslik

### FAN BO'YICHA TALABALAR BILIMINI BAHOLASHNING REYTING MEZONI

#### II – KURS UCHUN

| №                        | Nazorat turi.  | Nazorat soni. | Bir nazorat uchun ball. | To'plagan ball. | Izoh |
|--------------------------|--|---------------|-------------------------|-----------------|------|
| I – joriy nazorat        |  |               |                         |                 |      |
| 1                        | Seminar mavzulari bo'yicha yozgan konspekti.   | 9             | 2                       | 18              |      |
| 2                        | Seminar savollari yuzasidan so'zga chiqish.  | 6             | 2                       | 12              |      |
| 3                        | Seminar paytida savol javoblarda ishtirok etish.                                       | 8             | 0,5                     | 4               |      |
| 4                        | Mustaqil ta'lim.   |               |                         | 6               |      |
| <b>J. B. uchun jami:</b> |  |               |                         | <b>50</b>       |      |
| II – oraliq nazorat      |  |               |                         |                 |      |
| 1                        | Talabalarning ma'ruza darslarda ishtirok etishi.                                       | 10            | 0,5                     | 5               |      |
| 2                        | Dars paytida savol javoblarda ishtirok etish.  | 3             | 1                       | 3               |      |
| 3                        | O'tilgan ma'ruzaning 1- 5 mavzulari yuzasidan tuzilgan 3 ta savol bo'yicha 1-yozma ish | 2             | 5                       | 10              |      |

|                       |   |   |    |                 |  |
|-----------------------|---|---|----|-----------------|--|
| 4                     | O'tilgan ma'ruzaning 6-10 mavzulari yuzasidan tuzilgan 3 ta savol bo'yicha 2 – yozma ish. | 2 | 5  | 10              |  |
| 5                     | Mustaqil ta'lim.  |   |    | 7               |  |
|                       | <b>O. B. uchun jami:</b>  |   |    | <b>35</b>       |  |
| III – yakuniy nazorat |   |   |    |                 |  |
| 1                     | Test savollari, suhbat asosida.   | 1 | 13 | 13              |  |
| 2                     | Mustaqil ta'lim.  |   |    | 2               |  |
|                       | <b>Ya. B. uchun jami</b>  |   |    | <b>15</b>       |  |
|                       | <b>JAMI:</b>  |   |    | <b>100 ball</b> |  |

**Maksimal ball – 100.**

**Saralash ball – 55.**

D. Madaniyatning kelib chiqishiga ko`ra

**93. Sivilizatsiya madaniyatlar rivojiga qanday ta'sir ko`rsatadi?**

- A. Madaniyatlar rivojiga ijobiy ta'sir ko`rsatadi
- B. Madaniyatlar rivojiga salbiy ta'sir ko`rsatadi
- \*C. Ham ijobiy ham salbiy ta'sir ko`rsatadi
- D. Umuman ta'sir ko`rsatmaydi

**94. Jahon madaniy tarixiy jarayoniga xos rivojlanish nima bilan belgilanadi?**

- A. Jaxon madaniy tarixiy jarayondagi taraqqiyot ziddiyatlariga ko`ra
- \*B. Jaxon madaniy tarixiy jarayondagi aloqalarning rivojlanib borishi
- C. Jaxon xalqlarining irqiy, hududiy farqli xususiyatlariga ko`ra
- D. Jaxon xalqlari madaniyati rivojiga salbiy ta'sir etishiga ko`ra

**95. Qadimgi dunyo madaniyatining eng rivojlangan davri?**

- A. Arxaik davri
- \*B. Klassik davri
- C. Ellinizm davri
- D. Qadimgi Rim davri

**Tavsiya etiladigan adabiyotlar:**



D. Madaniyatda siyosatga keng yo`l ochish

**87. Madaniyatga naturalistik munosabatning mohiyati?**

- \*A. Madaniyat rivojini tabiat qonunlariga bo`ysundirishga intilish
- B. Madaniyatni ijtimoiy xodisa sifatida qarash
- C. Madaniyatda tabiat va jamiyatni o`zaro bog`liq deb qaoash
- D. Madaniyat rivojini ilohiy kuchlarga bog`liq deb tushunish

**88. Kantning madaniyat falsafasidagi bosh mavzu?**

- A. Madaniyat asosida tabiat yotadi
- \*B. Madaniyatning mazmunini mafkura belgilaydi
- C. Madaniyat asosida inson axloqi yotadi
- D. Madaniyat jamiyat iqtisodiy taraqqiyotini ifodalaydi

**89. Feyerbaxning antropologik falsafasidagi madaniyat tahlili?**

- A. Madaniyat turmush tarziga xos rivojlanish
- B. Madaniyat sivilizatsiya oqibati
- \*C. Madaniyat inson baxt-sodati
- D. Madaniyat siyosiy qarashlar majmui

**90. Insonni jamiyat va qonun oldida tengligini qaysi davr gumanizmi olg`a suradi?**

- \*A. Yevropa Uyg`onish davri gumanizmi
- B. Ma`rifatchilik davri gumanizmi
- C. Nemis klassik san`ati gumanizmi
- D. Kapitalizm davri gumanizmi

**91. I. Kant falsafasiga xos madaniyatning ta`rifi?**

- A. Madaniyat-parvarishlash, qayta ishlash
- \*B. Madaniyat-insonni o`z oldiga erkin maqsad qo`yishidir
- C. Madaniyat-huquqiy qarash majmui.
- D. Inson ijodiy faoliyatining mahsuli

**92. Tarixiy tepalogiya madaniyatlar rivojini qanday o`rganadi?**

- \*A. tarixiylik printsipiga ko`ra
- B. irqiy farqlarga ko`ra
- C. Madaniyatlarni taqqoslashga ko`ra

**Madaniyatshunoslik fanidan talabalar bilimni baholashning reyting tizimi bo`yicha ishlab chiqilgan texnologik xarita.**

**Maksimal ball: 100**

**Saralash ball: 55.**

|                             |        |              |
|-----------------------------|--------|--------------|
| Qoni-qarli ball             |        | 55 - 70      |
| Yaxshi ball                 |        | 71 - 85      |
| A'lo ball                   |        | 86 - 100     |
| Talaba mus. ishi uchun ball | J. B.  | 30% - 15ball |
|                             | O. B.  | 20% - 7ball  |
|                             | Ya. B. | 15% - 2ball  |
| Y.B ball                    |        | 15           |
| O.B ball                    |        | 35           |
| J.B ball                    |        | 50           |
| Amaliy mash. soati          |        | 20           |
| Ma'ruza soati               |        | 20           |
| Fan uchun ajrat. Soat       |        | 40           |
| Qaysi Semestr               |        | 4            |
| Qaysi Kursda                |        | II           |

- Eslatma:** a) Talabalar bilimini reyting tizimi asosida boholash 100 ball hisobidan amalga oshiriladi.  
b) "O.B" fandan har 10 soatdan ma'ruzalar o'tilgach amalga oshiriladi.

D. Geografik jylashishdagi yaqinlikka ko'ra

**82. Xristian dini ilk bor shakillangan mamlakat qaysi javobda to'g'ri ko'rsatilgan?**

- A. VII asrda Angliyaga yaxudiyarlarni dini sifatida
- B. V asrda Rim qullarining dini sifatida
- C. VII asrda Fransiya
- D. I asrda Rim imperyasining sharqiy viloyatlarida

**83. Yevropa Uyg'onish davri madaniyatidagi eng muhim xususiyat?**

- A. Madaniyatda dinni ulug'lash
- \*B. Madaniyatning mazmun va mohiyatida gumanizm g'oyalari keng yo'l ochish
- C. O'z davri fan va texnika rivojiga e'tiborni kuchaytirish
- D. Ilm-fan, texnika va ma'rifatchilik hojalariga keng yo'l ochish

**84. Qadimgi davr madaniyatiga xos qorishib borishning sabablari?**

- A. Turli xalqlarning o'zaro yaqinlashishi istagi asosida
- B. Turli xalqlar mdaniyatidagi qarama-qarshiliklar tufayli
- \*C. Turli xalqlar o'rtasida hududiga chegara yo'qligi, tillarning sentezlashib ketishi o'zaro urushlar va savdo-sotiq aloqalari
- D. O'sha davr diniy oqimlar ta'sirida?

**85. Madaniyatshunoslik fanining asosiy funktsiyasi nimadan iborat?**

- A. Fan-texnika taraqqiyotiga e'tibor qilishda
- \*B. Bilim berish, tarbiyalash, dunyoqarashni shakllantirishda
- C. Ijtimoiy gumanitar fanlar aloqadorligini ta'minlashda
- D. Madaniy taraqqiyotda meros va vorisiylikning aloqasini o'rgatishda

**86. Ma'rifatchilik davri madaniyatiga xos xususiyat?**

- A. Madaniyatda diniy falsafani ulug'lash
- B. Madaniyatda saroy klerikal san'atini ulug'lash
- \*C. Madaniyatda ilm va fan rivojiga yo'l ochish

**xususiyatlari qanday ro'yobga chiqadi?**

- A. Moddiy madaniyat ma'naviy madaniyatsiz ham rivojlanaveradi
- \*B. Moddiy madaniyat va ma'naviy madaniyat o'zaro aloqadorlikda rivojlanadi
- C. Ma'naviy madaniyat tizimlari moddiy madaniyatga bog'liq bo'lmagan holda rivojlanadi
- D. Madaniyat har ikkala turi rivojida iqtisodiy omillar yetakchilik qiladi

**78. Quyidagi javoblarning qaysi birida ma'naviy madaniyat turlari ko'rsatilgan?**

- \*A. Badiiy siyosiy huquqiy, estetik, axloqiy madaniyat
- B. Arxitektura, haykaltaroshlik, grafika, tasviriy san'at
- C. Jamiyatning ishlab chiqarish vositalari, qurollari
- D. Turli xil g'oyalar, qarashlar va urf-odatlar

**79. Madaniyatdagi vorislikning asosiy funktsiyasi?**

- A. Madaniyatda ilohiy qarashlarni kuchaytirish
- \*B. Turli ijtimoiy, tarixiy bosqichlarda madaniyat rivojining mujassamlasha borishiga xos davomiylikni ifodalaydi
- C. Milliy madaniyatlar rivojida baynalminallikka keng yo'l ochib beradi
- D. Madaniyat rivojiga ta'sir etmaydi

**80. Madaniyatlar tepalogiyasi nimani o'rgatadi?**

- A. Madaniyat rivojiga xos umuminsoniy xususiyatlarni
- B. Madaniyatdagi baynalminallikni
- \*C. Madaniyatlar rivojini tarixiy va qiyosiy jihatdan turlarga bo'lib o'rganadi
- D. Madaniyatning milliy xarakterini ifoda etadi

**81. O'zbek, tojik, avg'on, eron xalqlari madaniyatiga xos umumiylik qanday asosga ega?**

- A. Til yaqinligi asosiga
- B. Urf-odatlar asosiga
- \*C. Diniy falsafiy umumiylik asosiga

- v) "O.B", "J.B" ham baholashlar uchun dekanat, kafedra tomonidan belgilangan kunlarda olinadi va qaydnomalar tuldiriladi hamda kun ichida dekanatga topshiriladi.
- g) Talaba "J.B" baholashdan 27 ball, "O.B" 19 ball tuplaganda "Ya.B"ga kiritiladi.
- d) Qarzdor talabalar semestr tugagandan keyin 2 hafta muhlat o'tgach dekanat ruxsatnomasi asosida qayta topshirish huquqiga ega.
- e) Talaba "Ya.B" natijalaridan norozi bo'lganda apellyatsiya komissiyasiga murojaat etishi mumkin. Bu komissiya 3 kishidan kam bo'lmagan tarkibda oliy o'quv yurti rektorining buyrug'I asosida tuziladi.

**Joriy nazoratlarning ballari**

| № | Madaniyatshunoslik fanidan o'tiladigan amaliy mashg'ulotlar jarayonida bo'yicha belgilangan "J.N" ballari.                          | Amaliy mashg'ulotlar soati. | << J. N. >> uchun talabaga o'quv jarayonida belgilangan ballar. |
|---|---|-----------------------------|---|
| 1 | Madaniyatshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Madaniyat va sivilizatsiya.   | 2                           | 5   |
| 2 | Ma'naviy madaniyat tizimlari va ularning shakllanishining o'ziga xos xususiyatlari. Din va siyosiy mafkuraning madaniyatga ta'siri. | 2                           | 6   |
| 3 | Madaniyatda milliylik va baynalmillik, umuminsoniylik masalasi. Milliy madaniyatlarning o'zaro ta'siri va bir – birini boyitishi.   | 2                           | 5   |
| 4 | Qadimgi Sharq xalqlari madaniyati.  | 4                           | 6   |
| 5 | Qadimgi dunyo madaniyati, uning rivojlanish xususiyatlari va asosiy markazlari.   | 2                           | 6   |
| 6 | Sharq va G'arb uyg'onish davri madaniyati.  | 2                           | 6   |
| 7 | Temur va Temuriylar davri hamda o'rta asrlar markaziy osiyo xalqlari madaniyati.  | 2                           | 6   |
| 8 | XVI – XIX asrlar markaziy osiyo xalqlari madaniyati.  | 2                           | 5   |
| 9 | Shuro hokimiyati yillaridagi o'zbek milliy madaniyati va uning rivojlantirishidagi ziddiyatlar.                                     | 2                           | 5   |
|   | <b>JAMI:</b>  | <b>20</b>                   | <b>50</b>   |

### Madaniyatshunoslik fanining dolzarb vazifalari

D. Ajdodlar ruhini muqaddaslashtirish g'oyalari.

### 73. Kapitalizm sharoitidagi Yevropa madaniyatida yetakchi omil?

- \*A. Fan va texnika rivojiga keng yo'l ochish
- B. Madaniy taraqqiyotni kapitalistik munosabatlar manfaatiga moslashtirish
- C. Madaniy jarayonda mustamlakachilik siyosatiga keng yo'l ochish
- D. Diniy e'tiqodlarni mustahkamlashga intilish

### 74. Osiyo maddohchilik madaniyatining maqsadi?

- A. Yevropa madaniyatidan bahramandlik topishga chaqirish
- \*B. Umumjahon madaniy jarayonida osiyocho madaniyatning gegimonligiga chiqish
- C. Boshqa xalqlar madaniyatiga rahnomalik qilish
- D. Madaniyati ilm-fan taraqqiyoti vositasiga aylantirish

### 75. Sharqda milliy ozodlik harakatlari va milliy madaniyat muammolari?

- A. Milliy ozodlik hamda madaniyat, san'at va adabiyotning erkin rivojiga erishish
- B. Mamlakatni chet el bosqinlaridan himoya qilish va o'tmish madaniy merosini saqlash
- C. Mamlakatning ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy-madaniy hayotida ozodlikka erishish.
- D. Milliy o'z-o'zini anglashga intilish

### 76. Jahon madaniyati rivojiga xos umummushtarak jarayonning milliy madaniyatlar rivojiga ta'siri.

- A. Milliy madaniyatlar rivojiga ham ijobiy ham salbiy ta'sir etib boradi.
- B. Milliy madaniy mazmuniga aksil madaniyatga xos tushunchalarni olib kiradi
- \*C. Milliy madaniyat mazmun va mohiyatini milliy qadriyatlar asosida yoritib boradi.
- D. Milliy madaniyatlar rivojiga to'sqinlik qiladi.

### 77. Moddiy va ma'naviy madaniyat tizimlarining rivojlanish

- A. Jamiyatdagi siyosiy partiyalar
- B. Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy mafkurasi
- \*C. Milliy madaniyat markazlari
- D. Jamoat tashkilotlari

**68. Qaysi davrda dinning ijtimoiy-madaniy jarayonga hukmronlik chegaralanadi?**

- A. O`rta asrlarda
- B. Sobiq sho`ro hokimiyati yillarida
- C. Kapitalizm davriga kelib
- \*D. Ma`rifatchilik davriga kelib

**69. Madaniyatda milliylikka xos muhim xususiyatni nimada deb bilasiz?**

- A. Milliy urf-odatlar va qadriyatlarga rahnomalik
- \*B. Millatning taraqqiyoti uchun xizmat qilish
- C. Millatlar orasida baynalminallik tuyg`ularini o`stirish
- D. Milliy iftixor tuyg`ularini taomillashtirish

**70. Milliy madaniyatlar rivojining yetakchi omil?**

- A. Qardosh xalqlar madaniyatidan tarixan bahramandlik topib kelish
- B. Milliy madaniyatning o`tish tarixi va kelajagiga e`tibor bilan qarashi
- \*C. Qardosh xalqlar madaniyatidan bahramand bo`lish va unga ta`sir etish ehtiyojlarini osha borishi
- D. Milliy madaniyatning mohiyatini anglab yetish

**71. Qadimgi dunyo madaniyatining eng rivojlangan davri?**

- A. Arxaik davri
- \*B. Klassik davri
- C. Ellinizm davri
- D. Qadimgi Rim davri

**72. "Avesto"dagi yetakchi g`oya?**

- A. Ilohiy g`oyalarga sig`inish
- B. Ko`pxudolik qarashlariga hos g`oyalar
- \*C. Yakkaxudolikni targ`ib etuvchi otashparaslik g`oyalari

XXI asr o`zining jo`shqin voqealarga, ziddiyatli munosabatlarga boyligi bilan bir qatorda jahon hamjamiyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga xos madaniy-siyosatda ham tubdan o`zgarishlar davrini boshlab berganligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, "Bugungi kunda har qaysi davlat, har qaysi millat nafaqat yer osti boyliklari bilan, harbiy kudrati va ishlab chiqarish salohiyati bilan, birinchi navbatda o`zining yuksak madaniyati va ma`naviyati bilan kuchlidir", deb yurtboshimiz I. Karimov bejizga yozmagan edilar. (Qarang: I.A. Karimov. "Barkamol avlod-O`zbekiston taraqqiyotining poydevori". Toshkent. "O`zbekiston" 1997 yil 5-bet.)

Davlatimiz rahbarining yuqorida ta`kidlangan fikrlaridan ko`rinib turibdiki, bugungi kunda odamlarning ongi, tafakkuri, madaniyati va ma`naviyatini yuksaltira borish mamlakatimizda barpo etilayotgan demokratik, fuqaroparvar jamiyatni barpo etishning ustivor yo`nalishlaridan biriga aylangandir.

Shakllana borayotgan bunday madaniy siyosat-sobiq ittifoq davridagi mafkuraviy qarashlardan farqli o`larok, eng avvalo ilg`or demokratik tamoyillarga, huquqiy me`yorlarga asoslangan holda, ikkinchi tomondan esa necha ming yillar osha yashab kelayotgan yuksak ahloqiylikka, insonparvarlik, baynalminallik, vatanparvarlik hamda milliylik va umuminsoniylik an`analariga asoslanishni madaniyatshunoslik ta`limoti uchun ijtimoiy-tarixiy zaruriyat darajasiga olib chiqmoqda.

Shuning uchun ham bugungi madaniyatshunoslik fanimiz madaniyat masalalarini tahlil etganda yoki uning muammolari yuzasidan fikr yuritganda bu boradagi amalga oshiriladigan dolzarb masalalar nafaqat kelajakda qiladigan ishlarimizgagina bog`liq bo`lib qolmasligi, ayni bir paytda o`tmish madaniy merosimizning har qaysi shakligi to`g`ri munosabatda bo`la olishimiz, qolaversa ularga tanqidiy baho berish bilan birga, ulardan bugungi taraqqiyotimiz uchun foydalana bilishning ilmiy-nazariy hamda tarixiy ahamiyatga molik qonunlari borasida bahs va munozalar yuritadigan falsafiy ta`limotga aylana bormoqda..

Ana shunday ta`limotgina bizning "Bosib o`tgan yo`limizni tanqidiy baholab, milliy davlatchiligimiz negizlarini aniqlab, buyuk madaniyatimiz tomirlariga, qadimiy merosimiz ildizlariga qaytib, o`tmishimizdagi boy an`analarini yangi jamiyat qo`rilishiga tadbir

etmog`imiz kerak” ligi borasidagi ehtiyojlarimizni o`stira borishga xizmat qiladi. (Qarang: I.Karimov. “Vatan sajdagoh kabi muqaddasdir”. Toshkent “O`zbekiston” 1996 yil 34-bet)

Shuning uchun ham bu ta`limot talaba yoshlarga madaniyat haqidagi shunchaki kuzatishlar, qarashlar va dalillarning oddiy tahlili to`g`risida tushunchalar berib qolmay, madaniyatni jamiyat taraqqiyotining natijasi o`larok vujudga kelishi hamda rivojlana borishi ekanligining o`ziga xos qonunlarini yanada chuqurroq tahlil eta boradi.

Demak madaniyatshunoslik fani madaniyatning paydo bo`lishi va rivojlana borish qonunlarini atroflicha o`rgana boruvchi falsafiy ta`limotdir. Shu ma`noda ham bu fanni madaniyat haqidagi ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik bo`lgan bilimlar, tushunchalar va qarashlar tizimining o`ziga xos majmuidir deb aytishimiz mumkin.

Ijtimoiy fanlar tizimida o`ziga xos falsafiy ta`limot sifatida joy ola bilgan “Madaniyatshunoslik” fanining eng muhim o`ziga xos xususiyatlarini quyidagicha belgilash mumkin.

Birinchiidan, madaniyat tushunchasini ham nazariy ham amaliy jihatdan o`z predmeti ob`ektining bosh mavzusi deb qaraydi.

Ikkinchiidan, bu ta`lim madaniyat haqida bahs va munozara yuritganda madaniyatning yaratuvchi inson ekanligini birlamchi tushuncha deb biladi.

Uchinchiidan, madaniyat rivojining jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti bilan o`zaro aloqadorlikda o`rganadi.

To`rtinchiidan, bu ta`limot madaniyat va jamiyat tushunchalarini o`zaro aloqadorlikdagi rivojlanishining ijtimoiy shakli deb biladi.

Yuqorida ta`kidlaganlardan ko`rinib turibdiki, talabalarga madaniyat haqidagi tushunchalarni shakllantira boradigan “Madaniyatshunoslik” fani madaniyatni faqat jamiyatning ma`naviy-ahloqiy hayotiga xos ma`lum bir tushunchalar, bilim va malakalarga xos qarashlar tizimidagina iborat bo`lib qolmasligi, qolaversa bu ta`limot madaniyatning mazmun va mohiyatida jamiyatning moddiy-iqtisodiy taraqqiyotiga xos yutuqlarning majmuini ham ifoda etilishini keng qamrovli yo`nalishda tahlil eta boradi.

Albatta talabalarga “Madaniyatshunoslik” fanining bosh

**adabiyot kabi ma`naviy madaniyat tizimlarining ajralib chiqishidagi eng muhim omil nimada edi.**

- A. Xususiy mulk tushunchalarining paydo bo`lishi
- \*B. Mehnatning tarixiy taqsimotini o`zgarib borishi
- C. Moddiy boyliklar ishlab chiqarish mamlakatlarni egallay borishi
- D. O`z davri hukmdoriga sig`inishning kuchaya borishi natijasi

**63 Madaniyatning klassik modeliga xos printsiplar deganda nimani tushunasiz?**

- A. Vatanparvarlik va baynalminallik
- B. Sinfiylik, milliylik, xalqchilik
- \*C. Insonparvarlik, ratsionalizm va tarixiylik
- D. Taraqqiyparvarlik va milliy o`z-o`zini anglash

**64. Badiiy madaniyatning ilk klassik tushunchalarisida qaysi oqimlar yetakchilik qiladi?**

- A. Ilmiy materialistik oqimlar
- B. Naturalistik va idealistik oqimlar
- C. Diniy falsafiy oqimlar
- \*D. Mifalogik qarashlar

**65. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining qaysi bosqichida madaniy jarayonga davlatchilikka xos siyosiy varashlar kuchayib boradi?**

- A Qadimgi dunyo madaniyatining arxoik davri
- \*B. Qadimgi dunyo madaniyatining Rim davrida
- C. Antik dunyo madaniyati barcha bosqichlarida
- D. Antik davrning klassik bosqichida

**66. Jamiyat madanriyati rivojida qaysi omillar yetakchilik qiladi?**

- A. Jamiyatda milliy kadrlarni tayyorlash siyosati
- B. Jamiyatning iqtisodiy taraqqiyoti
- \*C. Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti
- D. Jamiyatning siyosiy rivoji

**67. Ma`naviy madaniyat rivojiga yetakchilik qiluvchi omillar?**

**san'atining rivojiga hissa qo'shdi?**

- A. O'rta asrlar davri Sharq madaniyatida
- \*B. Yevropa Uyg'onish davri madaniyatiga
- C. Kapitalizm davri ma'rifatchilik madaniyati
- D. Yevropa ma'rifatchilik davri

**58. Qiyosiy tepalogiya madaniyatlar rivojini qanday o'rganadi?**

- A. Tarixiylik prinsipiga ko'ra
- B. Irqiy farqlarga ko'ra
- \*C. Madaniyatni taqqoslashga ko'ra
- D. Farmatsion farqlashga ko'ra

**59.ITT. madaniyatlar rivojiga qanday ta'sir ko'rsatadi?**

- A. Madaniyatlar rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi
- B. Madaniyatlar rivojiga salbiy ta'sir etadi
- \*C. Ham ijobiy ham salbiy ta'sir etadi
- D. Umuman ta'sir etmaydi.

**60. Jahon madaniyati tarixi jarayoniga xos umummushtaraklik nima bilan belgilanadi?**

- A. Jahon madaniy tarixiy jarayonidagi taraqqiyot ziddiyatlarga ko'ra
- \*B. Jahon madaniy tarixiy jarayonidagi taraqqiyotning o'zaro o'xshashlik aloqalarning rivojlana borishi
- C. Jahon xalqlarining irqiy hududiy farqli xususiyatlariga ko'ra
- D. Jahon xalqlarining madaniyati rivojiga salbiy ta'sir etishga ko'ra

**61. Ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning qaysi davrida din madaniyat rivojida siyosiy gigimonlik darajasiga ko'tarildi?**

- A. Antik davri madaniyatida
- \*B. O'rta asrlar davri madaniyatida
- C. Yevropa ma'rifatchilik davri madaniyatida
- D. Yevropa Uyg'onish madaniyatida

**62. Mifalogiyadan-axloq, din, falsafa, huquq, fan san'at va**

masalasi bo'lgan madaniyat tushunchasi bilan jamiyat munosabatlari haqida tushunchalar berishda bu har ikki tushunchaning o'zaro aloqadorligiga xos bir-biriga nisbatan belgilovchilik munosabatlarning vujudga kela borishi insoniyat tarixining nihoyatda uzoq o'tmishiga borib taqalishini alohida ta'kidlamok zarur. Chunki, madaniyat ijtimoiy hodisa sifatida kishilik jamiyati ijtimoiy-iqtisodiy hayotida tarkib topa borarkan odamzodning o'sha ibtidoiy senkritizm ongi parchalanayotgan jarayonlardayoq ya'ni; (Amerikalik sotsiolog L.Margon ta'kidlaganidek, yovvoyilikdan sivilizatsiyagacha bo'lgan jarayondagi) taraqqiyotning mahsuli sifatida vujudga kela boshlagan.

Ayni ana shu jarayonda o'z insoniy fazilatlarini shakllantira borayotgan odamzod mehnat qurollarini kashf etishi-yu va undan foydalanish malakalarining egallay borishlarigacha bo'lgan tarixiy taraqqiyot bosqichida aqlli mavjudot sifatida o'z oldida maqsad qo'ya bilishi, boshqacha aytganda bokira tabiatda "ikkinchi tabiat" yaratishga erisha borishi jarayonida madaniyatning yaratuvchisiga sabab bo'lganligini ta'kidlash joiz.

Ana shunday insoniy evolyutsion taraqqiyotning maxsuli sifatida tarkib topa borgan madaniyat tushunchasi bugungi kunda nihoyatda keng qamrovli rang-barang yo'nalishga ega bo'lgan shunday bir tushunchalar yig'indisiga aylana bormoqdaki, unda insoniyatning mehnatni ijtimoiy tashkil etishdan tortib, fan-texnika yutuqlarini egallay borishlariga, ma'naviy-ahloqiy darajasidan tortib, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, huquqiy-iqtisodiy hayotida ishtirok etishigacha, turmush tarzini yaxshilash, salomatlikni saqlash ishini yo'lga qo'yish, ma'lumot va bilim olishni yuksaltirish, maktab, o'rta maxsus va oliy ta'limni amalga oshirish ilmiy muassasalar va ijodiy uyushmalar faoliyatini kengaytira borish, adabiyot, san'at rivojiga keng yo'l ochish ijtimoiy-falsafiy g'oyalari, konstitutsion burch hamda demokratik tamoyillarni bugungi kun nuqtai nazardan anglab yetish kabi juda ko'plab sohalardagi faoliyatini, o'zida mujassamlantira bormoqda.

**Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati**

Talabalar madaniyatshunoslik faninidan reyting nazoratlariga tayyorgarlik ko`rish jarayonida madaniyat tushunchasining o`ziga xos xususiyatlari va uning mohiyatiga mansub takrorlanmas jihatlari nimalardan iborat ekanligini ham o`zlashtira boradilar.

Madaniyat tushunchasi haqida o`zining mustaqil fikr va mulohazalariga ega bo`lgan talabalargina madaniyat mo`ayyan halqning har bir ijtimoiy tarixiy davrda yarata olgan hamda o`zlashtira borgan moddiy hamda ma`naviy boyliklari majmui ekanligini tushuna boradi. Va o`zining ana shu yo`nalishdagi tushunchalari mazmunida insoniyatning moddiy va ma`naviy madaniyatga mansub boyliklarni yaratish jarayoni oddiydan-murakkablikka, alohidalikdan-umumiylikka, rang-baranglikdan umum-mushtaraklikka o`ta boruvchi uzluksiz jarayon ekanligini anglab yetadi. Qolaversa, talabalar o`zlarining ana shunday malakalari asosida umumjahon madaniy taraqqiyoti jarayoniga mansub o`ziga xos vorisiylikning mavjudligi, ayni shu asosda halqlar, millatlar, madaniy jarayonida o`ziga xos davomiylilik, hamda ularning bir-birlariga ta`sir eta borishi kabi yo`nalishlardagi tushunchalarini ham yanada mustahkamlaydi.

Darhaqiqat, talabalarga madaniyat tushunchasi va uning mohiyati haqida yo`nalishlar berib borishda insoniyat tarixining muayyan bosqichida yaratilgan madaniyat o`zidan oldingi bosqichlarda yaratilgan madaniyatdan farq qila borishi, keyingi davr madaniyatida o`z davri taraqqiyotiga xos munosabatlar, tushuncha va qarashlar mujassamlasha borishi ta`sirida o`zidan oldingi madaniyat yutuqlarini yanada rivojlantira borishi haqida ham ma`lumotlar beriladi. Shu boisdan ham jamiyatning ma`lum bir taraqqiyoti bosqichidagi madaniyat o`zidan oldingi madaniyatga xos jarayonni ko`r-ko`rona qabul qilmasligi, balki ularni tanqidiy va ijodiy o`zlashtira borishi haqidagi tushunchalarni ham o`qituvchi dars jarayonida o`qtira borish zarur. Chunki madaniyat insoniyat taraqqiyotining har bir davrida vujudga kela borgan ijtimoiy-tarixiy ehtiyojlar asosida vujudga kela boradi va taraqqiyotga xizmat qiladi.

Shu nuqtai nazardan kelib chiqib masalaga yondoshadigan bo`lsak, madaniyatning ilk ko`rinishlari insoniyat tarixining o`sha yarim yovvoyilik davrilaridanoq moddiy ehtiyojlarni qondirish

A. Tarkidunyochilikka chaqirish

\*B. Hayotni qarama-qarshiliklar kurvshidan iborat deb hisoblash

C. Bu dunyo nohaksizliklariga loqaydlik bilan qarashga chaqirish

D. Odamlarni baxt-saodatga chaqirish

**52. Tasavvuf ta`limotining asaosiy masalasi nima?**

A. Tariqat

B. Shariat

C. Ma`rifat va haqiqat

\*D. Javoblarini hammasi to`g`ri

**53. Amir Temur Shaxrisabz shahrida qanday saroy qurdirgan?**

A. Ko`ksaoroy

B. Bibixonim

\*C. Oqsaroy

D. Shaxrisabz

**54. Sharqning mashhur shoirlaridan qaysi biri turkiy tilida "Hamsa" yaratdi?**

A. Amir Husrav Dehlaviy

B. Nizomiy Ganjaviy

\*C. Navoiy

D. Jomiy

**55. XVII-XVIII asrlarda markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidagi yetakchi g`oya?**

\*A. Ma`naviy hayotda diniy matassiblikning hukumronlik qilishi

B. Tabiiy fanlar taraqqiyotining iqtisodga ta`siri

C. San`atda olamshumul asarlarning paydo bo`lishi

D. Insonni ulug`lash.

**56. Milliy mustaqillikni targ`ib qiluvchi "Chig`atoy gurungi" ning asosiy maqsadi nimada edi?**

A. Hokimyat uchun

B. turkiy til sofligi uchun kurash

\*C. Milliy adabiyot uchun kurash

D. Milliy mafkura uchun kurash

**57. Servantes va Sheksper dramaturgiyasining qaysi davr teatr**



**Osiyo madaniyatining namunasi hisoblanadi?**

- A. Qadimgi hind eposlari “Vedalar”
- B. Qadimgi eron qo`lyozmalari
- C. Gerodotning “Tarix”, Strabonning “Geografiya” asarlari
- \*D. Beruniyning “Osor ul Boqiya”, Narshaxiyning “Buxoro tarixi”

**47. “Bayt ul Hikmat” /Donishmandlar uyi/ ni Halifa Xorun ar Rashid qaysi shaharda tashkil etgan?**

- A. Madina shahrida
- B. Balh shag`rida
- C. Hisor shahrida
- \*D. Bog`dod shag`rida

**48. O`rta asrning mashhur olimlarini o`zida to`plagan “Ma`mun akademiyasi” qaysi shaharda tashkil etilgan?**

- A. Bog`dod shahrida
- B. Samarqand shahrida
- C. Balh shahrida
- \*D. Urganch shahrida

**49. Qaysi asrda Samarqandning jahonga mashhur bo`lgan quyidagi arxitektura yodgorliklari qurilgan? Bibixonim, Shoxi-Zinda, Go`ri-Amir**

- A. XII-XIII asrda
- \*B. XIV-XV asrda
- C. XVI-XVII asrda
- D. XVIII-XIX asrda

**50. Jadidchilikning asl maqsadi nimadan iborat?**

- A. Yangi diniy yoyish
- \*B. Yangicha ta`lim maktabni joriy qilish
- C. Yangi davlat tuzumini yaratish
- D. Yangi adabiyotni yaratish

**51. Zardushtiylik diniy ta`limotining mohiyati nimada?**

zaruriyatidan vujudga kela borganligini ko`ramiz. Boshqacha aytganda odamzod o`zining insoniylashuv jarayonini ham eng avvalo o`zining tabiiy-moddiy ehtiyojlari manfaatiga ko`ra moddiy ishlab chiqarishdan boshlanganligi va shu asosida u ma`naviy ishlab chiqarish uchun zarur bo`lgan malaka va qobiliyatlarini egallay borganligini anglab yetadi. Shuning uchun ham moddiy madaniyat har qanday jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyasining har-bir bosqichida moddiy boyliklar majmuiga xos jamiyatning bazisi ekanligi, ma`naviy madaniyat esa, jamiyatning ma`naviy hayoti darajasiga xos ustkurmasi ekanligini qayt etish mumkin.

Moddiy va ma`naviy madaniyatga xos munosabatlar aloqadorligini talabalarga yetkazishda masalaning nozik tomoni shundaki, ularning o`zaro aloqadorligi va bir-biriga ta`sirini tahlil etganda moddiy madaniyat ma`naviy madaniyatga nisbatan birlamchi ruhdagi belgilovchilik ahamiyat kasb etadi, (Marksizm ta`limotidagidek) degan bir tomonlama xulosaga bormaslik kerak. Zero shunday xulosaga keladigan bo`lsak, madaniyatning ijtimoiy-tarixiy jarayonidagi o`rni va ahamiyatini to`g`ri belgilay olmaymiz.

Kishilik jamiyati tarixiy taraqqiyoti bosqichlarini madaniyat va jamiyat munosabatlari nuqtai nazardan tahlil etadigan bo`lsak, ba`zan shunday holatlarni kuzatish mumkinki, ijtimoiy-tarixiy taraqqiyotning ma`lum bir bosqichida madaniyat jamiyatning umum ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotidan ilgarilab ketishini, ayrim hollarda orqada qolishi mumkinligini ko`ramiz. Masalan, Yevropa o`yg`onish davri madaniyati Yevropa umum ijtimoiy taraqqiyotidan ancha ilgarilab ketgan edi. Shu boisdan ham Yevropada ilm va fanga mansub buyuk kashfiyotlar, ilg`or g`oyalar va nazariyalari vujudga kela borib o`z davrida ijtimoiy taraqqiyotiga to`squinlik qilib kelgan diniy mutaassiblikni inkor eta bordi va yangi kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarini vujudga keltirdi. Bu esa jamiyat ma`naviy hayotida insonparvarlik tushunchalari rivojiga keng yo`l ochta bordi.

Ana shunday dunyoviy ilm va ma`rifat yo`liga tusha boshlagan Yevropa o`yg`onish davri madaniy siyosatidagi eng muhim xususiyat ham shunda bo`ldiki, eng avvalo maktabni cherkovdan, cherkovni davlatdan ajratish zaruriyatini tarixiy ehtiyoj darajasiga olib chiqdi. Xulosa qilib aytganda Yevropada vujudga kelgan o`y-

g`onish davri madaniyati Yevropa taraqqiyotida fan va texnika, ilm va ma`rifatni asosiy omilga aylantira bordi.

Jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida ana shunday yuksak ahamiyat kasb eta boradigan madaniyat tushunchasi, uning mazmun va mohiyatini ijtimoiy-tarixiy nuqtai nazardan yanada chuqurroq tahlil etib borarkanmiz hayotimizga shu qadar chuqur singib borgan, qolaversa, ana shunday keng qamrovli tushunchalar tizimini o`zida mujassamlashtira olgan «Madaniyat» so`zining istimolimizda anglatgan mazmun va mohiyati haqida ham talabalarga ma`lum tushunchalar berish maqsadga muvofiqdir.

Sharq mutafakkirlari talqinida madaniyat so`zining mazmun mohiyatida insonning aqliy-ma`naviy barkamolligi, baxt va saodatga erishuvi ma`nosida talqin yetish yetakchilik qilib kelgan. Shu sababli ham madaniyat tushunchasida ko`proq insonning aqliy yetukligi, uning ichki madaniyati bilan tashqi qiyofasiga xos uyg`unlikni ko`z oldimizga keltiramiz.

Ayrim manbalarda madaniyat tushunchasini arabcha «Madin» so`zi anglatgan shahar ma`nosidagi mazmunga xos qiyoslab tahlil etilishini ham uchratish mumkin.

Buyuk sharq mutafakkirlaridan Abu Nasr Farobiy fikricha, madaniyatlilik bu fozillikdir, aqliy kamolotga erishmoqlilikdir. Shuningdek Farobiy madaniyatlilik deganda, har bir kishisi kasb-hunarli, teng huquqli, ular o`rtasida farq bo`lmaydigan, har kim o`zi istagan yoki tanlagan kasb-hunari bilan shug`ullanish imkoniga ega bo`lgan shahar (jamiyat)ni tushungan va madaniyatlilik deganda ideal jamiyat tushunchasini ilgari surib, «Madaniy jamiyat va madaniy shahar (yoki mamlakat) shunday bo`ladiki, shu mamlakatning aholisidan bo`lgan har bir odam kasb hunarda ozod: hamda bab-baravar bo`ladi, kishilar o`rtasida farq bo`lmaydi, har kim o`zi istagan yoki tanlagan kasb hunar bilan shug`ullanadi. Odamlar chin ma`nosi bilan ozod bo`ladilar. Biri ikkinchisiga xo`jayin bo`lmaydi. Odamlarning tinchlik va erkinliklariga halaqit beruvchi sulton (ya`ni podshoh) bo`lmaydi. Ular o`rtasida turli yaxshi odatlar, zavq lazzatlar paydo bo`ladi» (**Qarang: Farobiy Fozil odamlar shahri. Toshkent. 1993 yil. 190-bet.**) deb yozadi.

Shu bilan birga, Farobiy o`sha asarida madaniy bilim to`g`risida ham fikr yuritadi. Uningcha, madaniy bilim shunday

**qaysi mamlakatda vujudga kelgan?**

- A. XVI asrda Italiya
- B. XVII asrning ikkinchi yarmida Angliyada
- \*C. XVIII asrda Germaniyada
- D. XII asrning birinchi yarmida Fransiya

**41. Qadimgi Sharqdagi birinchi madaniyat o`chog`ini ayting?**

- \*A. Qadimgi Xitoy va Hindistonda
- B. Qadimgi Eron va Suriya
- C. Qadimgi Urartu va Vavilon
- D. Qadimgi Shumer va Misr

**42. Qadimgi Grek adabiyotining taniqli dramaturglarining nomlarini ko`rsating?**

- A. Plutaxr, Arrian, Diodor, Strabon
- B. Suqrot, Fales, Geraklit, Ksenofon
- C. Ezop, Sofokl, Tirtey, Gomer
- \*D. Esxil, Sofokl, Evripid, Aristofan

**43. Ilmiy meditsinaning asoschisi kim?**

- A. Geppokrat
- B. Galen
- C. ar-Roziy
- \*D. Ibn-Sino

**44. Qadimgi Grek mifalogiyasida go`zallik xudosi kim?**

- A. Venera
- B. Artemeta
- C. Diani
- \*D. Afrodit

**45. Uyg`onish davri dunyoqarashining asosiy g`oyasi?**

- A. Materializm
- \*B. Insonparvarlik
- C. Ratsionalizm
- D. Idealizm

**46. Quyidagi qo`lyozmalardan qaysi birlari Qadimgi O`rta**

**gan va qaysi hududlarga tarqalgan?**

- A. Dastlab O`rta Osiyoda vujudga kelgan, so`ngra Sharq va G`arb mamlakatlarida tarqalgan.
- B. Dastlab Sharqda vujudga kelib, so`nga Bolqon yarim orlida va Sharqning qolgan hududlariga tarqalgan
- \*C. Dastlab Hindiston va Xitoyda vujudga kelib so`ngra qo`shni davlatlarga tarqalgan.
- D. Dastlab Yevropada vujudga kelib so`ngra Amerika xududlarida tarqalgan

**37. Sharqda madaniyat qaysi davr va nimani ta`sirida vujudga kelgan?**

- A. Qadimgi tosh davrida, hayvonlarni ovlash va qo`lga o`rgatish natijasida
- B. Qadimgi bronza davrida, diniy tasavvurlar va ilmiy tafakkurning shakllanish natijasida
- \*C. Er.av. V-IV ming yilliklarda, dehqonchilik va hunarmandchilik takomili natijasida
- D. Er.av. III-II ming yilliklarda davlatlar o`rtasidagi savdo-sotiq va madaniy aloqalarning rivojlanishi natijasida

**38. Sharq Uyg`onish davri falsafiy ta`limotining asosiy xususiyati nimada?**

- \*A. Ob`ektiv dunyoning mohiyati va inson muammosini hal qilishda
- B. Diniy-falsafiy ta`limotni yaratishda
- C. Ijtimoiy taraqqiyot qonunlarini ochib berish
- D. Tabiiy-tarixiy jarayon qonunlarini anglashda.

**39. Yevropa "ma`rifatchilik" o`qimining bosh masalasi nima bo`lgan?**

- A. Burjua ideologiyasini vujudga kelishi
- \*B. Aql-idrok
- C. Hokimiyat uchun kurash
- D. Realistik san`atni yaratish

**40. Ijodiy uslub hisoblangan "Klassitsizm" uslubi qachon va**

narsalarni o`rgatuvchi bilimki, uning yordamida shahar xalqlari va shaharli bo`lmagan xalqlarni ...insonlarga xos bo`lgan barcha hislatlar birlashtiriladi. Farobiy ana shu madaniy ilm tushunchasi orqali odamlar ijtimoiy hayot, jamiyatni o`rganishni egallaydi degan xulosaga keladi.

O`rta asr Sharq renesansining buyuk namoyondalari Abu Ali Ibn Sino va Abu Rayhon Beruniy ham Farobiy singari yetuk jamoaga ega bo`lgan shahar turmushi tarzini madaniyatlilik tarzida tushunganlar.

Alisher Navoiy esa yetuk ahloqlilik, ma`rifatparvarliklilik, adolatparvarlikni madaniyatlilik tarzida tushunadi. Shuningdek, keyingi davr mutafakkirlari (Furqat, Zavqiy, Avaz O`tar, Komil Xorazmiy, Ahmad Donish, Behbudiy, Fitrat va boshqalar) madaniyatlilik deganda halqni ilmi-ma`rifatli qilish g`oyalarini ilgari suradilar, Ahmad Donish madaniyatli inson tushunchasini ilm-fan va texnikani egallagan shaxs tarzida talqin qiladi. U Yevropa madaniyatini bevosita o`z ko`zi bilan ko`rib, halq ongiga ilm-fanni singdirish zarurligini anglab yetadi.

Darhaqiqat «Madaniyat» so`zi ma`nosining rivojlanish bosqichlarida to`xtaladigan bo`lsak, dastlab u lotincha «Cultura» so`zidan olingan bo`lib, yerga, tuproqqa ishlov berish ma`nolarini anglatadi. Rimning mashhur huquqshunosi, notig`i va publitsisti Mark To`liy Tsitseron (er.avv.106-43) o`zining «Tuskulan suhbatlari» nomli asarida, mashhur shoir Kvint Goratsiy Flakk esa (er.avv.65-8) o`zining, «Satiralar» nomli asarida birinchi marta «kultura» so`zini «Rux (jon)ni takomillashtirish» tarzida qo`llaydilar. Shuni unutmaslik kerakki, «kultura» so`zi dastlab agror ma`nodagi ishlab chiqarishga nisbatan ishlatilgan bo`lsa, bir muncha keyinroq ruhiyatga tegishli atama sifatida qo`llanila boshlangan.

Gap madaniyat tushunchasi va uning falsafiy tahlili to`g`risida borarkan bu atamaning o`ta qadimiyligi va zamonaviyligini nazardan qochirmaslik lozim. Shuning uchun madaniyat tushunchasi haqidagi ko`plab adabiyotlarda uning turli ma`nolarni ifoda etishi to`g`risidagi fikrlarning ilgari surilishi bejiz emas.

Darhaqiqat, madaniyat tushunchasining paydo bo`lishi etimologiyasiga nazar tashlaydigan bo`lsak, yuqorida ta`kidlaganimizdek uning lotincha «Cultura» atamasi yerga ishlov berish, parvarishlash

bilan birga, madaniyat tushunchasi insoniyatning dehqonchilik faoliyati bilan bogʻliq ekanligini koʻrsatadi. Jamiyat taraqqiyotining ijtimoiy – tarixiy jarayonida uning mazmundorlik qamrovi kengaya borib insoniyat yaratgan hamda jamiyat ijtimoiy – iqtisodiy hayotida tarixan erishilgan va amalga oshirilayotgan bugungi rivojlanishni harakterlaydigan moddiy va maʼnaviy qadriyatlar majmui sifatida ham qoʻllanila boshladi.

Madaniyatning taʼrifi haqidagi qarashlarni tahlil etadigan boʻlsak, u haqda 400 ortiq taʼriflar mavjudligini qayd etish mumkin. Bu tahlillarni umumlashtirgan holda olib qarasa, ular: «madaniyat odamzodning oʻz tabiiy faoliyatini inkor etish va madaniy faoliyatiga oʻtishi jarayonida ikkinchi tabiatni yaratish»; «inson tomonidan yaratilgan moddiy va maʼnaviy qadriyatlar yigʻindisi»; «insonning ijodiy faoliyati mahsuli»; «insonning aqlli mavjudod sifatida oʻz oldiga maqsad qoʻya bilishi»; «jamiyatning ijtimoiy – iqtisodiy ahvolini koʻrsatuvchi taraqqiyot»; «odamning insoniy fazilatlarini»; «jamiyatning fan va texnika sohasidagi taraqqiyoti» kabi xilma – xil koʻrinishlarda ifodalanadi.

Ana shunday xilma – xil tahlillardan koʻrinib turibdiki, madaniyat tushunasi borasida maʼlum bir oʻzgarma taʼrifni berish qiyin. Qolaversa, bunday xulosaga kelishning oʻzi ham mumkin emas, chunki jamiyatning qanchalik taraqqiy etib borishiga qarab madaniyat tushunchasining mazmundorlik qamrovi ham shunchalik kengaya boradi.

Bunday murakkablikning ibtidosi maʼlum maʼnoda madaniyatning paydo boʻlishi haqida tushunchalarining kelib chiqishiga borib taqalsa, unga xos jarayon esa madaniyatning bugungi va ertasiga xos ijtimoiy hodisa sifatidagi yashovchanlik xarakteriga borib taqaladi.

Madaniyat muammolari borasida qarashlarning xilma – xilligi va turli tuman ziddiyatlar yechimi masalalariga borib taqaluvchi anʼanalar ham mavjudki, ularning mazmunini anglab yetish madaniyat muammolarining hozirgi bosqichidan farqlanuvchi oʻzining tarixan shakllanish jarayoni, yaʼni uning «klassik modeli»ga tayanib fikr yuritishni taqazo etadi.

Madaniyat tushunchasining eng umumiy qonunlarini oʻrganuvchi madaniyatshunoslik taʼlimoti uni falsafiy tahlil etishda shun-

rivojlannishiga taʼsir koʻrsatgan

C. Din neolit davrida vujudga kelgan va kishilik malaniyastiga oʻziga xos oʻrin egallagan.

\*D. Din quldorlik jamiyatida vujudga kelgan va madaniyat sistemasida asosiy boʻgʻin hisoblangan.

### 32. Madaniyatda vorisiylik tushunchasi nimani anglatadi?

A. Vorisiylik qonunlarini anglatuvchi oʻtmish ajdodlardan qolgan madaniy boyliklarni asrash

\*B. Madaniy jarayondagi tajribaning ajdodlardan ajdodlarga oʻtishi.

C. Halk ogʻzaki ijodi, halq hunarmandchiligi va yozma adabiyot

D. Madaniyatning u yoki bu darajasida namoyon boʻlish

### 33. Inson madaniyatlilik darajasini oʻlchovi nima?

A. Kishining hulq madaniyati muammosini hal qilishda

B. Did bilan kiyinish va oʻzini tuta bilishda

\*C. Shaxsning tabiat bilan jamiyat hamda oʻziga manaviyat qonunlari talabi asosida munosabatda boʻlish

D. Axloqiy normalar doirasidan chiqmaslikda

### 34. Turmush madaniyati nimani ifodalaydi?

A. Sening turish-turmushingni

B. Mehmon kutish, ovqat tayyorlash ovqatlanish madaniyati

\*C. Oilaning turmush kechirish shart-sharoitlari va hayotga munosabatini

D. Oila tejamkorligini

### 35. Badiiy -estetik madaniyatning mohiyati?

A. Badiiy obrazlarni ilmiy tushunchalar orqali ifodalash

B. Hayotni falsafiy mushohada etishga urinish

C. Kishilar hissiyotini rivojlantirish

\*D. Hayotni ijtimoiy estetik ideallarga muvofiq badiiy obrazlar orqali ifoda etishda

### 36. Madaniyatning rivojlanishi dastlab qayrda vujudga kel-

- \*A. Insonning ma'naviy fazilatlari va axloqiy hatti-harakatlari
- B. Insonning ma'naviy fazilatlari va ruhiy holatlari
- C. Insonning ma'naviy fazilatlari va ma'naviy faoliyati mahsullari
- D. Insonning ma'naviy fazilatlari va malaka hamda ko'nikmalari

**28. Madaniy taraqqiyot nimalarga bog'liq bo'ladi?**

- A. Dohiy yo'lboshchilar faoliyatiga
- B. Ijodkor shaxslar faoliyatiga
- \*C. Xalqning amaliy faoliyatiga
- D. Tarixiy shaxsmlar faoliyatiga

**29. Jahon madaniyati va milliy madaniyatning dialiktik aloqasi to'g'risida nima deysiz?**

- A. Jahon madaniyati milliy madaniyatlarning eng sira namunalaridan umuminsoniy tolmonlaridan tashkil topadi
- B. Jahon madaniyati u yoki bu millat mdaniyatning ijobiy tomonlarini birlashtirishi mumkin
- C. Jahon Xalqlari va milliy madaniyatlarning bir-biriga ta'siri yo'q.
- \*D. Yuqoridagi tushunchalarning barchasi bir tushuncha

**30. Tafakkur va nutqning o'sishi inson ma'naviy madaniyatini shakllantirishga qanday ta'sir etadi?**

- A. Hech qanday ta'sir etmagan dunyo paydo bo'lganidan buyon inson hozirgidek tafakkur va nutqqa ega bo'lgan.
- \*B. Tafakkur bilan til uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi va ma'naviy madaniyyatda muhim rol o'ynadi.
- C. Tafakkur va til inson ma'naviy madaniyatini shakllantirishda ahamiyatli bo'lsada ular alohida bir-birini mustaqil rivojlagan
- D. Faqat tafakkur inson ma'naviy madaniyastini shakllantirishga katta ta'sir etadi.

**31. Taraqqiyot bosqichining qaysi davrlarida din madaniyat sistemasida etakchi o'rinni egallagan.**

- A. Ibtidoiy jamiyatda din bo'lmagan
- B. Din temir davrida vujudga kelgan va qisman madaniyatni

day klassik an'anani vujudga keltiradiki, unda ongning insondan tabiatgacha bo'lgan mavjud olamni his etish va tahlil qilishning barcha jihatlarini kesib o'tuvchi ma'naviy tushunchalar birligi mujassamlasha boshladi. Bu esa madaniyat haqidagi klassik tushunchalar yoki uning «klassik modeli» ni shakllana borishining ijtimoiy – tarixiy zamini bo'lib xizmat qiladi.

Mana shuning uchun ham aytish mumkinki, madaniyatning «klassik modeli»ni bilmasdan turib, madaniyat borasidagi hozirgi qarashlarning ilmiy – amaliy ahamiyatini to'la qonli tushunib yetish qiyin. Zero madaniyat haqidagi tasavvurlarni madaniyat tarixidan farqlamoq kerak. Qolaversa «madaniyatning kurtaklari» kishilik jamiyati tarixining ilk bosqichlaridayoq uchrasada bu «kurtaklar» odamlar ongida madaniyatning ijtimoiy hodisa ekanligi shaklida aks etmagan. Chunki ijtimoiy- tarixiy taraqqiyotning bu davrida kishilarning hayotiy faoliyatini belgilovchi madaniyat tushunchasi ularga bo'ysunmagan tabiat kuchlariga bog'liq holda talqin etilgan. Shu boisdan ham ularning hayotidagi hal qiluvchi rolni o'ynagan madaniyat tushunchasi inson mehnat faoliyati ustidan xukmron bo'lgan tabiatning stixiyali kuchlariga bog'liq holda tasavvur etilgan. Qolaversa, ularning ibtidoiy ma'naviy madaniyatiga tabiatdagi turli predmetlar va hodisalarni ilohiylashtirish, diniy ehtirom, sajda qilish kabi mifologik harakterdagi tushunchalar shaklida bo'lgan. Faqat keyingi taraqqiyot bosqichlariga kelib kishilar o'z hayotlarining ko'pgina jihatlarini o'zlariga va o'zlarining shaxsiy samarali ijodiy kuch-qudratiga bog'liq ekanligini anglab yetdilar. Bu esa kishilarning madaniyat haqidagi dastlabki sodda lekin gumonli va noaniq tasavvurlarining paydo bo'lishiga olib keldi. Masalan, ularning hosildorlikning sababi xudoning ehsoni emas ekanligini, anglab yetishlari orqali yerga ishlov berish va dehqonchilik madaniyatini bilishiga unday boshladi. Bu esa, madaniyat tushunchasi mazmuni va mohiyatida insonning o'z o'rni va roli, faqat unga-gina xos bo'lgan, faoliyat mahsuli ekanligi, hech qanaqa ilohiyatga (ayniqsa ilohiy kuchlarga) ham tegishli bo'lmagan insoniy faollikni anglab yetishga zamin yaratdi. Mazkur tushuncha va tasavvurlar barcha ilohiy kuchlar o'rniga insonning o'zi «hal qiluvchi kuch» sifatida maydonga kelganligini ko'rsatadi.

Ana shunday ziddiyatli murakkab jarayonda madaniyatning

«klassik modeli» ga xos boʻlgan gumanizm (insonparvarlik), ratsionalizm (aqlga suyanish) va tarixiylik printsiplari shakllana bordi.

Madaniyatning «klassik modeli»ga xos gumanizm printsipli inson (umuman inson emas, balki aniq bir shaxs-shoir, rassom, faylasuf va boshqalar) «madaniyatning yaratuvchilaridir» deganda falsafiy gʻoyani ilgari suradi. XV asr italyan gumanisti D.Monetning soʻzlari bilan aytganda, hamma narsa nazarimizda biz tomondan ixtiro qilindi, tayyorlandi va mukamallikka yetkazildi. Tevaragimizdagi hamma narsa bizniki, yaʼni insoniydir, chunki ular kishilar tomonidan yaratilgandir.

Gumanistlar inson tabiat tomonidan bevosita berilgan narsalarni yaxshilovchi koʻrkamlashtiruvchi, takomillashtiruvchi «sanʼati» tufayli oʻzining jismoniy mavjudligi chegaralanganligi ustidan gʻolib keladi, degan fikrni ilgari suradi. Tabiat tomonidan umri qisqa qilingan inson yaratuvchilik qobiliyati tufayli oʻzining cheklanganligini bartaraf etish va bu bilan u yaxlitlik garmoniyasiga dahldor boʻladi degan gʻoyani ham ilgari surdilar.

Insonning oʻz intilishlari natijasida ijtimoiy cheklanganlik doirasidan chiqish, butunlik va mukammallik holatiga yetishini, uni erkin va mustaqil shaxs sifatida olib qarash-oʻygʻonish davri gumanizmining «insonni kashf etish» nomini olgan bosh kashfiyoti boʻldi. Bu esa insonga yangicha qarashning toʻgʻiligidan dalolat edi. Inson endilikda bir-biri bilan bogʻlanmagan ikki tabiiy va ilohiy (yarim hayvon, yarim farishta) substantsiya (mohiyati) sifatida emas, balki alohida oʻzida insonni mohiyatini mujassamlashtirgan tan va ruh sifatida namoyon boʻladi. Demak, bu davrga kelib inson oʻzining hayotining boshqa shakllaridan farqli jihatlari anglab yetdi va ulardan ajratib turadigan chegaralarni madaniyat tushunchasi qamrovida idrok etadi.

Taraqqiyotning soʻnggi davrlarida XVII asrning oxirlariga kelibgina u oʻzining aniq qiyofasini koʻrsata boshladi. XVII asrda mustaqil madaniyat tushunchasining paydo boʻlishi insonning ilohiy va tabiiy olamidan tamoman ozod boʻlishi toʻgʻrisidagi tushuncha va tasavvurlarning paydo boʻlishiga olib keldi.

Insondagi mustaqil va ijodiy yaratuvchanlik kuchlari manbaini koʻrgan yangi zamon mutafakkirlari bu kuchlar taʼsirida paydo boʻladigan «maydoni»ni belgilab oldilarki, endi bu maydonni

D. Sinfiylik.

**22. Qaysi xususiyatga ega boʻlgan milliy madaniyatlar mukammal madaniy ijodiy faoliyatga aylanadi ?**

- A. Xalqchilik xarakterga ega boʻlganda.
- B. Umuminsoniy xarakterga ega boʻlganda
- \*C. Milliy xarakterga ega boʻlganda
- D. Baynalmilan xarakterga ega boʻlganda

**23. Madaniy taraqqiyot jarayonida quyidagilardan qaysi biri asos qilib olinadi?**

- A. Ajdodlar malakasi
- B. Ajdodlar merosi
- \*C. Ajdodlar tajribasi
- D. Ajdodlar iymon- eʼtiqodi.

**24. Madaniyatshunoslik fani nimani oʻrganadi?**

- A. Madaniyatning dunyoqarashi va ijtimoiy taraqqiyotdagi oʻrnini
- B. Madaniyatning aniq sohalarini
- C. Madaniyatning tarixiy real ijtimoiy hodisa ekanligi
- D. Javoblarning hammasi toʻgʻri

**25. Quyidagilardan qaysi birlari moddiy madaniyatning mavjudlik shakllari hisoblanadi?**

- A. Predmet va madaniy ijodiy jarayon shaklida namoyon boʻlishini
- B. Predmet va diniy eʼtiqod sifatida mavjud boʻlishini
- C. Predmet va falsafiy tafakkur sifatida mavjud boʻlishini
- \*D. Predmet va insonning qobilyati va bilimlari shaklida mavjudligi

**26. Madaniyatning bosh vazifasini koʻrsating?**

- \*A. Faoliyatning subʼekti hisoblangan insonni kamol toptirish
- B. Faoliyatning subʼekti hisoblangan insonni mantiqiy tafakurini rivojlantirish
- C. Faoliyatning subʼekti hisoblangan insonni tabiat va jamiyat qonunlari bilan tanishtirish
- D. Hammasi toʻgʻri

**27. Maʼnaviy madaniyatning mavjudlik shakllarini koʻrsating?**

**lug`aviy ma`nosiga bog`liq?**

- A. Insonning urug`chilik davri bilan bog`liq hayotiga
- B. Insonning qabila hayoti bilan bog`liq hayotiga
- C. Insonning qishloq jamoasi bilan bog`liq hayotiga
- \* D. Insonning shahar jamoasi bilan bog`liq hayotiga

**17. “ Kul`tura” so`zi dastlab qaysi ma`noda ishlatilgan?**

- A. Insonning ongli tafakkurini yetiltirish ma`nosida
- B. Insonning ruhiy olamini takomillashtirish ma`nosida
- C. Insonning hayvonlarni qo`lga o`rgatish ma`nosida
- \*D. Insonning dehqonchilik bilan shug`ullanish ma`nosida.

**18. Madaniyat tushunchasi qachondan boshlab inson ongli faoliyati uchun qullanilgan**

- A. Insonning hayvonot dunyosidan ajralib chiqqa boshlagan davrida.
- B. Insonning ollohning kashf qilib g`orlarni tark etgan davrida
- C. Insonda diniy tasavvurlar shakllana boshlagan davrda
- \*D. Inson tafakkuri va ruhiyatini takomillashtirishga intilish kuchaygan davrda.

**19. Sivilizatsiyaga hos taraqqiyot deganda nimani tushunasiz?**

- A. Manaviy faoliyatga bog`liq faoliyatni
- B. Texnika taraqqiyoti bilan bog`liq faoliyatni
- C. Umum ijtimoiy taraqqiyot bilan bog`liq faoliyatni
- \*D. Javoblarning hammasi to`g`ri

**20. Sivilizatsiyaning vujudga kelishidagi eng muhim omil nima?**

- A. Temir qurollari ishlab chiqarish.
- B. Davlatning tashkil topishi
- C. Sinflarning paydo bo`lishi.
- \*D. Javoblarning hammasi to`g`ri.

**21. Quyidagilardan qaysi biri milliy madaniyatda eng muhim omil hisoblanadi?**

- A. Umuminsoniylik
- \*B. Milliylik.
- C. Baynalmilanlik

«madaniyat maydoni» deb qabul qildilar. Inson madaniyatining mahsuli emas, balki madaniy boyliklarni yaratuvchi mavjudod sifatida gavdalandi, tashqi sharoitlar, ya`ni tabiat hodisalarini ta`sirida bo`luvchi ob`ekt sifatida emas, balki o`zi tabiat hodisalariga ongli ta`sir ko`rsatuvchi, ikkinchi tabiatni yaratuvchi sub`ekt sifatida taqdim etildi.

Shu ma`noda ham aytish mumkinki, insonning boshqa mavjudodlaridan ajralib turish chegarasi bu madaniyat chegarasidir. Inson madaniyatiga mansub bu chegara uni ijtimoiy borliqdan ajratib turuvchi devor ham emas, balki insonning o`z «tabiatiga ko`ra kim bo`lishi uchun bosib o`tishi lozim bo`lgan tarixiy masofadir. Bu chegara butun insoniy tarixdir, insonning shakllanishi va rivojlanishi jarayondir. Shunga muvofiq madaniyat ham ana shu chegaraga teng kattalikdir. Bu masofaning tarixiy yo`lining ikki nuqtasi ajratib boradi: ulardan birinchisi, odamning hali tabiatdan ajralmagan holati (bu tabiiy holat); ikkinchisi, aql qonunlari bilan oldindan belgilangan holat (bu, aqlli olat). Demak, madaniyat ayni bir paytda insoniyat paydo bo`lgandan boshlab bosib o`tgan tarixiy yo`l va shu yo`lning bosh natijasidir.

**Madaniyatshunoslik fani –madaniyat haqidagi falsafiy ta`limot ekanligi**

Hech mubolag`asiz aytish mumkinki, jamiyatimizning ijtimoiy-iqtisodiy yo`nalishlaridagi taraqqiyoti shu jamiyatda yashayotgan va faoliyat ko`rsatayotgan kishilarning madaniyat tushunchasi va tasavvuri, qobiliyat va malakalariga bevosita bog`lik bo`ladi.

Shu ma`noda ham aytish mumkinki, bugungi kunda gap inson faoliyatining serqirra sohalari haqidami, tafakkur rivojining me`yorlari to`g`risidami, qadriyatlarga yangicha munosabatlar zaruriyati borasidami, bundan qa`tiy nazar madaniy jarayonga mansub ana shunday keng qamrovli tushunchalar haqida bahs yuritish «Madaniyatshunoslik» fanining bosh mavzusi bo`lib qolaveradi. Chunki, madaniy jarayon haqida ana shunday ham ilmiy-na-

zariy, ham amaliy ahamiyatga molik bo'lgan bilimlar sistemasi bu fan ob'ektida mujassamlasha borishi uning ijtimoiy fanlar qatoridagi o'z o'rni va mavqeini belgilab olishda o'ziga xos ustuvor ahamiyat kasb eta boradi.

Ko'rinib turibdiki, talabalar «Madaniyatshunoslik» fanini o'rganish jarayonida jamiyat moddiy va ma'naviy taraqqiyotining o'ziga xos qonunlarini hamda ana shu jarayonda inson omilining ijodiy yaratuvchanlik faoliyatiga xos maxsus bilimlar sistemasini o'zlashtira borishi bu fanning mushohada yuritish predmet ob'ekti ekanligini yanada chuqurroq anglab yetadi. Qolaversa, ana shunday xulosaga ega bo'la borayotgan talabalar madaniyatshunoslik fani falsafiy ta'limot sifatida nafaqat madaniyat masalalari, uning tarkibiy qismlari borasida fikr va mulohazalar yuritadi, o'z navbatida madaniyatning jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini ham ochib beradigan ta'limot ekanligini bilib boradi.

Yuqorida ta'kidlangan fikr va mulohazalardan kelib chiqib, shuni aytish mumkinki, madaniyatshunoslik fani o'zining predmeti tadqiqot ob'ektlarini belgilab olishda qo'yidagi yo'nalishlarda bahs va munozaralar yuritishni taqoza etadi.

- Madaniyat tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida o'rganuvchi maxsus bilimlar sistemasi ekanligini ta'minlash.

- O'z predmeti obyektida madaniyat taraqqiyotiga xos qonunlarni o'rganishni bosh masala deb bilish.

- Madaniyat tushunchalarini tahlil etishda boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqadorlikda bo'lish va ayni ana shu jarayonda o'zining takrorlanmas xususiyatlarini belgilab olish.

- Madaniyatning jamiyat hayotidagi ijtimoiy-amaliy, tarbiyaviy va dunyoqarashni shakllantirish hamda bilim berish funksiyalarini aniqlay borish.

- Jamiyat taraqqiyotining o'ziga xos bosqichlarida vujudga kela borgan mafkuraviy tizimlar tayziqi ostida madaniy jarayondagi vujudga kela borgan ziddiyatlarning ob'ektiv va sub'ektiv sabablarini tahlil eta borish.

- Mustaqillik sharoitida bu fanning dolzarb masalalarini belgilab berish.

Mana shuning uchun ham bu ta'limotni madaniyat haqidagi, shunchaki kuzatishlar, qarashlar va dalillarning oddiy yig'indisi-

- \*A.Abu Nosr Farobiy
- B.Abdulqosim Firdavsiy
- C.Barbad
- D.Abdurahmon Jomiy.

### **12.XVII-XVIII asrlarda Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatining asosiy xususiyatlari nimada?**

- \*A. ma'naviy hayotda diniy mataassiblikning hukmronlik qilishi
- B.tabiiy fanlar taraqqiyotining iqtisodga ta'siri
- C. san'atda olamshumul asarlarning paydo bo'lishi
- D.ilmiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotining vujudga kelishi.

### **13.O'z davrida arab iste'lochisiga qarshi kurashgan «yuzi pardali odam» deb nom olgan Xoshim ibn Hakim hakida qaysi o'zbek yozuvchisi asar yaratgan?**

- A.M.Shayxzodaning «Jaloliddin Manguberdi» asari
- \*B.X.Olimjonning «Muqanna» asari
- C.Behbudiyning «Padarkush» asari
- D.Odil Yoqubov «Diyonat» asari

### **14.Jamiyat madaniyatining rivojini nimalarga bog'lik deb bilasiz?**

- A.jamiyatda milliy kadrlar tayyorlash siyosatiga
- B.jamiyatning iqtisodiy taraqqiyotiga
- \*C.jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga
- D.jamiyatning siyosiy rivojiga.

### **15. Ma'naviy madaniyat rivojiga yetakchilik qiluvchi omillar ?**

- A. Jamiyatdagi siyosiy partiyalar
- \*B.Jamiyatning ijtimoiy-siyosiy mafkurasi
- C. Milliy madaniyat markazlari.
- D. Jamoat tashkilotlari.

### **16. Quyidagi javoblardan qaysi biri “ Madaniyat” so'zining**



- A.insonning turish-turmushingni
- B.mehmon kutish, ovqat tayyorlash va ovqatlanish madaniyatini
- \*C.oilaning turmush kechirish shart- sharoitlari va hayotga munosabatini
- D.oila tejamkorligini.

**7.Badiiy madaniyatning mohiyati nima?**

- A. badiiy obrazlarni ilmiy tushunchalar orqali ifodalash
- B.hayotni falsafiy mushoxada etishga o`rgatish
- C.kishilar hissiyotini rivojlantirish
- \*D.hayotni ijtimoiy /estetik ideallarga muvofiq badiiy obrazlar orqali ifoda etishda.

**8.Bog`doddagi Sharq ilmiy tafakkuri taraqqiyotiga kuchli ta`sir ko`rsatgan «Bayt ul Hikma» Donishmandlar uyi/ qaysi davrda va kim tomonidan tashkil etilgan?**

- A.VIIIasrda xalifa Mansur tomonidan
- \*B.IX asr boshida xalifa Xorun ar Rashid tomonidan
- C.IX asrning birinchi yarmida Xalifa Ma`mun tomonidan
- D. IX asrning ikkinchi yarmida buyuk matematik va astronom al Xorazmiy tomonidan.

**9.Yevropa «Uyg`onish» /Renessans/ davri madaniyatining va-tani qaysi mamlakatda hisoblanadi?**

- A.Gretsiya
- B.Frantsiya
- \*C.Italiya
- D.Germaniya.

**10.Qadimgi Grek adabiyotining taniqli dramaturglarining nomlarini ko`rsating?**

- A.Plutaxr, Arrian, Diodor,Strabon.
- B.Suqrot, Fales, Geraklit, Ksenofon.
- C.Ezop, Sapfo, Tirtey, Gomer.
- \*D.Esxil, Sofokl, Evritsid, Aristofan.

**11.Sharq musiqasining nazariyotchisini ko`rsating?**

dangina iborat bo`lmasligi, o`z navbatida bu ta`limotni madaniyat va jamiyat munosabatlariga xos jarayonning natijasi o`laroq vujudga kela boradigan madaniyat haqidagi falsafiy bilimlar majmuidir deb tushunmoq zarur.

Madaniyatshunoslik fanini madaniyat haqidagi ilmiy-falsafiy ta`limot ekanligiga xos yana bir muhim xususiyat shundaki, bu fan o`zining predmet ob`ektidagi u yoki bu narsa va hodisalar haqida mushohada yuritganda ma`lum bir ilmiy-amaliy ahamiyatga molik bo`lgan muayyan asosga tayanib ish ko`radi. Bu ta`limotga xos aynan mana shu xususiyatlar madaniyat borasidagi turlicha qarashlarning mazmuni va mohiyatini falsafiy nuqtai nazardan belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi. Ana shunday o`zining ilmiy-falsafiy kontsepsiyalariga tayanib ish ko`radigan madaniyatshunoslik ta`limoti madaniyat borasidagi har qanday g`ayri ilmiy qarashlardan farqli o`laroq o`z tadqiqot ob`ektini real voqelikning o`ziga qaratadi. Va madaniyat insoniyat qo`lga kiritgan ijtimoiy faoliyatining mahsuli ekanligini ta`kidlagan holda, uni jamiyat hayotini real ehtiyojlariga, qolaversa uning taraqqiyotiga xizmat qiladigan katta sotsial kuch ekanligini alohida qayd etadi.

Madaniyatshunoslik fanining madaniyat haqidagi ilmiy-falsafiy ta`limot ekanligining uchinchi bir xususiyati shundaki, bu fan ham boshqa fanlar kabi o`zining tayanch nuqtalari bo`lmish o`z kategoriyalari sistemasini shakllantira boradi. Qolaversa, o`zining kategoriyalariga xos tushunchalar tizimida o`z davrining dunyoqarashiga mos tajribalar, nazariy va amaliy ahamiyatga molik qarashlar, hamda xulosalarni o`z yo`nalishlarga ko`ra u yoki bu kategoriyalarining mazmun va mohiyatida mujassamlashtira boradi. Bu o`rinda: «Madaniyat tipologiyasi», «Madaniy qadriyat», «Madaniy jarayon», «Madaniy meros», «Madaniyatda rang-baranglik va umummushtaraklik», «Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik», «Til va madaniyat», «Madaniyat va sivilizatsiya», «Ahloqiy madaniyat», «Huquqiy madaniyat», «Siyosiy madaniyat», «Iqtisodiy madaniyati», «Estetik madaniyat» kabi ko`plab kategoriyalarini qayd etish mumkin.

Madaniyatshunoslik fanining ilmiy-falsafiy ta`limot ekanligi borasidagi o`ziga xos jihatlarni talabalarga yetkaza borishda bu fanning boshqa ijtimoiy gumanitar fanlar bilan o`zaro aloqadorligi

va ana shu fanlar tizimida tutgan o`rni nimalardan iborat ekanligi haqida ham bahs va munozara yuritish alohida ahamiyat kasb etadi.

Zero madaniyat masalalari va muammolari yuzasidan falsafa, tarix, ahloqshunoslik, estetika, siyosatshunoslik, arxeologiya, sotsiologiya, etnografiya, san`atshunoslik, adabiyotshunoslik, tilshunoslik qolaversa pedagogika fanlari ham bahs va munozara yuritadi. Ayni shu jarayonda masalaning muhim tomoni shundaki, har bir fan madaniyat haqida bahs va mushohada yuritganda eng avvalo o`zining predmeti ob`ektining ehtiyojlari nuqtai nazardan masalaga yondoshadi.

Masalan, falsafa fani madaniyatni ijtimoiy hodisa sifatida talqin etarkan, o`z mushohadalari me`yorida madaniyatni jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga bog`liq holda rivojlana borishi hamda ayni ana shu taraqqiyot jarayonida madaniyatning o`rni va ahamiyatiga xos o`zaro aloqadorlik mavjudligining dialektik qonunlarini tahlil etadi.

Eng muhimi, ilmiy-falsafiy ta`limot madaniyatga mansub tushunchalar tizimini o`rganganda «Narsa o`zida» mavjud uni bilish mumkin emas degan nuqtai nazardan emas, aksincha madaniyat insoniyatning mavjud olamdagi narsa va hodisalarni bilish va o`zlashtira borishi jarayonining mahsuli ekanligini ochib beradi. Shu nuqtai nazardan tabiat va jamiyatga xos butun voqeylik falsafa uchun «Madaniyat dunyosi» ga aylana boradi. Shuning uchun falsafa ijtimoiy voqeylikka xos butun insoniylashuv jarayonini madaniyatning mazmun va mohiyatiga bog`liq holda o`rganishni taqozo etadi.

Qisqacha qilib aytganda falsafa uchun madaniyat ajratib olingan empirik bilimlar, g`oyalar yig`indisi emas, balki bu ta`limot madaniyat tushunchasi asosida insonning ongli mavjudot sifatida o`z oldiga muayyan maqsadni qo`ya bilishi, o`z aqli tafakkuriga ko`ra yaratuvchanlik, ashabbuskorlik hamda ijodkorligiga xos keng qamrovli faoliyatning mujassamlasha borishi ekanligini qayd etadi.

Huddi shuningdek madaniyatshunoslik fani bilan san`atshunoslik va adabiyotshunoslik fanlari ham chambarchas bog`liq bo`ladi.

Bizga ma`lumki madaniyatshunoslik fani ma`naviy madaniy

## TEST SAVOLLARI

### 1. Madaniyat deganda nimani tushunamiz?

- A. insonning moddiy boyliklar ishlab chiqarish faoliyatini
- B. insonning ma`naviy faoliyat darajasini
- \*C. insonning faol ijodiy faoldiyatini.
- D. insonning ilmiy- tafakkur faoliyatini.

### 2. Sivilizatsiya deganda nimani tushunamiz?

- A. urbanizatsiya bilan bog`liq faoliyatini
- B. texnika taraqqiyoti bilan bog`liq faoliyatini
- \*C. umumijtimoiy taraqqiyot bilan bog`liq faoliyatini
- D. ma`naviy taraqqiyot bilan bog`lik faoliyatini.

### 3. Qaysi xususiyatga ega bo`lgan madaniyatlar mukammal milliy madaniy ijodiy faoliyatga aylanadi?

- A. xalqchilik xarakteriga ega bo`lganda
- B. umuminsoniy xarakterga ega bo`lganda
- \*C. milliy xarakterga ega bo`lganda
- D. baynalmilal xarakterga ega bo`lganda.

### 4. Madaniy merosga qanday munosabatda bo`linadi?

- \*A. madaniy merosga baholash va ijodiy rivojlantirishni ko`zlagan holda
- B. madaniy merosga iste`molchi sifatida yondoshiladi.
- C. madaniy merosga saqlash va ehtiyotlash uchun yondoshiladi
- D. madaniy merosga taqsimlovchi va ayirboshlovchi sifatida yondoshiladi.

### 5. Inson madaniyatlik darajasining o`lchovi nimada?

- A. kishining xulq madaniyati muammosini hal qilishda
- B. did bilan kiyinish va o`zini tuta bilishda
- \*C. shaxsning tabiat bilan jamiyat hamda o`ziga ma`naviyat qonunlari talabi asosida munosabatda bo`lishi.
- D. axloqiy normalar doirasidan chiqmaslikda.

### 6. Turmush madaniyati nimani ifodalaydi?

4. Jadidchilik harakati va uning milliy madaniyatimiz rivojidadagi ahamiyati.

#### **27-Variant**

1. Sharqda milliy ozodlik harakatlari va milliy madaniyat muammolari.
2. Jahon madaniyati rivojiga xos umumshartkorlik va uning milliy madaniyatlar rivojiga ta'siri.
3. Til yaqinligiga ko'ra milliy madaniyatlar rivojining o'ziga xos xususiyatlari.
4. Madaniyat klassik modelining asosiy printsiplari.

#### **28-Variant**

1. Madaniyat tushunchasining ilmiy-falsafiy tahlili.
2. Yevropa maddochilik madaniyatining asosiy g'oyasi va maqsadi.
3. O'zbekiston mustaqilligi sharoitida o'zbek tili funksional usuliyatlarining boyib borishi va uning madaniyatimiz rivojidadagi o'rni.
4. Madaniyatshunoslik fanining dunyoqarashni shakllantirishdagi ahamiyati.

#### **29-Variant**

1. Moddiy va ma'naviy madaniyat tushunchalari, ularning o'zaro munosabatlari va farqli xususiyatlari.
2. Sobiq ittifoq davri madaniy siyosati, o'zbek milliy madaniyati rivojidadagi ziddiyatlar.
3. Osiyotsentrizm nazariyasini tanqid.
4. Madaniyat va tsivilizatsiya.

#### **30-Variant**

1. Din ma'naviy madaniyatining o'ziga xos tizimi ekanligi.
2. Huquqiy madaniyatning paydo bo'lishi va rivojlana borishi.
3. Madaniyatning tarixiy tipologiyasi.
4. Istiqloq va o'zbek milliy madaniyati rivojining dolzarb masalalari.

### **Madaniyatshunoslik fanidan**

tizimlarining o'ziga xos shakllari bo'lgan san'at va adabiyot haqida, uning rivojlana borishi jamiyat taraqqiyotiga bog'liq ekanligi va o'z navbatida ana shu jarayonda ularning o'ziga xos badiiy nafasli ta'sir etish imkoniyatlarining yuzaga kelishini tahlil etadi. Bu boradagi masalaning muhim tomoni shundaki, ana shu san'at va adabiyotning taraqqiyot qonunlarini tahlil etuvchi dasturamallik vazifasini adabiyotshunoslik fani bajaradi.

Madaniyatni ilmiy-amaliy nuqtai-nazardan o'rganishda tarix fanining ham ahamiyati katta. Tarix fani u yoki bu davrlar madaniy-tarixiy jarayon haqida mushohada yuritarkan, eng avvalo xronologik izchillikka amal qilgan holda u yoki bu millat, halq madaniyatining paydo bo'lishi va rivojlanishini har bir ijtimoiy-tarixiy bosqichiga xos madaniy jarayon sifatida o'sha davr iqtisodiy-siyosiy shart-sharoiti bilan birgalikda o'rganadi. Qolaversa, tarix fani muayyan bir davr madaniy hayotini o'rganishga kirisharkan, o'sha madaniy hayotda o'z davri ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning mavqeini izohlashga alohida e'tibor qiladi.

Etika va estetika fanlari ham madaniyatshunoslik fani bilan nihoyatda chambarchas bog'liqki, hatto bu fanlarning o'ziga xos tarkibiy qismlariga ko'ra o'rtadagi nisbiy farqlar ham tafovvutli ahamiyat kasb etmagandek tuyuladi. To'g'ri, etika jamiyat ahloqining paydo bo'lishi va rivojlanishi qonunlari, uning asosiy kategoriyalari, norma va tamoyillarini o'z qonunlari nuqtai nazardan tahlil etadi. Shuningdek estetika ham tabiat, jamiyat va inson faoliyatidagi nafas olami haqida bahs yuritganda masalaning yechimini estetik ong doirasidan turib hal etadi. Ko'rinib turibdiki, har ikkala fan uchun ham insonni ongli faoliyati bosh mavzu bo'lib qolmoqda. Huddi ana shu jarayon bu fanlarning madaniyatshunoslik fani tizimida tarkib topishini izoh etadi. Lekin bu bilan estetika va etika fanlari madaniyatshunoslik fanidan farqli xususiyatlariga ega emas ekan degan hulosaga kelib chiqmasligi kerak. Chunki, etika va estetika fanlari madaniyatshunoslik fanining qonun va kategoriyalariga tayanib o'z tadqiqot ob'ektini o'rgana borsada, madaniyat masalasini yaxlit bir tizim sifatida tahlil eta olmaydi. Bu fanlar o'zlarining takrorlanmas ichki xususiyatlari nuqtai nazardan turib ahloqiy madaniyat, estetik madaniyat ko'rinishida ish tutadi.

Madaniyatshunoslik fani bilan boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar o'rtasidagi aloqalarni bir yoqlama tushinish, ya'ni madaniyat masalalari va uning muammolarini faqat madaniyatshunoslik fani hal qiladi, degan xulosaga ham bormaslik kerak. Chunki ular o'rtasidagi o'zaro aloqadorlik va hamkorlikni e'tibordan soqit qilish ilmiy-amaliy jihatdan mumkin emas. Zero madaniyatshunoslik barcha ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan nihoyatda chambarchas aloqadorlikda o'zini mazmunan boyitib boradi. Qolaversa ana shu aloqadorlik asosida madaniyatshunoslik fanining mazmun va mohiyatini, uning o'zgarishlarga boy taraqqiyot yo'sinini, jamiyat moddiy va ma'naviy hayotidagi tutgan o'rni va ahamiyatni to'g'ri tushinish, uning ijtimoiy amaliy va muayyan vazifalarni bajarish xususiyatlarini belgilab olishga yordam bera borarkan o'zining qo'yidagi ijtimoiy va amaliy vazifalarini belgilab olish imkoniyatlarini vujudga keltiradi.

Birinchiidan: madaniyatshunoslik fani madaniyatning shakllanishi va rivojlana borishining o'ziga xos qonunlarini gnoseologik nuqtai nazardan tahlil etish orqali jamiyat a'zolariga muayyan yo'nalishga qaratilgan bilim berish vazifasini amalga oshirada. Bunda jamiyat madaniy-tarixiy jarayonida to'plana borgan ilmiy-nazariy va amaliy bilimlar, qarashlar va munosabatlar bayon etiladi va ular ma'lum bir manbalar to'plamiga aylana boradi. Natijada madaniyat va uning yaratuvchisi bo'lgan insonning bunyodkorlik faoliyatiga turlicha munosabatlar g'oyaviy va ma'naviy jihatdan tadqiq etiladi hamda tahlil etishning yangicha yo'nalishlari vujudga kela boradi.

Ikkichidan, madaniyatshunoslik fani jamiyat a'zolarining dunyoqarashini shakllantirishi va o'stirish vazifasiga ega bo'ladi. Uning bu vazifasi bilim berish vazifasi bilan bevosita bog'liq holda, kishilarga o'zlari yashab turgan ijtimoiy tuzumning manfaatlariga xos va mos holdagi madaniy siyosatga mansub mafkuraviy qarashlarni tavsiflash va izohlash orqali g'oyaviy ta'sir eta boradi. Ana shu kuch ta'sirida shakllana borayotgan dunyokarash esa, har bir jamiyat a'zosiga xos yaratuvchanlik va ijodkorlik tamoyillari va qobiliyatlarini, ishtiyoqlarini insoniy ehtiyojlarga xizmat qilishga boshqarib boradi.

Uchinchiidan madaniyatshunoslik fani tarbiyaviy vazifaga

1. Chorizm istilosi sharoitida o'zbek milliy madaniyati rivojida ziddiyatlar.
2. Yevropada ma'rifatchilik davri madaniyatining vujudga kelishi.
3. Til va madaniyat.
4. Diniy-falsafiy e'tiqod yaqinligiga ko'ra milliy madaniyatlarining rivojlana borishi.

### 23-Variant

1. Madaniyat falsafasi haqida..
2. Ma'rifatchilik davrida dinga bo'lgan munosabatlarni o'zgarishining madaniyatga ta'siri.
3. Ibtidoiy sinkretizm ongining parchalanishi jarayonining ma'naviy madaniyat tizimlari rivojida o'zining roli.
4. Musulmon Sharq xalqlari uyg'onish davri madaniyati.

### 24-Variant

1. «Kultura» so'zining madaniyat ma'nosidagi tahlilini izohlab bering.
2. Madaniyatning «Klassik modeli» tushunchasi.
3. Ma'rifatchilik g'oyalarining o'zbek milliy madaniyatini rivojida o'zining roli va ahamiyati.
4. Din va siyosiy mafkuraning madaniyatga ta'siri.

### 25-Variant

1. Madaniyatda milliy mahdudlik va millatchilikning zararli oqibatlari.
2. Din va siyosiy mafkuraning madaniyatga ta'siri.
3. Markaziy Osiyo xalqlarining O'rta asrlar davri madaniyatida ilm-fan yutuqlarining mujassamlasha borishi.
4. Madaniyatdagi vorisiylikning madaniy jarayon rivojida o'zining roli va ahamiyati.

### 26-Variant

1. Qadim Grek va Rim madaniyatining klassik davri.
2. Ma'naviy madaniyat rivojida huquqiy va siyosiy madaniyatning o'zining roli.
3. Qadimgi davr milliy madaniyatimiz rivojida Beruniy va Farobiyning roli.

4.Bo'lajak mutaxassis (talaba)larning qishloq madaniyatini o'zgartiruvchi asosiy kuch deganda nimani tushunasiz?

### **18-Variant**

- 1.Ma'naviy madaniyat tizimlarining shakllanishi va rivojlani-shining o'ziga xos xususiyatlari.
- 2.Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik.
- 3.XVII-XIX asrlar Yevropa ilmiy tafakkur taraqqiyoti.
- 4.Sharq Uyg'onishq davri madaniyati.

### **19-Variant**

- 1 .Diniy mafkuraning madaniyatga ta'siri.
- 2.Yevropa ma'rifatparvarlik harakati va uning ijtimoiy-madaniy jarayonga ta'siri.
3. Qadimgi yunon madaniyati: Arxaika davri badiiy va ilmiy falsafiy tafakkur taraqqiyoti.
- 4.Madaniyatning tarixiy va qiyosiy tipologiyasi.

### **20-Variant**

- 1.Madaniyatshunoslik fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqadorligi.
- 2.Sivilizatsiya tushunchasi va uning madaniyat tushunchasi bilan o'zaro yaqinligi va farqli xususiyatlari.
- 3.Madaniyatning qiyosiy tipologiyasi.
- 4.Madaniyatda milliylik va umumiysoniylik.

### **21-Variant**

- 1.Madaniyat ijtimoiy hodisa ekanligi.
- 2.Ma'naviy madaniyat tizimlarining shakllanishi va rivoj-lana borishining o'ziga xos xususiyatlari.
3. «AVESTO» qadimgi ajdodlarimiz ma'naviyati va mada-niyatining muqaddas namunasi ekanligi.
- 4.Istiqlol va o'zbek milliy madaniyati rivojining dolzarb masalalari.

### **22-Variant**

ega bo'lib bu jarayonda barkamol inson madaniyatining serqirra yo'nalishlarini tarbiyalashga xizmat qiladi. Bu eng avvalo kishilar-da yurish-turish, muammola, jamoatchilik ichida o'zini tuta bilish madaniyatidan tortib, qadriyatlarni o'zlashtira bilish, san'at, ada-biyot namunalari asosida badiiy ehtiyojlarini o'stira borish, uning ahloqiy – estetik madaniyatini shakllantirish qolaversa, o'z kasbi-ning ijodkori bo'la olish kabi xilma-xil sifatlar bilan izohlanadi.

Yuqorida ta'kidlaganlardan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqilligi sharoitida o'z istiqloli va istiqboli sari dadil intila borayotgan mamlakatimiz ijtimoiy hayotida madaniyat masalalari davlat ahamiyatiga molik ustuvor yo'nalishlar darajasiga chiqib bormoqda. Zero, mustaqillik sharofati ila vujudga kelgan ana shunday madaniy siyosat asosida halqimizning ongi va dunyoqarashida shakllana borayotgan hozirgi zamon ruhi va karakteriga xos bunyodkorlik, ishbilarmonlik, fidoyilik va tashab-buskorlikka xos erkin fikr va erkin iqtisod tushunchalarining ota-bobolarimiz an'analariga mos oliyanob maqsadlarga qarata borishi bilan bir qatorda shu jamiyat ma'naviyati va madaniyatini taraqq-qiyotimizning qudratli kuchiga aylantira bormoqda.

### **Ma'naviy madaniyat tizimlarining shakllanishi va rivojlana borishining o'ziga xos xususiyatlari**

Talabalarning madaniyat borasidagi bilimlari sistemasini ta-komillasha borishida madaniyat tizimlari borasidagi tushunchala-rini egallay borishlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham ularga ma'naviy madaniyat tizimlarining vujudga kela borishi va taraqqiyotining o'ziga xos jarayon ekanligi haqida ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy ahamiyatga molik tushunchalarni yetkazish lozim.

Darhaqiqat tarixga nazar solsak, ma'naviy madaniyat tizim-larining dastlabki ilk ko'rinishlarining paydo bo'lishi kishilik jamiyati tarixini ilk ibtidoiy davrlariga borib taqaladi. Odamzod o'zining o'sha ibtidoiy davridayoq sodda ibtidoiy sinkretizm ko'ri-nishlaridagi ong darajasida kundalik moddiy ehtiyojlari zaruriyati nuqtai nazardan o'ziga xos faoliyat ko'rsata borishi asosida o'zi-

ning taraqqiyotini ana shu darajasidagi ma'naviy ehtiyojlarini ham shakllantirib kelganligi borasida juda ko'plab misollar keltirish mumkin. Qolaversa, ibtidoiy davrni insoniyat hayoti faoliyatining ijtimoiy-madaniy nuqtai nazardan boshlang'ich yo'nalishi ekanligini tahlil etarkanmiz, odamzod ana shu davrdanoq egallay borgan ma'naviyati darajasida yashash, mehnat qilish, malakalarini egallay borganligini alohida qayd etish mumkin. Ana shunday malakalar va tushunchalar asosida odamzodning ongli maqsadga muvofiqlasha borayotgan mehnatining ijtimoiy-tarixiy jarayondagi taqsimoti ham o'zgarib boradi. Ana shu hayotiy zaruriyatlar asosida ovchilik, chorvachilik, dehqonchilik, hunarmandchilik kabi mehnat turlari vujudga keldi.

Mehnat tarixiy taqsimotidagi bunday o'zgarishlarning vujudga kela borishi esa jismoniy va aqliy mehnatning mazmuni va mohiyatida yangicha sifatlarning yanada mukammallashuviga, falsafiy ma'noda aytganda ibtidoiy ongining sinkretizm ko'rinishidagi holatini asta-sekinlik bilan xilma-xil ko'rinishdagi shakllarga ajralishini boshlab berdi. Ana shu jarayonda odamlarning olam haqidagi mifologik tushunchalari zaminida, diniy, ahloqiy, falsafiy, badiiy estetik, ko'rinishlardagi ilk ma'naviy madaniyat tizimlari vujudga kela bordi.

Bu o'rinda ma'naviy madaniyatning ilk qadimgi shakllaridan biri badiiy estetiklik haqida fikr yuritadigan bo'lsak, uning mazmunida insonning tabiat va jamiyatning umumiy birligi-yu, ichki va tashqi aloqadorligi jarayoniga xos rang-barang hodisalari, narsa va predmetlari to'g'risidagi hissiy tushunchalari bilan to'yingan badiiy obrazli fikrlash manzarasini ko'rish mumkin. Shu boisdan ham aytish mumkinki, ma'naviy madaniyatning bu shakli insoniyatning o'ziga xos orzu-istaklari kechinmalari asosida badiiylasha borib, uning mayillariga xos va mos bo'lgan maqsadi yoki bu obrazli ko'rinishida bayon etila bordi.

Masalan, Qadimgi Yunonlar yaratgan «Iliada», «Odessiya» hindlarning «Ramayana», «Maxobxorot» yoki Markaziy Osiyoda yaratilgan «Avesto» kabi muqaddas asarlarda shu halqlarning o'z davriga xos hayotining badiiy-estetik talqinini ko'rishimiz mumkin.

Shuningdek, ma'naviy madaniyatning o'ziga xos shakli bo'lgan diniy madaniyatda insoniy sifatlarga xos hissiyot, muhab-

1. Insonning ikkinchi tabiat yaratishi- «Madaniyat» deganda nimani tushunasiz?
2. Qadimgi Misr madaniyati.
3. Ulug'bek davri Movraunnahr madaniyati.
4. Ma'naviyat va madaniyat tushunchalariga izoh bering.

#### **14-Variant**

1. Moddiy va ma'naviy madaniyatlar.
2. Qadimgi Xitoy va Hind madaniyati.
3. A.Navoiyning o'zbek milliy madaniyat rivojida o'rni.
4. Ekologik tanazzul va uning insoniyat madaniyati taraqqiyotiga salbiy ta'siri.

#### **15-Variant**

1. Xalqlarning turmush tarziga ko'ra madaniy yaqinlashuvining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Axloq ma'naviy madaniyatning tizimi sifatida.
3. XVI-XVII asrlar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati.
4. Madaniyatda baynalmillalik tushuncasi.

#### **16-Variant**

1. Madaniyatshunoslik fanining ijtimoiy-amaliy funksiyalari.
2. Qadimgi Yunon madaniyati.
3. XVI-XIX asrlar Markaziy Osiyo xalqlari madaniyatidagi tanazzul va uning sabablari.
4. Sho'ro hokimiyati yillarida o'zbek milliy madaniyati rivojida ziddiyatlar.

#### **17-Variant**

1. Istiqloq sharoitida madaniy merosga yangicha munosabatlar zarurligining ijtimoiy tarixiy ahamiyati.
2. Qadimgi Yunon madaniyati taraqqiyoti bosqichlari va ularning asosiy xususiyatlari.
3. Markaziy Osiyoning uch xonlikka bo'linishi va madaniy hayotdagi tushkunlik.

1. Moddiy madaniyat tushunchasi.
2. Estetik madaniyat ma'naviy madaniyatning o'ziga xos shakli.
3. «G'arb Uyg'onish» davri madaniyati va uning insonparvarlik (gumanizm) xarakteri.
4. Tsivilizatsiya tushunchasining madaniyat tushunchasi bilan o'zaro o'xshashligi va farqli jihatlari.

#### **10-Variant**

1. Moddiy va ma'naviy madaniyatning tushunchasi, ularning o'zaro aloqadorligi.
2. Siyosiy madaniyatning ma'naviy madaniyatdagi rivojiga ta'siri.
3. Sharq va G'arb «Uyg'onish» davrlari madaniyatlarining o'xshash va farqli jihatlari.
4. San'at va adabiyotning ma'naviy-madaniy taraqqiyotdagi o'rni.

#### **11-Variant**

1. Madaniyat tushunchasining ilmiy-falsafiy tahlili.
2. Badiiy madaniyatning o'ziga xos shakli bo'lgan xalq og'zaki ijodining ma'naviy-madaniy taraqqiyotidagi roli.
3. Temur va temuriylar davri madaniyati va ularning xalqimiz madaniyati taraqqiyotidagi o'rni.
4. Madaniyatshunoslik fanining dunyoqarashni shakllantirishdagi vazifalari.

#### **12-Variant**

1. Hozirgi zamon ilm-fanida «Madaniyat» tushunchasining tahlili.
2. Temuriylar davri Xuroson madaniyati.
3. Qadimgi Sharq madaniyati.
4. Madaniyatshunoslik fanining ijtimoiy-amaliy vazifalari.

#### **13-Variant**

bat, zavqlanish, ehtirom, quvonch, umid va boshqalar diniy tasavvurlar bilan qo'shilib ketib, tegishli yo'nalishga ega bo'lgan ma'no va mazmun kasb eta boradi. Ana shunday hollarda ularning qarashlaridagi ilohiy tushunchalardagi «Xudoga muhabbat», «Gunoskorlik», «Itokatkorlik», «Bandalik to'yg'usi», «Xudo bilan muloqotda bo'lish quvonchi», «Narigi dunyoga umid» va hakozi kechinmalari o'ziga xos hayot normasiga aylanadi. Shuning uchun ham ana shunday diniy mazmundagi hissiyot tushunchasini ilohiyotchilar inson ongining oliy darajadagi ko'rinishi, bilishning ishonchli shakli deb ham o'qtiradilar.

Diniy madaniyatning umumiy ilohiy belgisiga xos jihati shundaki, u diniy g'oyalar, tasavvurlar, tushunchalar, afsonalarni haqiqat sifatida qabul qilish hamda ruhiy kuchning mavjudligiga ishonishni targ'ib qila boradi.

Diniy madaniyatning shakllanishi va rivojlanishida diniy urf-odatlarining yaratila borishi, shuningdek turli diniy bayramlar, marosimlarning o'tkazilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Eng muhimi u o'zining ana shu marosimlari bilan kishilar ko'nglida ko'tarinki kayfiyat, xursandchilik, hamkorlik, vijdon, burch, poklik, odamiylik va shu kabi insoniy fazilatlarini shakllantirish, ma'naviy kamol topishga ko'maklashadi. Diniy madaniyatning halq ongiga singib, uning qalbida chuqur ildiz otib ketishining boisi ham ularning oddiy kishilar ruhiyatiga moslashib, hissiyoti, tafakkuriga ta'sir etadigan va ko'p vaqtgacha esda saqlanib qoladigan yorqin obrazlar, afsonalar, rivoyatlar, shaklida izhor qilinshidir.

Diniy madaniyat xususida so'z ketganda, o'tmishda masalaga bir tomonlama yondashilib, uning ijobiy tomonlari inkor etildi. Hozirgi paytda o'tmishda qilingan xatolarga barham berilmoqda. Ijtimoiy adolat tiklanmoqda. Xalqlar, millatlar madaniyati va ma'anaviyatining erkin rivojlanishiga imkonlar yaratib bermoqda.

Bugungi diniy madaniyat tinchlikni saqlash, halqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik aloqalarini o'rnatish, insoniyatni madaniy merosi va ijobiy urf-odatlarini, an'analarini avaylab-asrashga, ekologik va demografik muammolarini ijobiy hal etishga da'vat etishga yetakchilik qilmoqda. Mana shuning uchun ham bugungi kunda diniy madaniyat haqida gap ketganda yurtboshimiz ta'kidlaganidek, «Bugungi davlatchiligimiz haqida so'z yuritganda, rejalar tuzgan-

da, dinni, eng avvalo, ham milliy, ham umuminsoniy qadriyat sifatida eʼtiborda tutishimiz lozim» (Qarang: I.Karimov. Oʻzbekistonning siyosiy-ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolining asosiy tamoyillari. T., Oʻzbekiston, 1995 yil, 55-bet.)

Siyosiy madaniyat esa, siyosatning mohiyatini anglab yetgan shaxslar va ijtimoiy guruhlarining jamiyat hayotiy faoliyati va siyosiy jarayonlar toʻgʻrisidagi tushuncha va bilimlari yigʻindisidan iborat boʻlib, ularning jamiyat siyosiy hayotida qatnashish darajasini anglatadi. Siyosiy madaniyat maʼnaviy madaniyatning boshqa tizimlaridan farqli ularoq siyosiy ong va siyosiy faoliyat shaklida namoyon boʻla boradi.

Siyosiy ong va siyosiy faoliyat umumlashib, bir-birini toʻldirib kelgan taqdirdagina siyosiy madaniyatga aylanadi. Chunki siyosiy ong mavjud boʻlsa-yu, u siyosiy faoliyat orqali mustahkamlansa, siyosiy faoliyatda oʻz ifodasini topmasa, u oddiy safсатаbozlikdan iborat boʻlib qoladi. Yoki muayyan siyosiy gʻoyalar, qarashlar va nazariyalar bilan asoslanmagan siyosiy faoliyatning umri qisqa boʻladi.

Siyosiy madaniyatning keng va tor maʼnolarda ishlatish mumkin. Keng maʼnodagi siyosiy madaniyat –bu aholining siyosiy bilimlarini, siyosiy voqealar, vaziyatlar va jarayonlarga beradigan baholari hamda ulardan kelib chiqadigan xatti-harakatlaridir. Tor maʼnodagi siyosiy madaniyatda kishilarning davlat tomonidan olib borilayotgan siyosatga boʻlgan munosabatlari va mazkur voqea yuzasidan kelib chiqadigan fikr almashuvlari kiradi.

Kishilar siyosiy madaniyatini qay darajadiligini aniqlashda ularning muayyan siyosiy voqealarga boʻlgan munosabatlari va xukmlariga qarab aniqlash mumkin.

Kishilarning davlat siyosati va ijtimoiy hayot jarayonida faol ishtirok etishi siyosiy madaniyatning shakllanishida oʻta muhim ahamiyat kasb etadi.

Shuningdek maʼnaviy madaniyat tizimida fan alohida oʻrin tutadi. Chunki, fan moddiy va maʼnaviy madaniyatning tarkibiy qismlaridan hisoblanadi. Qolaversa, fan oʻz mazmun va mohiyatiga koʻra maʼnaviy ishlab chiqarishning mahsuli sifatida oʻzida insonning maʼnaviy holatiga xos jarayonni ifoda etishi bilan birga inson yashayotgan jamiyatning ishlab chiqarish munosabatlari jarayonida

1. Madaniyat tushunchasi va uning mohiyati.
2. Til va madaniyat. Tilning madaniy taraqqiyotidagi oʻrni.
3. Islom madaniyatining milliy madaniyatimizga koʻrsatgan taʼsiri.
4. Sobiq ittifoq davri oʻzbek milliy madaniyati rivojidagi ziddiyatlar.

#### 6-Variant

1. Madaniyatning moddiy va maʼnaviy madaniyatlarga boʻlinish sabablari.
2. Ibtidoiy sinkritizm ongining parchalana borishining madaniyatga taʼsiri.
3. Buyuk allomalar-Al-Xorazmiy va Ahmad Fargʻoniy-larning milliy madaniyatimiz taraqqiyotidagi oʻrni.
4. Istiqloq va oʻzbek milliy madaniyati rivojidagi oʻziga xos hususiyatlari.

#### 7-Variant

1. Mustaqillik sharoitida madaniyatshunoslik fanining dolzarb masalalari.
2. Diniy madaniyat toʻgʻrisida.
3. Farobiy, Ibn Sino va Beruniylarning ilmiy-falsafiy tafakkur taraqqiyotiga taʼsiri.
4. Mustaqillik sharoitida oʻzbek milliy madaniyati oldida turgan dolzarb masalalar.

#### 8-Variant

1. Kultura va Madaniyat atamalarining ilmiy-falsafiy sharxi.
2. Axloqiy madaniyat maʼnaviy madaniyatning ajralmas qismi sifatida.
3. Oʻzbekiston mustaqilligi sharoitidagi madaniy siyosatning milliy madaniyatimiz rivojidagi oʻrni.
4. «AVESTO» qadimgi ajdodlarimiz maʼnaviy madaniyatining yozma yodgorligi ekanligi.

#### 9-Variant



## **varianti**

### **1-Variant**

- 1.Madaniyatshunoslik fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
- 2.Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik tushunchalari.
- 3.Qadimgi Yunon va Rim madaniyati.
- 4.Qadim Sharq xalqlari madaniyati.

### **2-Variant**

- 1.Madaniyatshunoslik fani madaniyat haqidagi falsafiy ta'limot ekanligi.
- 2.Urbanizatsiyalashuv jarayonida madaniyatning o'rni.
- 3.Qadimgi Rim madaniyati va uning keyingi Yevropa madaniyatiga ta'siri.
- 4.XVII-XIX asrlar Yevropa xalqlari madaniyati.

### **3-Variant**

- 1.Madaniyatshunoslik fanining boshqa ijtimoiy-gumanitar fanlar bilan o'zaro aloqasi.
- 2.Madaniyatda milliy mahdudlik va millatchilikning zararli oqibatlari.
- 3.O'rta asrlar Yevropa madaniyatining tanazzulga uchrash sabablari.
- 4.Chorizm istilosi sharoitida O'zbek milliy madaniyati rivojidadagi ziddiyatlari.

### **4-Variant**

- 1.Madaniyat ijtimoiy hodisa ekanligi.
- 2.Madaniyatda meros va vorislik tushunchalari.
- 3.Sharq Uyg'onish davri madaniyatining o'ziga xos xususiyatlari.
- 4.Jadidchilik harakati va uning milliy madaniyatimiz rivojidadagi ahamiyati.

### **5 – Variant**

o'ziga xos vositaga aylana borishiga ko'ra ham moddiy madaniyatning namunasiga xoslik ko'rinishini kashf etadi.

Shuning uchun ham fan madaniyat tizimi sifatida e'tirof etilgan ekan, eng avvalo uning insoniyatning xususiylashgan maxsus bilimlarini o'zida mujassamlashtira boruvchi ijtimoiy hodisa ekanligini nazardan qochirish kerak. Bu o'rinda shuni ta'kidlash joizki, fan har qanday tushuncha, qarashlardan farqli ularoq ijtimoiy amaliyotda jamiyat ehtiyojlariga xizmat qilish darajasiga ko'tarilgan nazariy va amaliy bilimlar majmui sifatida vujudga kela boradi.

Binobarin ijtimoiy-madaniy taraqqiyot jarayoni shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy amaliyot-insoniyatning bilim va malakalarini jamiyat manfaatlariga mos yoki zid ekanligini ko'rsata borish jarayonida fanga ulkan vazifalarni qo'yadi.

Jamiyat hayotida o'ziga xos sotsial kuchga aylana borayotgan fan rang-barang olamdagi narsa va hodisalarni o'rgana borarkan, ular orasidagi o'zaro aloqadorlikni aniqlab ularning qaysi biri muhim, qaysi biri nomuhim ekanligi to'g'risida xulosalar chiqaradi. Fan ana shunday murakkab jarayonda insoniyatning ilmiy bilish faoliyatining o'ziga xos shakli sifatida tarkib topa borarkan, olamdagi cheksiz narsa va hodisalar tizimini o'rganadigan qonunlar majmuini ham kashf eta oladi.

Voqelikni bilishning ob'ektiv qonunlarini kashf eta borayotgan fan kishilarning nafaqat bugungi kun talablariga xos bilimlari darajasini kengaytiradi, qolaversa shakllanib borayotgan fanning qonunlari uzoq o'tmishdagi voqea hodisalarni bilishga, qayta tiklashga xizmat qiladi. Shuning uchun ham fan tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalarni nafaqat o'rgana boradi, o'z navbatida «aql kuchi» sifatida kelgusida bo'ladigan yangiliklar, o'zgarishlar haqida bashorat qilish imkoniyatiga ham ega bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, fan kishilarning ilmiy nazariy hamda amaliy faoliyatidagi tadqiqotlari bilan bevosita bog'liq jarayonda vujudga kela borib unda tabiat va jamiyat haqidagi inson tafakkuri taraqqiyotining mahsuli sifatida vujudga kela boradi.

Biz yuqorida ma'naviy madaniyat tizimining ayrim shakllari haqida qisqagina fikr va mulohazalarimizni bayon qildik. Shuningdek ma'naviy madaniyat tizimining ayrim shakllari mavjudki, ularning har biri taraqqiyotimizning o'ziga xos xususiyatlarini

takrorlanmas ahamiyatga molik nuqtai nazardan ifodalash va shu jarayonga rang-barang yo'nalishlarda ta'sir etish imkoniyatlariga ega ekanliklarini ko'rishimiz mumkin.

### **Madaniyat va sivilizatsiya**

Talabalarga madaniyat haqidagi rang-barang tushunchalar bera borishda madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari hamda ular orasida o'zaro o'xshashlik va farqli xususiyatlar nimalardan iborat ekanligini tahlil etib borish alohida ahamiyat kasb etadigan jarayondir.

Darhaqiqat madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarining o'zaro bog'liqligi hamda bir-biridan takrorlanmas farqli xususiyatlarga ega ekanligini tahlil etishda har ikkala tushunchalarning jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan bog'liq ekanligini nazardan qochirmaslik kerak.

Bir qarashda madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari jamiyatning moddiy taraqqiyoti hamda ma'naviy qiyofasini anglatuvchi atamalardek tuyuladi. Lekin bu tushunchalarning mazmun va mohiyatidan kelib chiqib fikr yuritadigan bo'lsak, ularning har biri o'ziga xos xususiyatlarga hamda bir-biridan nisbiy mustaqillikka ega bo'lgan tushunchalar majmui ekanligini ham anglab yetamiz.

Gap madaniyat haqida ketganda, biz o'rganayotgan madaniyatshunoslik fani boshqa fanlardan farqli ularoq madaniyat tushunchasini falsafiy nuqtai nazardan tahlil etarkan, uni bir butun ijtimoiy hodisa sifatida tahlil etadi. Shu nuqtai nazardan ham bu fan madaniyat tushunchasini ham tarixiy, ham ilmiy-nazariy va amaliy ahamiyatga molik jihatlarini o'rganishda eng avvalo bu tushunchaning kelib chiqishi etimologiyasiga ham alohida e'tibor bilan qaraydi. Va ayni ana shu jarayon haqida fikr yuritib madaniyat arabcha «madina» so'ziga «iyat» so'z yashovchi qo'shimchasining qo'shilishidan hosil bo'lgan atama ekanligi, o'zbek tilida bu so'z «shaharliga oid» ma'nosini anglatishiga ko'ra madaniyatning mazmun va mohiyatida ilm-fan, ma'rifat rivojiga xos tushunchalari dastavval odamlarning shahar turmush tarzida

ko'rsatib bormoqda. Mustaqillik tufayli ko'p qirrali boy madaniy merosimiz qaytadan tiklanmoqda. Madaniy merosga hurmat birinchi navbatda, uning avaylab-asrovchisi, rivojlantiruvchi bo'lgan xalq ommasiga, millatga, uning o'tmshiga cheksiz hurmat, mehroqibat ko'rsatishdir.

Mustaqilligimiz tufayli yurtimizda milliy mafkura, milliy birdamlik tuyg'usini shakllantirishga keng yo'l ochdi. Bu mafkura - milliy madaniyatimizning asos tayanchi sifatida millat istiqboli, taraqqiyot bilan bog'liq bo'lgan sir qirra jarayonni o'zida mujasamlashtira boradi. Milliy madaniyat rivojlanmagan, milliy birlik, milliy birdamlik va milliy hamkorlik tuyg'ulari zaif bo'lgan xalqda yuksak milliy g'oyaning bo'lishi mumkin emas. Shu ma'noda ham yurtboshimiz I. A. Karimov milliy madaniyat va millat tarixini xolisona anglash milliy til va madaniyatni qadrlash, milliy ahloq va boshqa bir qator madaniy qadriyatlarni milliy mafkuraning asosiy negizi sifatida ta'kidlagan edilar.

Xullas, mamlakatimiz mustaqillik tufayli o'lkan yutuqlarga, boy tarixiy tajribaga, iqqisodiy qudratiga, ilm-fan, texnikasiga, qobiliyatli va talangli yoshlariga tayangan holda istiqboli sari yanada yuksak rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'lib bormoqda.

### **Madaniyatshunoslik fanidan yozma ishlar**

bilan harakat qilishi tufayli istiqloq yo'liga dadillik bilan chiqdik. Endi O'zbekiston istiqloq kun tartibga qo'ygan eng murakkab masalani hal etishi darkor. U ham bo'lsa, istiqloq bergan keng imkoniyatlardan foydalanib, mustaqil O'zbekistonni ilg'or davlatga aylantirishdir.

Xullas, Mustaqillik - milliy madaniyatimizni yuksaltirishga, milliy o'zlikni anglashga, milliy g'ypyp, milliy til, tarix va madaniyatimiz, urf-odatlarimizni o'rganish va mustahkamlashda imkoniyat yaratdi. Bu o'rinda shuni ta'kidlash kerakki, aynan milliy istiqloq uchun kurashning muhim jabhalardan biri xalqimiz o'z tilining obro'-e'tibori, mavqei ko'tarish, uchun boshlagan harakati o'laroq 1989 yilning 21 - oktyabrda «Davlat tili haqida - qonun qabul qilindi.

O'zbek tiliga davlat maqomi berilishi tariximiz va hayotimizdagi nihoyatda katta voqea bo'ldi. O'zbekiston o'zbek tilining chinakam gurkirab rivojlanishi, chuqur ildiz otishi uchun barcha shart-sharoitlarni yarata berayotgan davlat sifatida dunyoga tanila boshladi. Hatto Konstitutsiyamizning 4 - bandida qayd etilganidek, - «O'zbekiston Respublikasining davlat tili O'zbek tilidir», deb alohida ta'kidlab ko'rsatildi.

Hozirgi paytda jumhuriyatimiz rahbarlari siyosatda yoshlar orasidan eng iqtidorli, salohiyatlarini tanlab, saralab olib, ularning ilmiy, madaniy-ma'naviy jihatdan kamolga erishishlari, fan-texnika asoslarini chuqur o'zlashtirib olishlari uchun g'amxo'rlik qilishi katta o'rin tutadi. O'zbekiston Respublikasining ertangi hayoti, porloq istiqboli nazarda tutilib ko'plab yoshlarimiz xorijiy mamlakatlarga tahsil olish uchun yuborildi. Bu ish to'xtovsiz davom etmoqda. Yoshlarimiz safida ingliz, nemis, frantsuz, arab va fors tillarini biladigan, ularda amalda foydalanadigan kishilarning ko'payib borayotganligi istiqloqimiz, madaniy-ma'naviy taraqqiyotimiz uchun katta yutuqdir.

Jumhuriyatimizda «Kadrlar Tayyorlash Milliy dasturi», «Ta'lim to'g'risidagi qonun» larining hayotga joriy etilishi, ta'lim-tarbiyani zamonaviy talablar darajasida olib borish, maktablarni milliy lashtirish, o'rta maxsus bilim yurtlari va oliy o'quv yurtlariga kirish imkoniyatlarini test usulida o'tkazish borasidagi ishlari ham madaniy-ma'naviy taraqqiyotimizda o'zining ijobiy ta'sirini

taraqqiyot eta borganligiga ishora etiladi deb izohlaydi.

Jahondagi juda ko'p xalqlar madaniyat tushunchasini Yunon tilidan qabul qilingan «Cultura» atamasi bilan izohlab kelayotganligi va bu tushunchaning agrar ma'nodagi mazmunlariga xos jihatlarini oldingi mavzularda yetarlicha izohlanganligini e'tiborga olib madaniyatni inson ongli faoliyatining mahsuli ekanligini alohida qayd etamiz.

Madaniyat tushunchasi hayotning tabiiy taraqqiyot shakllaridan farqli bo'lgan insoniy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlarining mujassamlasha borishi, hamda bu faoliyatning tarixiy taraqqiyotning muayyan bosqichlarida ma'lum bir tarixiy davrlarda milliy hamda umuminsoniy xususiyatlarga xos sifatli o'zgarishlar kashf etib kelganligini o'rganishda madaniyatlar tipologiyasi alohida ahamiyat kasb etadi.

Turli xalqlar, millatlar va elatlar madaniyati taraqqiyotining ma'lum tiplarga bo'lib o'rganishni taqozo etuvchi bu yo'nalish o'zining mazmun va maqsadiga ko'ra madaniy jarayonni qiyosiy va tarixiy nuqtai nazardan ma'lum bir tizimlarga ajratib o'rganadi.

Madaniyatning qiyosiy tipologiyasi umumjahon madaniy tarixiy jarayoniga xos umummushtaraklikning paydo bo'lishida ma'lum bir omillarning ahamiyatli xususiyatlari yetakchilik qilganligini qiyoslab tahlil etadi. Masalan, diniy falsafiy e'tiqod yaqinligiga ko'ra Sharq yoki G'arb halqlarida o'ziga xos yaqinlik, aksincha farqli jihatlar shakllanib kelganligini izohlab o'tadi. Shuningdek, til yaqinligiga ko'ra masalani Turkiy halqlar madaniyatidagi umummushtaraklik yoki rang-baranglilik xususiyatlari vujudga kela borganligi qayd etiladi. Qiyosiy tipologiya turli millatlar, halqlar madaniyatidagi o'zaro yaqinlikning paydo bo'lishida geografik muhitning yoki turmush sharoitidagi o'zaro o'xshashlikning ham yetakchi ahamiyat kashf eta borishini, tog'li halqlar, o'rmon halqlari yoki dengiz bo'yi halqlari madaniyati misollarida yetarlicha tahlil etadi.

Tarixiy tipologiya esa, madaniyat rivojini tahlil etishda insoniyatning bosib o'tgan tarixiy taraqqiyot bosqichlariga ko'ra davrlashtiradi. Va ayni ana shu bosqichlarning darajasi bu jarayonda belgilovchilik ahamiyatga ega ekanligini o'qitirib o'tadi. Masalan, antik davri madaniyatidan O'rta asrlar yoki Yevropa O'yg'o-

nish davr madaniyati qaysi jihatlariga ko'ra farqlanishini ana shu tipologik tizim asosida yanada chuqurroq o'rgana borish mumkin.

Tarixiy tipologiya ba'zan u yoki bu halqlar madaniyati tarixini o'rganganda ma'lum bir shaxslar yashagan davr nuqtai nazardan ham bosqichlarga ajratishi mumkin. Masalan, nemis klassik faylasuflari davri madaniyati (Bu o'rinda Gegel, Kant, Feyerbax, Fexti kabilar nazarda tutiladi) yoki Temur va temuriylar davri madaniyati tushunchasida ham huddi shuningdek Temur va temuriylar sulolasi davri madaniyati nuqtai nazardan tahlil etiladi.

Bulardan tashqari madaniyat tipologiyasi, madaniyat tushunchasi nuqtai nazardan ijtimoiy jarayonni tahlil etishda alohida olingan kishi yoki ma'lum bir guruh faoliyatining jamiyatdagi o'rni va ahamiyatini tahlil etishi mumkin.

Bu jarayonda masalan, «shaxs madaniyati», «ishchi yoshlar madaniyati», «talaba yoshlar madaniyati» kabi tushunchalar nuqtai nazardan masalaga yondoshish mumkin.

Yuqorida ta'kidlanganlardan ko'rinib turibdiki, madaniyat tipologiyasi madaniyatning taraqqiyoti jarayonini o'ziga xos qonuniyatlar asosida amalga osha borishini tahlil etilishining imkoniyatlarini yanada ko'chaytira borishiga xizmat qiladi. Yuqorida ta'kidlangan keng qamrovli mulohazalardan kelib chiqib madaniyat inson taraqqiyoti darajasining mezoni yoki me'yorini qanday belgilash mumkin degan savol to'g'iladi. Bu savolga javob topish eng avvalo sivilizatsiya tushunchasini tahlil etishni taqozo etadi.

Darhaqiqat sivilizatsiya tushunchasi ijtimoiy-falsafiy fikrlar tahliliga keyinroq kirib kelgan tushunchalaridan biri bo'lib, u haqidagi ilmiy-falsafiy mushohadalar XVII asr oxiri XVIII asr boshlarida vujudga kelganligi ba'zi bir manbaalarda ko'zga tashlanadi. Hatto ba'zi manbaalarda (Hozirgacha ham) sivilizatsiya madaniyatining sinonimii sifatida tahlil etilishiga duch kelamiz. Ayniqsa frantsuzlarda hozirgacha madaniyat so'zi o'rnida sivilizatsiya so'zini ishlatishni ma'qul ko'rilishi fikrimiz dalilidir.

Sivilizatsiya tushunchasini tahlil eta borarkanmiz, bu boradagi mavjud adabiyotlardagi qarashlarni o'rganish jarayonida ana shu tushuncha tahlili asosida jamiyat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining rang-barang yo'nalishlariga alohida e'tibor qaratiladiki, bu umuman sivilizatsiya tushunchasini ijtimoiy hodisa sifatida mo-

uchun milliy ong, milliy madaniyat, milliy o'zlikni anglash, milliy qadriyatlar, milliy til, milliy g'urur va iftixor singari millatni millat qiladigan asosiy belgilari, fazilatlar va hislatlarning shakllanishi, rivojlanishi va to'xtovsiz o'sib borishiga erishmoq zarur

Shu ma'nida ham mustaqillik har qanday xalq, elat va millatning tabiiy, qonuniy ehtiyoji, oliy maqsadidir. Xalq uchun mustaqillikdan ko'ra ortiqroq oliy baxt, quvonch, yo'q va bo'lgan emas, Mustaqillik har bir inson, har bir millatning hech bir narsa bilan cheklanmagan chinakam erkinligidir.

O'zbekiston mustaqilligi sharoitida o'zbek milliy madaniyatining istiqloli haqida o'z fikrimizni bayon etadigan bo'lsak, avvalambor istiqlol va mustaqillik tushunchalarining mazmunini izohlashga to'g'ri keladi. Istiqlol (arabcha «istiqlol» - ko'tarilish, qaddini rostdash, o'sish, yuqori joyga erishish) - har bir inson jamoa, davlat, millatning rivojlanishi uchun zarur erkinlik sharoiti.

Qolaversa, Mustaqillik tushunchasi ham istiqlol so'zidan kelib chiqqan bo'lib, uning barcha ma'nolarini bildiradigan holatdir. «Istiqlol» ko'pgina siyosiy mustaqillik ma'nosida qo'llaniladi. Istiqlolga erishgan ko'pgina davlatlar hali iqtisodiy jihatdan qaramlikdan tamoman qutila olmagan bo'lishi mumkin.

Istiqlol so'zi mustaqillik so'ziga nisbatam birlamchidir. «Istiqlol» so'zi bilan „mustaqillik» so'zining o'zaro ma'naviy nisbati huddi o'zbekcha «erk» so'zi bilan «erkinlik» so'zining mutanosibligidekdir. Istiqlol va mustaqillik so'zlari arab tilidan o'zbek tiliga allaqachonlar kirib, asrlar davomida haqiqiy o'zbek so'zlariga aylanib ketgan. Ammo, mustabidlik yillari bu so'zlar «yot so'zlar» sifatida va ayniqsa, ma'no jihatidan, u zamon talablariga mos emasliklari tufayli, o'zbek tilining faol so'zlar qismidan ancha chetlatilgan edi.

Istiqlol so'zi boshqalarga tobe bo'lmay, o'z erki bilan yashash, o'zini o'zi idora qilish, erkinlik ma'nosini bildiradi. Mustaqillik esa, ixtiyori o'zida bo'lgan, tobe' emaslik, qaram emaslik, o'zganing yordamisiz va rahnamoligisiz o'z masalalarini hal qila oladigan degan ma'nolarni bildiradi.

Demak, istiqlol ham mustaqillik ham bizga ulkan mas'uliyat yuklaydigan so'zlardir. Istiqlolga intilgan O'zbekiston xalqi mustaqillikka erishdi. mamlakat rahbariyatining oqilona va matonat

## **Mustaqillik sharoitida o`zbek milliy madaniyatining istiqloli va istiqbollari**

Vatanimiz tarixida, xalqimiz hayotida muhim voqea ro`y berdi. 1991 yil 31 avgust ko`ni O`zbekiston Respublikasida davlat mustaqilligi e`lon qilindi. O`zbekiston uchun iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotning, madaniy va ma`rifiy yangilanishining milliy qadriyatlarimiz tiklanishining keng istiqbollari ochildi.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta`riflaganlaridek «Biz uchun mustaqillik - eng avvalo o`z taqdirimizni qo`limizga olish, o`zligimizni anglash, milliy qadriyatlarni, urf-odatlarimizni tiklash, hammamiz uchun mu`tabar shu zaminda, har bir xonadonda tinchlik osoyishtalikni, barqarorlikni saqlashdir. Aziz vatanimizda adolat, insof, dinu diyonat, mehru oqibatni qaror toptirishdir».

Darhaqiqat mustaqillik uchun kurashning mazmun va mohiyati, milliy istiqlohimiz, uning tarixiy taraqqiyot qonuniyati, o`ziga xos muammolari, ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy-ma`naviy, g`oyaviy-ahloqiy asoslarini ilmiy falsafiy ma`nosi nimalardan iborat ekanligini keng va atroflicha tahlil etish, undan tegishli xulosalar chiqarish bugungi kunda o`ta dolzarb masaladir.

Chunki mustaqillik va o`zbek milliy madaniyatini bir-biridan ajratib bo`lmaydigan jarayondir. Boshqacha aytganda mustaqillik milliy madaniyat rivojlanishining garovidir. Chor mustamlakachiligi davridan boshlab sobiq sovet jamiyati yemirilishgacha o`tgan uzoq tarixiy taraqqiyot jarayonida toptalgan, kamsitilgan, taxqirlangan nazar-pisand qilinmagan milliy madaniyatimiz, qadriyatlarimizni tiklash, asliga keltirish, yanada rivojlantirish, takomillashtirish uchun asosiy omillari mustaqilligimiz sharofati ila bizga nasib etdi.

Davlatimiz mustaqilligiga erishmasdan turib, milliy madaniyatimiz haqida o`ylashimizning o`zi ortiqcha ekanligi yaqin o`tmish tariximizning achchiq va ibratomuz saboqlaridan, xalqimizning boshiga tushgan behisob azob-uqubatlar, siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma`naviy, huquqiy sohalardagi tahqirlashlar misolida ochiq-oydin ko`rishimiz mumkin.

Madaniyatimizni rivojlantirish, uning mustaqilligimizni mustahkamlashning zarur omillaridan biriga aylanishiga erishish

hiyatini yanada chuqurroq anglab yetish imkonini shakllantiradi.

Barcha manbaalarda sivilizatsiya tushunchasi lotincha so`zdan olinganligi, bu so`zning mazmun mohiyatida fuqarolik va fuqarolikka da`vat degan ma`nolarning anglatilishi ilgari suriladi.

Sivilizatsiya tushunchasini birinchilardan bo`lib, Shotlandiyalik tarixchi, faylasuf olim A. Fergusson (1723-1816 yillarda) jahon tarixiy jarayonining ma`lum bir bosqichi ma`nosida tahlil etgan edi. Ushbu atamani Fransuz davlat arbobi va faylasufi A. Tyurgo 1768 yilda nashr ettirgan «Ayollar do`sti» yoki sivilizatsiya to`g`risida «Traktat» nomli asarida keng ma`nodagi taraqqiyot tushunchasi sifatida qo`llaydi. Fransuz ma`rifatparvarlarining qarashlarida aql va adolatga asoslangan jamiyatni «sivilizatsiya»lashgan davlat yoki jamiyat deb atash ma`qullangan.

Madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini bir-biridan farqlash nemis faylasufi Osvold Shpenglir (1880-1936 yillar) tomonidan ilgari surilgan edi. U madaniyat va sivilizatsiya tushunchalarini sof xronologik sivilizatsiya tushunchalari mazmunida madaniyatning antipodi ma`nosidagi ya`ni insoniyat tarixiy taraqqiyotining inqiroziga xos bosqichini xarakterlash ma`nosida ishlatgan bo`lsa, ingliz sotsiologi va tarixchisi A. Toynbi bu tushunchaning mazmunida nisbatan yopiq bo`lgan jamiyat taraqqiyotini ifodalash uchun qo`lladi.

Darhaqiqat sivilizatsiya ma`lum ma`noda madaniyatga nisbat birlamchi ahamiyat kasb etgandek bo`ladi. Masalan, ibtidoiy odamlar tomonidan oddiy toshdan mehnat quollarining yasalishi sivilizatsiyaga zamin hozirlagan, lekin bu hali sivilizatsiya emas edi. Mehnat quollarini yaratish bilan ibtidoiy odam, keyingi ijtimoiy-moddiy taraqqiyotga (sivilizatsiya) yo`l ochadi.

Chunki sivilizatsiya har qanday ijtimoiylashuv jarayonini ifodalaydigan tushuncha hamdir. Ma`lum bir ma`noda sivilizatsiya ko`proq jamiyatning moddiy ishlab chiqarish taraqqiyotining, ob`ektlashishi va ijtimoiylashuvini anglatadi. Madaniyat esa, shaxsning ongli mehnat faoliyati bilan bog`liq tushunchadir. Shu boisdan ham, biz bu odamda yuksak sivilizatsiya bor deb atashidan ko`ra, balki bu odamda yuksak madaniyat bor deb atay olamiz.

Fan-texnika va madaniyat taraqqiyotining keyingi bosqichlarida ko`pgina olimlar, ayniqsa, g`arb faylasuflari hamda sotsio-

loglari sivilizatsiya tushunchasi to'g'risidagi o'z fikr va mulohazalarini ilgari suradilar. Masalan, Amerikalik olim, L.Morgan (1818-1881 yillar) insoniyatning yovvoyilik va varvarlikdan keyingi taraqqiyotini sivilizatsiya deb ta'riflagan edi.

«Sivilizatsiya» tushunchasidan «sivilizatsiyali jamiyat», «sivilizatsiyalashgan xalq», «sivilizatsiyalashgan inson» kabi tushunchalarni hosil qilishda ham foydalaniladi. Ma'lumki, «sivilizatsiya» tushunchasi keng qamrovli tushuncha bo'lib, ularning har biri o'ziga xos tavsiflanadigan tomonlari mavjudligi bilan izohlanadi. Bu hol sivilizatsiyaga nisbatan bir-biriga qarama-qarshi ikki xil nazariya borligidan kelib chiqadi. Mazkur nazariyaning birinchisi sivilizatsiya aql farosatning natijasi, adolat va farovonlikning garovi degan nazariya bo'lib, u Fergusson, Mirabo, Volter, Gerder asarlarida ilgari so'rilgan. Keyinchalik bu fikrlar keyingi davr falsafiy qarashlarida yanada rivojlantirilgan. Ikkinchi xil nazariya sivilizatsiya insoniylikka havf soluvchi, axloqqa zid, insonni atrof-muhit va tabiat ustidan zo'rvonligidir, degan nazariya bo'lib, u J.J.Russo, I.Kant hamda ba'zi xayoliy sotsialistlar asarlarida ilgari surilgan. Bu xildagi qarashlar g'arb falsafasida ham, nemis faylasufi O.Shpengler (Yevropa quyoshining botishi asarida) bayon etilgan bo'lib, unga ko'ra, sivilizatsiya har qanday madaniy taraqqiyotning tugal bosqichini bildiradi. Ko'rinib turibdiki, bu qarashlarda sivilizatsiyani madaniyatga qarshi qo'yish ko'zga tashlanadi. Hozirgi davr adabiyotlari va ijtimoiy-falsafiy tafakkurida talqin qilinishicha, sivilizatsiya inson va jamiyatning moddiy va ma'naviy madaniyat sohasidagi o'zgartiruvchilik faoliyati va uning natijasidir. Shuning uchun ham sivilizatsiya jamiyatning moddiy, ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy sohalarini qamrab oladi.

Sivilizatsiya tushunchasi qat'iy ma'noda jamiyat taraqqiyotining hozirgi bosqichida insonning moddiy va ma'naviy boyliklari sohasida erishgan yutuqlariga, uning o'zgartiruvchilik faoliyatining so'nggi natijalarini ifodalaydi.

Shunday qilib, sivilizatsiya deb ijtimoiy rivojlanishning ma'lum bosqichida insoniyatning moddiy, ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarida erishgan yutuqlariga aytilsa, ba'zida inson faoliyatining moddiy va ma'naviy sohalarida erishgan yutuqlarining jami ham deb ta'riflanadi.

qilish Sovet davrida amalga oshirildi. Madaniy merosga bo'lgan vahshiylik shu darajaga borib yetdiki respublikamizdagi ko'pchilik shahar va qishloqlarda masjid va madrasalar, juda ko'plab tarixiy obidalar, yodgorliklar uylamay-netmay buzib tashlandi. Ular topalib, xo'jalik binolariga aylantirilgan. Hatto 1966 yilda Toshkentning Chorsu dahasidagi Jomiy masjidi odamlar ko'z o'ngida buzib tashlangan edi.

1937-38 va 1950 yillar O'zbekiston ziyolilari uchun ofat yili bo'ldi. Minglab partiya va davlat arboblari fan va madaniyat, adabiyot va san'at ahllari qatag'on qilindi. Muhtaram yurtboshimiz I. Karimov iborasi bilan aytganda: "Feodalizm sarqitlariga qarshi kurash shiori ostida 30-40 yillarda va 50 yillarning boshlarida o'zbek xalqining ko'p asrli madaniy merosi, an'ana va urf-odatlarini saqlash va boyitishga harakat qilgan O'zbekiston fani va madaniyatining bir qancha taniqli arboblari, jumladan, A. Qodiriy, U. Nosir, Oybek, Shayxzoda, Shukrullo, Shuhrat, Turob To'la va boshqalar millatchilikda ayblanib, qatag'on qilindilar. Bundan maqsad millatning tarixiy va madaniy merosidan, millatning jon tomiridan xalqimizni bebahra qoldirish edi. Qatag'on mashinasi o'nlab yillar davomida tinmay ishlab keldi. 80-yillarning o'rtalarida «Paxta ishi», «O'zbeklar ishi» to'qib chiqarildi, o'zbek xalqi nomiga tuxmatlar qilindi".

Hayriyatki, xalqimiz, millatimiz o'zligini anglab, milliy g'ayyp tuyg'usi kuchayib tengligi va erkinligi uchun kurash harakatining natijasi ularoq o'z mustaqilligini qo'lga kiritdi. Bugun mustaqil O'zbekistonda madaniy meros va qadriyatlar tiklanmoqda. Qatag'on qilingan adiblarimiz, san'atkorlar nomlari, asarlari qayta hayot yuzini ko'rmoqda. Uning o'z davlat tili. Davlat gerbi, bayrog'i, gimni bor. Bugun xalqimiz adolatli, fuqaroparvar demokratik jamiyatni barpo etish yo'lida ildam qadam tashlamoqda.

Buxoroda, Kattaqo'rg'onda o'z gastrollarini o'tkazdi. Shu paytda Toshkentda A. Avloniy o'z teatr guruxini ochdi. 1914 - 1915 yillarda Namangan, Andijon, Kattaqo'rg'on va Turkistonning boshqa madaniy shaharlarida ham teatr guruxlari yuzaga keldi. Farg'onada teatr ishiga Hamza Hakimzoda Niyoziyning ta'siri ulkan bo'ldi.

Chor hukumati o'lkaga madaniyat olib kelmadi, balki milliy madaniyat va taraqqiyotning rivojiga to'g'anoq bo'lib qoldi. U ilg'or ziyolilarni, ma'rifatparvarlarni ta'qib ostiga oldi. Shu sababdan Furqat umrini oxrigacha yurtidan chetda, xorijda yashashga majbur bo'ldi. Chor maorifchilari o'lkada yangi usul tarqatuvchi jamiyatlarni turli siyosiy ayblar bilan yopib qo'yishar edi. Qisqasi, Chorizm siyosati Turkistonni mustamlakachilik zanjirida tutib turish uchun uni jaholat va qoloqlikda ushlab turishga intildi va kurashdi.

Sovetlar davrida O'zbekiston fan - madaniyat, sanoat va shahar qurilishi kabi madaniy jarayondagi rivojlanish o'ziga xos ziddiyatli edi. Bunday siyosat natijasi ularoq milliy qadriyatlar, milliy ong, milliy ruhni tarbiyalovchi manbalar siquvga olindi. «Millatlarni qo'shib yuborish - yagona sovet xalqini yuzaga keltirish», buning uchun ruslashtirish siyosatini amalga oshirish bu davr madaniy siyosatining asosiy maqsadiga aylandi. Oktyabr tuntarishidan keyingi yillarda o'zbek alifbosi uch marta o'zgardi. Arab alifbosidan lotinga, undan rus alifbosiga o'tildi. Natijada oddiy xalq uch marotaba savodsiz bo'lib qoldi.

Xalqimiz tarixining qariyb bir ming uch yuz yili arab imlosida bitilgan ma'naviyati va madaniyatidan bebahra etildi. Qolaversa, Al-Xorazmiy, al-Farg'oniy, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Ulug'bek, A. Navoiy va boshqa minglab qomusiy aql egalarining arab imlosida bitilgan asarlarini o'qishdan benasib bo'la boshladi.

20-30 yillarda dinga qarshi kurash shiori ostida arab imlosida bitilgan nodir ilmiy-falsafiy, tarixiy-adabiy asarlar ham qatag'on qilindi - o'tga tashlandi, ko'mildi, suvga oqizildi. Uyida shunday kitoblar saqlagan kishilar millatchi va «Xalq dushmani» sifatida qatagon qilindi.

Chor imperiyasi davrida u qadar jur'at etolmagan diniy e'tiqodni, madaniy merosni, tarixiy obidalarni quvg'in va yo'q

Demak, sivilizatsiyaga xos rivojlanishning muhim qonunlaridan biri, uning ijtimoiyligidir. Shuning uchun ham, aytish mumkinki, kishilarning mehnat qurollari, mehnat predmetlari, texnika va jami ishlab chiqaruvchi kuchlar sohasida o'zgartiruvchilik faoliyati jamiyatdan tashqarida bo'lishi va rivojlanishi mumkin emas.

Zero, har qanday sivilizatsiyani tabiat bermaydi, balki u kishilarning, ya'ni jamiyatning ishlab chiqarish faoliyati asosida vujudga keladi. Inson yo'q joyda, insoniyat jamiyatisiz sivilizatsiya haqida so'zlash be'manilikdir, Chunki, sivilizatsiya va uning xilma-xil ko'rinishlari, kishilarning ishlab chiqarishi, sohasidagi faoliyatining natijasidir. U inson faoliyatining orta borishi bilan rivojlanib, almashinib boradi.

Qolaversa, sivilizatsiya rivojlanishining muhim qonuniyatlaridan biri, uning tarixiyligidir. Chunki, har bir ijtimoiy hodisa singari sivilizatsiya ham ma'lum tarixiy davrdagi ishlab chiqaruvchi kuchlar, ishlab chiqarish munosabatlari, texnika, fan, madaniyat taraqqiyotining darajasi bilan belgilanadi.

Ijtimoiy hayotning har bir tarixiy davri-antik davr yoki o'rta asrlar, qolaversa hozirgi taraqqiyotni ham, insoniyatning tarixiy taraqqiyotining alohida sivilizatsiyalashgan bosqichlari deb hisoblash mumkin. Ko'rinib turibdiki, sivilizatsiya har bir davrning yuqorilab, rivojlanib, taraqqiy eta borish darajasini ko'rsatadi. Bu fikrlarning barchasi sivilizatsiyaning tarixiy hodisa ekanligini ifodalaydi. Shunga ko'ra ham sivilizatsiyaning har bir turlari o'ziga xos tarzda bir-biridan farq qiladi.

Insoniyat bosib o'tgan ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyalarga muvofiq sivilizatsiyalar farqlanib boradi.

Sivilizatsiyalar geografik omillar va halqlarning yashash joylariga qarab g'arb va sharq sivilizatsiyasiga, tarixiy rivojlanishi davrga ko'ra esa, qadimgi yoki hozirgi davr sivilizatsiyalariga bo'linishi mumkin.

Sivilizatsiyani bunday tarixiy turkumlashning har biri ma'lum asosga ega bo'lib, ayni bir vaqtda uning rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlarini ham anglatadi. Bu sivilizatsiyalarning ba'zilar qisqa davom etganligi bilan, shuningdek bir-birini tarixiy rivojlanish jarayonida qonuniy almashib turganligi bilan izohla-

nadi. Kishilik jamiyatining ilk sivilizatsiyasi makonlarini qadimgi Misr va Misopatamiya, qadimgi Xitoy, Hindiston, qadimgi Yunon-Rim shuningdek O`rta Osiyo, jumladan O`zbekistondagi sivilizatsiyalar bilan ham asoslash mumkin.

Hozirgi davrda sivilizatsiya tushunchasi yana boshqa ko`plab ma`nolarda, masalan: ijtimoiy-taraqqiyot bosqichlarini (yovvoyilik va johillikdan keyingi bosqichi) kishilik jamiyati rivojining ma`lum bir bosqichini, (neolit, kapitalistik, hozirgi zamon sivilizatsiyalari); ijtimoiy-iqtisodiy formatsiyaga ko`ra (quldorlik, feodalistik, kapitalistik); diniy madaniy birlikka ko`ra (islom sivilizatsiyasi) turli olamlar (er sivilizatsiyasi, yerdan tashqari dunyolar sivilizatsiyasi) kabi ko`plab ma`nolarga ham qo`llaniladi.

Bizningcha, sivilizatsiya tushunchasining moddiy taraqqiyot, ya`ni ijtimoiy rivojlanishga oid eng maqbul tushuncha deyish maqsadga muvofiqdir. Chunki, ijtimoiy taraqqiyot natijasida insonning moddiy ishlab chiqarish faoliyatida, ijtimoiy munosabatlarida, ma`naviy hayot turmush tarzida tub o`zgarishlar ro`y beradi.

Sivilizatsiya rivojlanishining muhim va o`ziga xos qonuniyatlaridan yana biri uning ziddiyatli va murakkab ko`rinishda ekanligidir. Sivilizatsiyaning rivojlanishini to`g`ridan-to`g`ri, ziddiyatsiz amalga oshadi deb qarash noto`g`ridir. Chunki sivilizatsiya rivojlanib va yuksalib boruvchi jarayon bo`lishi bilan birga orqaga ketish, inqirozga uchrash, turg`unlik kabi holatlardagi aksil sivilizatsiya ma`nosida bo`lishi ham mumkin.

Shuning uchun ham aytish mumkinki, jamiyatida sivilizatsiya ko`tarilib, yuksalib borsada, u jahonning barcha mamlakatlarida bir xil tarzda amalga oshmaydi. Sivilizatsiya rivojlanish jarayonida halqlar, millatlar, davlatlarning tutgan o`rni, o`ynagan roli, yuksalish sur`ati bir xilda bo`lmaydi va bo`laolmaydigan hodisalar majmuidir. Ba`zi halqlar va muayyan mamlakatlar ob`ektiv sharoitlarga ko`ra, o`z iqtisodiy, siyosiy va madaniy taraqqiyotlarida boshqalardan ilgarilab, uzib ketadi, boshqalari esa orqada qoladi. **(Qarang: Falsafa.T., O`qituvchi, 1999 yil, 309-bet.)**

Umuman jahon sivilizatsiyasining rivojlanishini olib qaraydigan bo`lsak, uning iqtisodiy, sotsial, madaniy, texnikaviy sohalarida xalqlar hamda davlatlarning o`zaro hamkorligida rivojlana borishi hozirgi kunda yaqqol namoyon bo`lmoqda.

o`tildi. Tatar ma`rifatparvari I. Gaspirinskiy asos solgan «usuli jadid» maktabida o`qitish quruq yodlashdan iborat bo`lgan harf asosida emas, balki nutq tovushlariga asoslangan bo`lib, bu maktablarda tabiiy va ilmiy fanlarga katta e`tibor berilar edi.

Yangi usul maktablari o`tgan asrning oxirlarida Turkistonning turli shaharlarida yuz ocha boshladi. Buxoroda Mulla Jo`raboy tomonidai 1900 yilda, Samarqandda Siddiqiy Ajziy tomonidan 1901 yilda, Toshkentda Munavvar Qori tomonidan 1901 yilda, A. Avloniy tomonidan 1904 yilda ochilgan yangi usul makgablari bu faoliyatning debochasi bo`ldi. Shunga muvofiq, Saidrasul Aziziy, Munavvar Qori, A. Avloniy, Behbudiy, Sayid Rizo Alizoda, S. Ayniy, Hamza, A. Fitrat kabi jadidchilik harakatining ilg`or vakillari yangi darsliklar yaratdilar va maorifga asos soldilar.

Turkistonning ilg`or ziyolilari va savdo ahli Misr, Hindiston, Afg`oniston, Turkiya, Boku, hamda Rossiya musulmonlari chiqaradigan gazeta va jurnallarga obuna bo`lib va bu vaqtli nashrlarda o`z maqolalari bilan ishtirok etib, matbuot ishiga qizg`in aralasha boshladilar. Ular matbuotning juda katta ma`rifat tarqatuvchilik ahamiyatini tushunib 1905 yili o`zlarining «O`rta Osiyoning umrguzaronligi», 1906 yildan boshlab «Taraqqiy» degan dastlabki gazetalarini chiqara boshladilar. Munavvar Qori 1906 yili «Xurshid», A. Avloniy 1907-1908 yillarda «Shuhrat», Behbudiy 1912 yili «Samarqand» gazetasiga va «Oyna» jurnaliga asos soldi. Shu tariqa o`lkada «Kengash», Sadoyi Turkiston», «Sadoy Farg`ona», «Najot», «Hurriyat», «Turon», «Ulug` Turkiston» kabi gazeta va jurnallar chiva boshladi. Buxoro amirligida 1912 yili dastlab, fors tilida «Buxoroi Sharif» gazetasi, so`ngra o`zbek tilida «Turon» gazetasi chiqa boshladi. Shunday qilib jadidlar o`lka madaniy - ma`rifiy hayotida juda katta ta`sir ko`rsatdilar va milliy matbuotga asos soldilar.

Ana shu yillarda o`zbek realistik teatrining tug`ilishi va shakllanishida Ozarbayjon va Qozon teatrlarining ta`siri yuqori bo`ldi. 1911 yili Behbudiy «Padarqush yoki o`qimagan bolaning holi», Abdulrauf Samadning «Mahramlar» pe`salari o`zbek dramaturgiyasini boshlab berdi. O`zbek teatri esa shu asarlarni ijro etishni boshladi. Behbudiy 1913 yilda Samarqandda havaskor teatr gruppasini tashkil etdi. Bu gurux 1914 yilda Qo`qonda, Andijonda,



menitskiy: «Mahalliy xalqqa shu joyning xat-savodini o`rgatish ishi Turkiston o`lkasida juda qadim davrlardayoq g`oyat keng tarqalgan. O`lka bosib olingach, ruslar bu yerda juda ko`p maktab borligini ko`rdilar...», - deb yozgandi. **(Qarang: S. Gramenskiy. Polojenie iporedrecheskogo obrazavaniya Sirdarinskoy oblasti. T., 1916 g str.19)**

Chor imperiyasi o`lkada milliy ma`rifat va madaniyatning o`shishiga, milliy ruhni saqlab qolgan holda Yevropa madaniyati yutuqlaridan foydalanishga qaratilgan intilishlarning oldini olishga, hamda tub joy aholini ruslashtirish orqali kelajakda ruslar bilan qo`shib yuborish siyosatini yurgizdi. Maorif sohasida esa «Turkiston o`lkasidagi davlatga qarashli maktablarda musulmon tili ham, musulmon dini ham o`qitilmasligi kerak» ligi asos qilib olindi. Shu maqsadda o`lkada rus-tuzem maktablari ochila boshlandi. Ana shunday ziddiyatli bir sharoitda XIX asrning 80-yillarida Turkistonda madaniy hayot sohasida millim ziyolilarning shakllanish jarayonida yangi -ma`rifatparvarlik oqimi yuzaga keldi. Bu oqimning eng yaxshi vakillari feodal qoloqlikka, jaholatga, ijtimoiy zulmga qarshi chiqdilar, uni tanqid qildilar. Turkiston ma`rifatparvarligi oqimining ko`zga ko`ringaq vakillari Sattorxon Abdulg`afforov (1843 -1902), Ahmad Donish (1827 - 1897), Berdak ( 1827 - 1900), Furkat (1858 - 1909), Muqimiy ( 1859 - 1903), Dilshod Barno (1800 - 1906), Zavqiy (1853 - 1921), Anbar Otin (1870 - 1915) va boshqa ma`rifatparvarlar o`z asarlarida xalqni fan-texnika yutuqlaridan bahramand bo`lishga chaqirdilar. Real voqealikni ijtimoiy-siyosiy hayotdagi adolatsizliklarni, jaholatni tanqid qildilar.

Chor imperiyasining mustamlakachilik harakati, mahalliy bozorlarga egalik qilishi, ulkaga yevropacha madaniy va taraqqiyotdan bahramandlik topishga to`sqinlik qilishi, Ismoil Gaspirinskiy boshliq Rossiya musulmonlari - ma`rifatparvarlarining faoliyati, hamda qo`shni Sharq mamlakatlaridagi mustamlakachilikka qarshi ko`tarilgan milliy - ozodlik harakati ta`sirida Turkistonda mahalliy burjuaziya va ziyolilarning birlashuvi va tarixda jadidchilik xarakati deb nom olgan ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma`rifiy oqimining yuzaga kelishiga sabab bo`ldi.

Turkistonda jadidchilik harakati «Usuli jadid» maktablari tashkil etish bilan boshlandi. Undan matbuotga, teatr san`ati va dramaturgiyaga, «milliy romanchilik» - yangi adabiyot yaratishga

Jahon halqlarining ana shunday hamkorligi va birlikdagi amaliy xarakatlari, ayniqsa tinchlikni saqlash va ta`minlash yoki fan-texnika sivilizatsiya taraqqiyotidagi ziddiyatlar va muammolarni ijobiy hal etish bugungi sivilizatsiya jarayonining eng dolzarb muammolariga aylanib bormoqda.

Shunday qilib, sivilizatsiya va madaniyat bir-biri bilan chambarchas bog`langan va o`ziga xos farqli xususiyatlarga ega bo`lgan ijtimoiy hodisadir deb aytish mumkin. Bugungi kunda madaniyat va sivilizatsiya yutuqlari jamiyat taraqqiyotining, barcha halqlarning farovonligi, tinchligi va hamjihat bo`lib yashashlari uchun xizmat qilishi lozim bo`lgan umuminsoniy qadriyatlardan biriga aylanib bormoqda. Shuning uchun ham bugungi kun madaniyat va sivilizatsiyasining mazmunida har bir mamlakatning va xalqning suverineteti, bir-birini hurmat qilishi, belgilangan xalqaro huquq va majburiyat normalarini vijdonan bajarishi, insonning erkinligi, tengligi va qadr-qimmatini ta`minlashga qaratilgan tushunchalar ustuvor ahamiyat kasb etib bormoqda.

## **Din va siyosiy mafkuraning madaniyatga ta`siri**

Din va siyosiy mafkura ma`naviy madaniyat tizimlaridan hisoblanib, ijtimoiy taraqqiyotda muhim o`rin tutib kelgan. Akademik M. Hayrullaev O`zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi hususida to`xtalib, «Mafkura jamiyatining turli sohaları haqidagi yangi iqtisodiy, siyosiy, falsafiy, ahloqiy, diniy qarashlarning majmuidan iboratdir. Mafkura yangi ma`naviyatning yutuqlarini ifodalovchi, nazariy bilimlar, qarashlar majmui sifatida jamiyat rivoji uchun muhim, stratigik ahamiyatga egadir» deb ta`kidlab o`tadi. (Qarang: O`zbekistonning milliy istiqloq mafkurasi. T. , 1993 yil 31 bet) Haqiqatdan ham, muayyan bir ijtimoiy guruh yoki millatning tub manfaatlarini nazariy asoslovchi va himoya qiluvchi falsafiy, siyosiy, huquqiy, ahloqiy, diniy go`zallikka doir, badiy qarashlarning butun bir tizimiga mafkura deyiladi. Mafkurasiz jamiyat, ijtimoiy guruh yoki millat bo`lishi mumkin emas. **(Qarang: A. Ibrohimov va boshqalar “Vatan tuyg`usi” T., 1996 yil, 116 – 117**

## betlar)

Biz bu mavzuda ko'proq manaviy madaniyat tizimlaridan hisoblangan diniy va siyosiy mafkuralarning antik davr, o'rta asrlar va hozirgi sharoitda manaviy madaniyatga ko'rsatgan ta'siri xususida to'xtalib o'tamiz.

Diniy dunyoqarash mifologiya, afsona, negizida shakillangan va rivojlangan bo'lib, voqelikning kelib chiqishi, rivojlanishi xayoliy obrazlar, tasavvurlar va tushunchalarda aks ettiruvchi dunyoqarashdir.

Diniy mafkuraning o'ziga xos xususiyati shundaki, - u tabiiy va ijtimoiy xodisalar mohiyatini ularning o'zidan emas, balki xudoning qudrati bilan tushuntiradi. U hamma narsa va hodisada ilohiy kuchlarning ta'siri, mujizaviy kuchi bor deb o'qitiradi.

Diniy mafkuraning paydo bo'lishi va rivojlanishi jarayoni urug' qabilachilik davrida qabilaviy din shakllari fetishizm, sehrgarlik, totemizm, animizm kabi ko'plab ko'rinishlarda, mavjud bo'lgan. Sinfy jamiyatlarda diniy mafkura sinfiy harakterga ega bo'la boshladi. Bu jarayonni antik davrdagi qadimgi Sharq mamlakatlari Misr, Babil, Eron, Hindiston, Xitoy va boshqa mamlakatlar, qadimgi Yunon va Rim davlatlari madaniy taraqqiyotida o'z aksini topgan. Diniy mafkuraning Markaziy Osiyo halqlari madaniy taraqqiyotiga ko'rsatgan ta'sirini ham ko'rish mumkin. Bu mintaqa halqlari hayotida zoroastrizm, otashparastlik, Iudaizm, moniylik, Buddizm, Xristianlik va islom dinlari halqlarning qorishib ketgan diniy manaviyatida o'z aksini topgan. Shakllana borgan bunday diniy mafkura o'z ta'sirini bu xalq merosi antik davrdayoq, ya'ni sinfiy jamiyatning paydo bo'lishi jarayonida ko'rsata boshlagan edi. Diniy mafkura boshqa mafkuralar – siyosiy, huquqiy ahloqiy, badiiy, estetik va falsafiy, mafkuralardan farqli o'laroq birinchi bo'lib o'z ta'sirini ko'rsatgan mafkura hisoblanadi. Chunki boshqa mafkuralar rivojlangunga qadar din o'z mazmunida, boshqa mafkuralarning ko'rinishlarini mujassamlashtira borgan edi. Masalan, antik davr madaniy taraqqiyoti kuzatilganda Qadimgi Sharq mamlakatlari hisoblangan Hindiston, Xitoy halqlari turmushida diniy madaniyat dastlabki politeizm – ko'p xudolik, keyinchilik, monotizm ko'rinishlarda jamiyat hayotida muhim o'rin tutganligini ya'ni ijtimoiy taraqqiyotda goh ijobiy, goh salbiy rol o'ynaganligini

bo'lgan buyumlar edi. A. Yassaviy masjidiga qarashli ulkan qozon va shamdon asosi ham olib ketildi. Amir Temur maqbarasining naqshin bezakli darvozasi, maqbara peshtoqidagi yozuvli lavhalar ham olib ketildi. Afrosiyob va boshqa arxeologik topilmalardan topilgan buyumlar ham imperiya markaziga jo'natildi.

Turkistonda 1867 yildan 1917 yilgacha 15 dan ortiq turli ilmiy jamiyat va to'garaklar tashkil etilgan. Bularning birinchi galdagi vazifasi o'lka moddiy va ma'naviy merosini qidirib topish, tartibga solish va Rossiya markaziga jo'natishdan iborat bo'lgan. Shunday qilib, chor Rossiyasi Turkistonni bosib olgach, o'lka xalqlarining milliy mulki bo'lgan xon saroyidagi kutubxonalarni, arxivlarni, shaxsiy qo'lyozmalarni, xazinalarni, tangalarni, muhr-larni, qoliplar, nishonlar va mahalliy hunarmandlarning yuksak mahorati namunalari bo'lmish asori - atiqalarni o'marib ketadilar. Bular hozir Rossiya va Yevropa muzeylarini bezab turibdi.

Chor hukumatining Turkiston o'lkasiga «madaniyat olib keluvchilik» missiyasini uning qadimiy arxitektura binolariga nisbatan tutgan munosabatidan ham bilsa bo'ladi. Chor bosqini va hukmronligi davrida juda ko'plab tarixiy obidalar, minoralar, masjid va madrasalar xarobaga aylandi. Obidalar bilimdoni V.L.Vyatkin Turkiston general-gubernatori A.V.Samsonovga Ulug'bek madrasasi, Bibixonim masjidi va boshqalarni ta'mirlash masalasini so'raganda, «Bular qanchalik tez vayron bo'lsa, Rusiya davlatchiligi uchun shuncha yaxshi bo'ladi», degan javobni olgan edi.

XIX asr so'nggi choragida Turkistonda ma'rifat va maorif haqida gap ketganda, sho'ro davri ilmiy va ommaviy adabiyotlarida xalqimiz savodxonlik darajasi asossiz ravishda pasaytirilib, uning tarixiy o'tmishi kamsitildi va milliy g'ururga ziyon yetkazildi. «Xalq inqilobga qadar savodsiz edi», «Turkiston aholisi deyarli butkul savodsiz bo'lib, o'qishni biladigan kishilar 2 foizdan oshmagan edi», - degan fikr keng targ'ib etildi.

O'sha davr voqealigining bevosita guvohi bo'lgan rus ziyolilarining fikrlari yuqoridagi ta'riflarga bugunlay ziddir. A.Mid-dendorf «Ocherki ferganskiy dolin» (SPB, 1882 g.) kitobida: «Farg'onada hamma o'qish va yozishni bilishini nazarda tutsak, tub joy aholisi uchun zarur qo'llanmalar nashr etilishi bilanoq taraqqiyot juda tezlashib ketadi» deb yozgandi. Boshqa bir rus ziyolisi S.Gra-

g'oyalari yotadi. Uningcha inson butun mavjudotning eng oliy toji, koinotning bezagi, odob-axloqda benazir. Shuning uchun ham Navoiy o'z asarlaridagi qaxramonlar orqali kamsitilgan, huquqlari poymol bo'lgan, adolatsizlik qurboniga aylangani insonlarni himoya qilish g'oyasini ilgari suradi.

### **Chorizm istilosi va sho'rolar davri o'zbek madaniyati rivojidadagi ziddiyatlar**

Chor Rossiyasi Turkiston xalqining milliy madaniyati, ma'naviy merosi, tarixiy yodgorliklariga bo'lgan munosabatlarida ham istilochilik va talonchilik siyosatini yurgizdi. Ularning ana shunday g'arazchi maqsadlaridagi bosh masala xalqni milliy ma'naviy zaminlaridan mosuvo qilish, qolaversa ularni boy madaniy merosdan begonalashtirishga qaratilgan edi.

Turkiston general-gubernatori fon Kaufman hech tortinmasdan butun islom dunyosining nodir muqaddas kitobi, madaniy va tarixiy boyligi, VII asr yodgorligi bo'lmish «kufiy» xatida yozilgan «Usmon Qur'oni» ni Samarqanddan oldirib kelib, o'z nomidan (1869 y.) Rusiya Maorif vazirligiga junatgani, Zarafshon okrugi boshligi general Abramov esa Kitob begi Jo'rabek Qalandarqori kutubxonasini musodara qilib, undagi 97 ta nodir qo'lyozmani Peterburgga yuborishi, shuningdek, Xiva bosqinida xon kutubxonasidagi 300 dan ortiq qo'lyozma arab, fors, tojik tilidagi asarlarini, qolaversa xonning taxtini 1874 yili Moskvadagi qurol-aslaha palatasiga topshirgani, devonbegi Matmurodning uyidan ikki sandiq nodir buyum nafis san'at asarlari bo'lmish tildan yasalgan zargarlik buyumlari tortib olishi. qanchadan - qancha qurol - aslaha, chinni idishlar, go'zal gilamlar, kiyimlarni musodara etadi. Qo'qon istilosida xon kutubxonasiga tegishli 130 dan ortiq qo'lyozmani yo'q qilishi fikrimizning dalilidir.

Qolaversa, 1883 - yil Buxorodan Peterburgga - Ermitajga jo'natilgan buyumlar ichida 1168 qadimiy oltin, kumush tangalar bo'lib, bular bugungi Markaziy Osiyo hududida Baktriya davridan XVII asrgacha hukmdorlik qilgan 30 dan ortiq sulolalarga tegishli

tarixdan yaxshi bilamiz. Antik davrda Qadimgi Yunon – Rim madaniyatida quldorlik sinfiy hukum surgan tarixiy jarayonda, Rim imperiyasining Sharqiy viloyatlarida Xristianchilik diniy ta'limoti eramizning birinchi asr o'rtasida vujudga kelib, ularning diniy e'tiqodi sifatida faoliyat ko'rsatdi va dastlab o'z mohiyati jihatidan halq ommasi manfaatiga mos kelgan edi. U o'zining - ijtimoiy mohiyati jihatidan ham davlat, hukmron sinflar manfaatiga xizmat qilgan. Shu boisdan ham imperator Konstantin 313 yili xristianlarni taqib qilishni bekor qilib, 324 yili xristianlikni Rim imperiyasining davlat dini deb e'lon qildi. Natijada xristian dini ekspluatator sinflarining mehnatkash ommani moddiy va ma'naviy asoratga solish uchun yangi imkoniyatlarni ochib berdi. Bu jarayon dunyoning hamma madaniy uchoqlarida xuddi shu shaklda davom etgan edi.

Diniy mafkura asosan quldorlik va feodalistik ishlab chiqarish munosabatlari hukmronlik qilgan davrlarda taraqqiyotning boshqa bosqichlariga nisbatan ko'proq hukmron mafkura darajasiga ko'tarildi. Islom dini VI – VII asrlarda Saudiya Arabistonida vujudga kelgan bo'lsada, VIII asr boshlariga kelib Markaziy Osiyoda keng tarqaldi va o'zidan oldingi diniy g'oyalarni siqib chiqardi. Yerli halqning turmushida hukmron mafkuraga aylana bordi. Natijada Islom mafkurasi Markaziy Osiyo halqlarini diniy e'tiqodi, kundalik turmushidagi, ma'naviy hayoti mazmuniga aylandi. Islom mafkurasi siyosiy lashib Movaraunnaxr mamlakatlari hayotida, davlatni boshqaruvchi mafkura darajasiga ko'tarildi. Oqibatda bu o'lkada islom diniga qadar mavjud bo'lgan badiiy ijodning asosiy turlari hisoblangan rassomlik, haykaltaroshlikning rivojlanishiga to'siq bo'la boshladi.

Shu boisdan ham Islom dini hukmron mafkura sifatida Markaziy Osiyo halqlarining XVI – XIX asrlar madaniy taraqqiyotini butunlay iskanjasiga olib umumbashariy taraqqiyotdan ancha orqada qolishga sabab bo'lgan edi.

Demak, diniy mafkura asosan antik davr va o'rta asrlar davrida butun Dunyo madaniy taraqqiyotida, davlat boshqaruvida, kishilar turmushida, ijtimoiy munosabatlarda muhim rol o'ynab ko'proq sinfiy xususiyatga, hukmron sinflar mafkurasi sifatida jamiyat hayotida muhim rol o'ynagan. Yevropada kapitalistik ishlab

chiqarish munosabatlarining shakllanishi, feodalistik ishlab chiqarish munosabatlarining jamiyat hayotida barham topa borishi ma'naviy madaniyatga ham ta'sir etmasdan qolmadi. Kapitalizm davriga kelib, ilm – fan, madaniyatning turli sohalarini, badiiy adabiyot, san'at, arxitektura, haykaltaroshlik, teatr, kutubxonalar, san'at saroylari, barlar keng rivojlanib, kishilar siyosiy saviyasi va ma'naviyatining rivojlanishiga olib keldi. Ilmiy izlanishlar, samarasi natijasida sirli hisoblangan hodisalarning asl mohiyati aniqlana boshlangach, diniy mafkura o'zining hukumronlik mavqiyini yo'qota boshladi. Natijada ko'pgina iqtisodiy – madaniy jihatdan rivojlangan mamlakatlarda davlat cherkovdan, cherkov maktabdan ajratildi. Din jamiyatda o'zining siyosiy liderligini yo'qota bordi.

Gap siyosiy mafkura haqida ketganda shuni ta'kidlash joizki, bu mafkura – ijtimoiy guruxlar, tabaqalar sinflarning davlat hokimiyatiga, partiyalar, sinflar, millatlar va davlatlar faoliyatiga bo'lgan munosabatlarini ifoda etuvchi kayfiyatlar, orzu –istaklar, tasavvurlar, tushunchalar, g'oyalar va nazariyalar yig'indisidir.

Siyosiy mafkura ham sistemalashtirilgan fikrlar, g'oyalar va tafakkurlar majmui bo'lib, ularning sub'ektini inson, ijtimoiy guruhlar, millatlar va elatlarning, muayyan sinflarining va ularning siyosiy tashkilotlarining davlat hokimiyatiga, va unda ro'y berayotgan voqea va hodisalarga taalluqli faoliyatlari yig'indisidir.

Siyosat inson faoliyatining yig'indisi hamda mafkura sifatida iqtisodiy munosabatlar bilan chambarchas bog'langan holda rivojlana boradi.

Siyosatning yana bir xususiyati shundan iboratki, sinfiy jamiyatda siyosatning mohiyatini, uning mazmuniy yo'nalishlarini sinfiy munosabatlar belgilaydi, chunki u doimo muayyan sinflar, millatlar elatlar va ijtimoiy guruhlarning manfaatlariga qaratilgandir.

Siyosiy mafkura sinfiy jamiyatda vujudga kelgan ekan, quldorlik va feodalizm sharoitida o'z mavqeini ko'proq diniy mafkuraga bera boshlagan edi. Shu boisdan ham diniy mafkura ham diniy, ham siyosiy mafkura rolini o'ynab kelgan edi. Siyosiy mafkura antik davrda Qadimgi Sharq mamlakatlari, Qadimgi Yunon-Rim va Markaziy Osiyo mamlakatlari halqlari turmushi

me'moriy yodgorliklar, turli xil inshootlar qurildi. Katta obodonchilik ishlarining rivojlanishiga bevosita Alisher Navoiy boshchilik qildi. Mirzo Muhammad Haydar o'zining «Tarixi Rashidiy» asarida ta'kidlaganidek, Alisher Navoiy o'zining har yilgi daromaddan o'n sakkiz ming «Shohruhiy» dinorini obodonchilik ishlariga sarflaydi. Xondamir esa o'zining «Hulosat ul axbor» nomli asarida Alisher Navoiyning adiblar, hunarmandlar, san'atkorlar va olimlarga g'amxo'rlik qilishi, farovon hayot kechirishiga alohida e'tibor bilam qaraganligini yozgan edi. «Amir Alisher fazlu hunar tabaqasining aksariga g'amxo'rligi zo'rdir. Tazqib va tasvir ilmi hunarida benuqson va cheksiz bo'lgan qalam ahllari, shuningdek, zamon naqqoshlari va davr muhandislarining ko'pi ul hazratning ta'lim va tarbiya vositasi bilan hunarlarni o'rgandilar va atrof olamda monandi yo'q yaxshilar tengi bo'ldilar».

Shuningdek Xondamir o'zining «Makorim ul ahloq» nomli asarida Navoiy va uning safdoshlari tomonidan 300 dan oshiqroq jamoat binolari qurilganligini ko'rsatib o'tadi. Qurilishning ko'pchiligiga Alisher Navoiyning o'zi homiylik qilganligini yoki o'z mablag'idan sarflanganligini qayd etadi. Navoiyning Xurosonda madrasa, karvonsaroy, 52 rabot, 19 hovuz, 16 ko'prik, 9 hammom na boshqa binolarni barpo etganligini takidlab ko'rsatadi. Birgina Astraboddagi ikki yillik hokimligi davrida «Mir saroyi». «Jome' masjidi» ni qurdiradi. Hirotda ham masjid, Marvda esa «Husraviy» nomli madrasa qurdiradi.

Alisher Navoiy vazirlik vazifasidan bo'shagandan so'ng. Husayn Boyqaro o'z do'stiga shahap tashqarisidagi Injil arig'i bo'yidan uy-joy va bog' qurish uchun yer ajratib beradi. Navoiy eca bu joyda nafaqat uy-joy, balki xalqqa yordami teguvchi ko'plab madrasa, shifoxona, hammom, savdo rastalari. xanoqoh, dam olish uchun bog'lar barpo ettiradi. Bu binolarni «Ixlosiya» (do'sti Husayn Boyqaroga bo'lgan ixlosi ramzi), Shifoia (sog'liq ramzi), «Safioia» (pokpik ramzi), «Xusraviya» (shahzoda Muhammad Sulton sharafiga) deb nomlaydi.

Navoiy ijodining markazida inson, ulardan tashkil topuvchi xalq, ular makon tutgan Vatan, ularni hayvondan ajratib turuvchi axloq muammolari turadi. Uning ijodi va falsafiy tafakkuri markazida insonparvarlik axloqiy fazilat, mexnatsevarlik. adolatparvarlik

sinusini aniqlash haqida risola», tarixga oid «Tarixi arba' ulus» nomli asarlar yozdi. «Ziji Jadidi Ko`ragoniy» asarida Ulug`bek hijriy, suryoniy, yunoniy, xitoy va uyg`ur hamda forsiy eralar, ularda keltirilgan sanalar va bayramlarni qayd etib, ular to`g`risida o`z fikrlarini ilgari surdi. Shuningdek matematika, sferik astronomiya, Quyosh, Oy va besh sayyora to`g`risidagi ma'lumotlarni to`pladi.

Ulug`bek o`zining «3iji Jadidi Ko`ragoniy» asarida sayyoralar taqvimini tuzib, ularning joylashishini deyarli shu kungi astronomiya fani darajasida ko`rsata olgan. Buni asarning nafaqat Sharq, balki G`arbdagi bir qancha rivojlangan mamlakatlar xalqlari tillarida bir necha marta qayta-qayta tarjima qilinganligi ham ko`rsatadi. Jumladan, Angliyadagi Oksford universiteti professori Jon Grevs, shu universitetning sharqshunos olimi Tomas Xayd, Grinvich rasadxonasi riyoziyotchisi D. Flemstidlar va 1843 yilda F. Beyli tomonidan asar uchinchi marta chop ettirilganligini, yirik farang olimi L.A. Seydiyo tomonidan bu asar farang tiliga o`g`irilib, chop etilganligini, E. B.Nobl tomonidan 1917 yilda Vashingtonda chop etilganligini ko`rsatib o`tish mumkin. «3ij»ning buyukligini Gruziya shohi, mashhur adib va olim Vaxtang VI tomonidan gruzin tiliga o`g`irilganligidan ham fikrimizning yana bir dalilidir.

Mirzo Ulug`bekning jaxon fani va madaniyatida tutgan o`rni, astronomiya sohasidagi johanshumulligini yirik polyak astronomi Yan Geveliyning mashhur «Prdomus astronomiya» /»Astronomiya darakchisi»/ nomli kitobidagi ikkita suratda ham o`z ifodasini topgan. Birinchi suratda Ulug`bek munajjimlar va olimlar xudosi Uraniyaning yonginasidan, o`ng tomondan joy olganligi ham buyuk ajdodimizga ko`rsatilgan yuksak hurmat belgisidir.

### **Alishyer Navoiy va Xuroson madaniyati**

Alisher Navoiyning birgina obodonchilik va me'morchilik san'ati taraqqiyotiga qo`shgan hissasiga e'tiborni qaratadigan bo`lsak, shuning o`ziyoq uning Xuroson madaniy taraqqiyotiga qo`shgan hissasi qay darajada bo`lganligini ko`rishimiz mumkin.

Sulton Husayn Boyqaro davrida Xuroson o`lkasida ko`plab

madaniy hayotlarida muhim o`rin tutganligi ma'lum. Masalan, Buyuk davlatchilik siyosati yuritishda amalga oshirilgan iqtisodiy, madaniy islohotlar o`tkazilishida siyosiy mafkuradan o`rinli foydalanilgan.

Shurolar hukmronligi davrida siyosiy mafkura Sovet davlati manfaatiga qaratilgan bo`lib jamiyatning bosh yetakchi kuchi Kommunistik partiya hisoblangan edi. Uning siyosiy g`oyasida demokratik munosabatlariga totalitar boshqaruv xarakterdagi siyosat ustunlik qildi. Bunday yakka hokimlik va shovinistik mazmunini o`zida mujassamlashtirgan siyosat ko`pgina millat-larning o`z milliy madaniyati, ona tilini erkin rivojlantirishga yo`l berishi mumkin emas edi.

O`zbekiston mustaqillik tufayli o`z istiqloli taraqqiyot yo`lini tanladi. Diniy va siyosiy mafkuraviy faoliyatida erkinlikni o`z qo`liga oldi. Istiqlol mafkurasi o`z mazmunida milliy ongni, dunyoqarashni, ayni paytda siyosiy qarashlarni yanada erkin rivojlanish imkoniyatlariga yo`l ochdi. Bu esa yurtimizda shakllana borayotgan istiqlol mafkurasi mazmunida milliy g`urur, adolatparvarlik, vatanparvarlik, insonparvarlik munosabatlarini yanada boyitilib borilmoqda.

Bizning siyosiy mafkuramizning asosiy maqsadi halqimiz turmushini, milliy va madaniy an'analarini, barcha ijtimoiy guruhlarga mos keladigan demokratik printsiplar asosida qaror toptirishga qaratilgandir.

Mamlakatimizda siyosiy mafkura faoliyati ko`ppartiyaviylik tizimida amalga oshirilmoqda. O`zbekiston davlati ijtimoiy hayotida bir necha siyosiy partiyalar faoliyat ko`rsatmoqda. Bu partiyalar g`oyasining bosh yo`nalishi huquqiy demokratik, tamoyil-larga asoslangan fuqarolik jamiyatini barpo etishga qaratilgandir.

### **Madaniyatda milliylik va umuminsoniylik masalasi**

O`zbekiston mustaqilligi sharoitida milliylik haqidagi tushunchalarga umuminsoniy g`urur sifatida qarashning shakllana borishi, eng muhimi bu sifatlarning keng halq ommasining hayotiy ehtiyojlariga aylana borishi bugungi ijtimoiy hayotimizga xos

boʻlgan jarayondir. Qolaversa, ana shu jarayonda halqimiz maʼnaviyatiga shakllana borayotgan bunday umuminsoniy gʻoyalar rivojlana borib milliy meʼyorlar va qadriyatlarning yanada keng quloqch yoyishiga zamin boʻlib xizmat qilmoqda. Oʻzining ana shunday zaminlariga ega boʻlgan milliylik madaniyatimizda umuminsoniylik xarakterini kashf etmoqda.

Ijtimoiy – iqtisodiy taraqqiyotimiz yoʻlida xos ana shunday rivojlanish jarayoni mamlakatimizda siyosiy ziddiyatlarga ega boʻlmagan ijtimoiy tabaqalarning shunday shakllarini vujudga keltira bordiki, ular oʻrtasida hech qanaqa sinfiy qarama qarshiliklar, adovat va xurujlarga mutlaqo oʻrin qolmadi. Chunki, yurtimizda barpo etilayotgan demokratik, huquqiy fuqaroparvar davlatchilik tizimining asosiy maqsadi barcha ijtimoiy tabaqalar orasida oʻzaro hamkorlikni vujudga keltirishga qaratilgandir.

Qolaversa, ana shu hamkorlikning asoslari Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ham kafolatlangandir. Konstitutsiyamizda qayd etilishicha, fuqarolarning jinsi, Irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, eʼtiqodi, shaxsiy ijtimoiy mavqeidan qatʼiy nazar, teng huquqligini, hech qaysi gʻoyaviy mafkura, yaʼni biror sinf yoki ijtimoiy tabaqa qatlamining siyosiy qarashlari davlat mafkurasi sifatida oʻrnatilishi mumkin emasligi, shuningdek, ijtimoiy hayot va siyosiy institutlar mafkuralar va fikrlar xilma – xilligi asosida rivojlana borishi belgilab berilgan. **(Qarang: Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. T., “Oʻzbekiston” 1992 yil, 12 – 13 betlar)**

Darhaqiqat, Sovet davlati parchalanib ketganidan keyingi davrning oʻziga xos tomonlaridan biri ham milliy munosabatlar sohasida roʻy bergan toʻqnashuvlar va keskinlashuvlardir. Bunday ziddiyatlarni oʻtgan yetmish yil davomida «Xalqlar doʻstligi» gʻoyalarni qanchalik targʻib va tashviq etilgandan keyin yuzaga kelishi milliy masalaning shunchalik murakkab va nozik muammo ekanligini yana bir bor koʻrsatib turibdi. Shu boisdan aytish mumkinki, milliylik millatning baxt-saodati, kelajakka ishonchini mustaxkamligini mustaxkamlash bilan birga, turli millatlar va elatlar ijtimoiy guruxlar oʻrtasidagi hamkorlik, eng muhimi u yoki bu millatning manfaatlariga xos munosabatlar ustuvorligining takomillasha borishi bilan bevosita bogʻliq boʻlgan keng qamrovli falsafiy

Ulugʻbek davrida qurilgan meʼmoriy obidalarning maqsadli tomonlariga eʼtibor bersak, mazkur binolarning koʻpchiligi ilm-fan, manaviyat va maʼrifatni rivojlantirishga xizmat qilganligini koʻramiz. Masalan, Samarqand, Buxoro, Gʻijduvondagi madrasalar, rasadxonalar ilm-fan rivojiga ulkan hissa qoʻshgan markazlarga aylandi. Samarqand va Shahrisabzda qurilgan masjidlar va maqbaralar esa kishilarning maʼnaviy eʼtiqodini mustahkamlashga, diyonat va imon pokligining shakllanishiga xizmat qildi.

Ulugʻbek qurdirgan madrasalarda ilohiyotshunoslik, mantiq, falsafa, ilmi aruz kabi fanlardan tashqari, matematika, geometriya, astronomiya, tabobat, geografiya kabi aniq fanlar ham oʻqitilgan. Davlatshoh Samarqandiy oʻzining «Tazkirat ush-shuaro» asrida yozishicha birgina, Samarqand madrasasida 100 dan ortiqroq talabalar ilm olganlar.

Ulugʻbek davrida Samarqand Movarounnaxr va Xuroson oʻlkalarining haqiqiy ilm-fan markazi hisoblangan. Samarqand madrasasi oʻz davrining universiteti hisoblangan boʻlsa, rasadxon haqiqiy akademiya maqomiga ega boʻlgan. Madrasa va rasadxonada «oʻz davrining Aflotuni» deb nom qozongan mashhur matematik va astranom Qozizoda Rumi, «Oʻz davrining Ptolemeyi» nomini olgan matematik va astranom Ali Qushchi, astranomlar va matematiklar Mansur Koshiy, Ali ibn Muhammad Birjandiy, Miram Chalabiy, Gʻiyosiddin Jamshid, Muhammad Chagʻmini kabilar faoliyat koʻrsatganlar.

Bu davrda Samarqand ijod gulshanining boʻstoniga aylangan. Shu boisdan «Solnomalar qaymogʻi» nomli asarning muallifi, tarixchi Lutfullo Hofizi Abru, falsafiy tasavvufga oid «At-tarifati Jurjoniy» risolasining muallifi Ali ibn Muhammad Jurjoniy, mashhur tabib Mavlono Nafis, lirik shoirlardan Sirojiddin Bisotiy Samarqandiy, Hayoliy Buxoriy, «Yusuv va Zulayho» dostonining muallifi Badaxshiy Durbek, qasida janrining asoschisi Sakkokiy va boshqa fan, adabiyot va sanʼat namoyondalari yetishib chiqdilar.

Temuriyodalarning tabiiy fanlar, ayniqsa, astronomiyaga boʻlgan muhabbati butun dunyo tan olgan astronomiya maktabiga asos solish va unga bevosita rahbarlik qilishiga olib keladi. Ulugʻbekning oʻzi olim sifatida astronomiyaga oid «3iji Jadidi Koʻragoniy», «Risolai Ulugʻbek», matematikaga oid «Bir daraja

tafakkur kabi masalalarni yoritib beradi.

Amir Temur she'riyat va musiqa san'atiga ham katta qiziqish bilan qaraydi. Shu bois Amir Temur davrida turk tilida asarlar yozish yanada kuchaygan. Samarqand, Hirot, Balx va boshqa shaharlarda turli turk adabiyotining ko'zga ko'ringan namoyondalari to'plangan edi.

### **Temuriyzodalar davri Movarounnaxr madaniyati**

Mirzo Ulug'bekning hokimiyat tepasiga kelgan vaqtigacha Movarounnaxr madaniyati o'zining tushkunlik davrini boshdan kechirdi. O'zaro taxt talashishlar jamiyat madaniy hayotiga salbiy ta'sir ko'rsatmasdan qolmadi. Otasi Shohruh Mirzo yordamida taxt tepasiga kelgan Ulug'bek eng avvalo Movarounnaxrning iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotini qaytadan izga sola boshlaydi. Uning turli fan sohasiga bo'lgan qiziqishi ko'plab olimlarni, ayniqsa, aniq fan sohasida faoliyat ko'rsatuvchi olimlarni o'z saroyi qoshiga yig'ishga undadi. Shu boisdan ham Mirzo Ulug'bek davrida nafaqat fanlar, balki umuman ilm-marifat va madaniyatning yuksalish jarayoni ro'y bera boshlagan edi.

Akademik B.Ahmedov ta'kidlaganidek, Mirzo Ulug'bek Movarounnaxr shaharlarini, ayniqsa, uning poytaxti Samarqandni obod qilishga ulkan hissa qo'shdi. Eng avvalo, bobosi Amir Temur davrida boshlangan, lekin har xil sabablarga ko'ra tugallanmay qolgan binolar Shohizinda, Go'ri Amir, Shahrisabzdagi Ko'kgumbaz va boshqa binolarning qurilishini nihoyasiga yetkazdirdi. Samarqand shahri markazini obodonlashtirishga alohida e'tibor berdi. Shaharning markaziy maydoni - Regislonada Madrasa, xonogoh, karvopsaroy, hammom va boshqa ko'rkam binolarni qurdiradi. Movarounnaxrning madaniy jihatdan rivojlangan uch shahri - Samarqand (1417-1420 yillarda), Buxoro (1417 yilda) va G'ijduvon (1433 yilda) shaharlarida madrasalar barpo ettirdi. O'zi bevosita rahbarlik qilgan holda 1424-1428 yillarda o'sha davrning akademiyasi hisoblangan - Rasadxonani barpo etdi.

Bizga ma'lumki har bir davrda bunyod etilgan me'moriy yodgorliklar muayyan maqsadni ko'zlagan holda quriladi. Agar

tushunchadir.

Ma'lumki, millat ijtimoiy-etnik birlikning o'ziga xos sotsial shakli bo'lib, u kishilarning nihoyatda uzoq tarixiy jaryonida tarkib topa borgan o'zaro birligi asosida vujudga kelganligini namoyish etuvchi ijtimoiy hodisadir. Bu birlik ibtidoiy tarixiy jarayonda vujudga kelgan urug' va qabila birligidan tubdan farq qilib, uning asosida til va hududiy birlik ifodalanib qolmasdan, ijtimoiy-iqtisodiy turmush tarzi birligi ham o'z aksini topadi. Millatning bunday birligi zaminida esa, milliy madaniyat rivojlanish imkoniyatlari o'sa borib bu madaniyatda o'sha millatning tarixiy taraqqiyot xususiyatlari, ijtimoiy turmush tarzi, urf-odatlar qadriyatlar, milliy psixologiyasi, diniy e'tiqodlari mujassamlasha boradi.

Madaniyatda milliylik masalasi haqida gap ketganda masalaning nozik jihati shundaki, u yoki bu millatning milliy xususiyatlarini hududiy va irqiy belgilariga, urf-odat o'xshashliklariga ko'ra farqlash unchalik to'g'ri bo'lmaydi. Chunki, millatlar bir irqdan yoki turli-tuman irqlardan iborat bo'lishi hamda turli hududlarda yashashi, ba'zan turli millatlar bir dinga, aksincha bir millat turli dinlarga e'tiqod qilishlari mumkin. Bunday farqlar millatlarining antropologik, hududiy, aksiologik belgilar hisoblanadigan-da, lekin ularni milliy madaniyatini ijtimoiy-etnik mohiyatini belgilovchi xususiyatlarini to'liq ochib beradi deyish qiyin.

Tarixdan shu narsa ma'lumki, u yoki bu millatning ijtimoiy iqtisodiy taraqqiyoti uning milliy tuyg'ulari, ma'naviy-mafkuraviy, saviyasi, ilm-fandagi iqtidori hamda tajribasiga bevosita bog'liq bo'ladi. Shuning uchun ham har bir milliy madaniyat o'sha millatning muayyan maqsadlaridan tortib uning moddiy va ma'naviy yetuklik darajasigacha ko'rsatib turadi. Shu boisdan ham mustaqil rivojlanish yo'lga o'tgan mamlakatimizda o'tmish madaniy merosidan, qadriyatlaridan bugungi kun ruhiga muvofiq holda foydalana olish va undan to'g'ri xulosalar chiqarish o'z o'tmishi va bugungi ahvoliga, ma'naviy va madaniy merosiga, urf-odatlariga, diniy - falsafiy e'tiqodiga, siyosiy huquqiy qarashlarga tanqidiy hamda ijobiy munosabatda bo'la olish taraqqiyotimizning eng muhim ma'naviy ehtiyojlaridan biri hisoblanadi.

Yuqorida ta'kidlanganlardan ko'rinib turibdiki, milliy madaniyatimizning o'ziga xos xususiyatlari va fazilatlarini tiklashga

nihoyatda katta e'tibor berish zarurligini hayotning o'z ko'rsatib turibdi. Milliy madaniyat borasida vujudga kelayotgan bunday ehtiyoj shuning uchun ham ahamiyatli, millatning milliy o'zligini anglashga bo'lgan qiziqishning o'sa borishi uni nafaqat o'z milliy qadriyatlari, ma'naviya hamda madaniy taraqqiyoti uchun zarur, qolaversa, bu jarayon millatimizni jahon madaniyatini umumbashariy qadriyatlardan insonparvarlik, vatanparvarlik, ideallaridan va fan yutuqlaridan yanada kuchliroq baxramand etishga undovchi omillar bo'lib xizmat qiladi.

Shu boisdan ham aytish mumkinki, milliy madaniyatning ulug'vorligi milliy mahdudlikda emas, balki o'zida umuminsoniy qadriyatlarni shakllantira boruvchi, jaxon sivilizatsiyasidan baxramandlik topishining qamrovi bilan ham belgilanadi.

Ko'rinib turibdiki biror bir millat boshqa millatlar bilan o'zviy aloqada bo'lmay, umuminsoniyatdan ajralib qoladigan bo'lsa, u baxtsiz va istiqbolsiz millatga aylanib qoladi. Shuning uchun ham biror bir millatning madaniyati umuminsoniy qadriyatlardan jaxon ilm fani va madaniyatidan ajralgan holda o'zining takomilga erisha olmaydi. Qolaversa, barcha xalqlarning madaniy ma'naviy va iqtisodiy taraqqiyoti tarixi, o'zaro tutashib bir-biri bilan chirmashib ketgan. Shu boisdan ham milliy madaniyat o'z qobig'i ichida qolib, boshqa xalqlarning moddiy va ma'naviy madaniyatlaridan ajralgan holda taraqqiyot etishi mumkin emas.

Madaniyat tushunchasidagi bu qonuniyatdan kelib chiqib aytish mumkinki, O'zbekiston mustaqilligi sharoitida xalqimiz uchun xizmat qiladigan, uni istiqboli uchun kurashga, oliy janob maqsadlarga safarbar etadigan, ma'naviyatimizni yanada boyitadigan eng kuchli omillardan biri xalqimizning uzoq o'tmish va bugungi kuni bilan hamnafas bo'lib kelayotgan madaniyatining umuminsoniy qimmatdorligidir. «Bugungi kunda – deb yozgan edi Prezidentimiz I.A.Karimov,-hur va ozod xalqimiz barcha xalqlar va davlatlar tomonidan yaratilgan ma'rifatda, fan va texnikada, madaniyat va san'atda nimaiki yangi va ilg'or jihatlar bo'lsa, shunga dadillik bilan intilmoqda». **(Qarang: I. Karimov O'zbekistonning o'z istiqbol va taraqqiyot yo'li . T., 1992 yil, "O'zbekiston" 68 – bet)**

Kezi kelganda aytish mumkinki, milliy madaniyati yuksak

adabiyot va san'at ahllarini yig'adi, uni o'sha davrning iqtisodiy-madaniy jihatdan yuksalgan markaziga aylantiradi. Shu boisdan ham Amir Temur davrida turli fan sohalari tibbiyot, matematika, geografiya, astronomiya, tarix, mantiq falsafa fanlari rivojlanadi. Temur saroyida o'z davrining Mavlono Abdujabbor Xorazmiy, Mavlono Shamsuddin Munshi, Mavlono Abdulla Lison, Mavlono Badriddin Ahmad, Mavlono Nug'moniddin Xorazmiy, Xo'ja Afzal, Mavlono Alouddin Koshiy, Sa'diddin Taftazoniy, Mir Sayyid Sharif Jurjoni kabi mashhur olimlar to'plangan edi.

Sa'diddin Taftazoniy (1322 yilda Ashxobod yaqinida Niso shahrida to'g'ilgan) ilohiyot, mantiq, notiqlik sanati, arab tili grammatikasi, ahloqshunoslik masalalari bo'yicha chuqur bilimga ega bo'lgan. U G'ijduvon, Turkiston, Hirot va Movarounnaxrning ko'pgina shaharlari madrasalarida mudarrislik qilgan. Taftazoniy Amir Temurning taklifiga ko'ra Samarqandga keladi va uning saroyida o'z faoliyatini davom ettiradi. Taftazoniy mantiq ilmiga oid «Mantiq va Kalomning bayoni», notiqlik san'tiga oid «Qisqacha ma'nolar», «Keng talqin», arab tili grammatikasiga oid «Tolib ilmlarining maqsadlari» kabi ko'plab asarlar yaratadi. Taftazoniy o'zining asarlarida tabiatda uchraydigan hodisotlar, ularning ichki aloqalari va sababiy bog'lanishlariga, insonning iroda erkinligi, hulq-atvori, xudo va inson taqdiri, bilish nazariyasi, bilishda mantiqiy tafakkurning o'rni va boshqa falsafiy qarashlarni ifodalab beradi.

Sohibqiron saroyida xizmat qilgan mashhur faylasuflardan yana biri Mir Sayyid Sharif Jurjoni'dir. Jurjoni 1339 yili Astrabod yaqinidagi Tag'u qishlog'ida to'g'iladi va 1387 yili Amir Temurning taklifiga ko'ra Samarqandga ko'chib keladi. Jurjoni ham Samarqandning mashhur madrasalarida falsafa, mantiq, fikshunoslik, til va adabiyot, munozara ilmi kabi fanlar bo'yicha mudarrislik qiladi. «Borliq haqida risola», «Dunyoni aks ettiruvchi ko'zgu», «Mantiq usuli», „Munozara olib borishning qoidalari haqida risola» va boshqa ko'plab asarlar hamda turli faylasuflarning asarlariga yozilgan sharhlar Jurjoni qalamiga mansubdir. Jurjoni o'z asarlarida borliq haqida ta'limot, koinot jumboqlari, modda va uning shakllari, jonsiz va jonli dunyoning xususiyatlari, jismoniy va ruhiy munosabatlar, bilish muammolari. mantiqiy fikrlash, til va



Siyosiy boshqaruvning markazlashgan shaklini kuchaytirish maqsadida Samarqandga eng mu'tabar kishilarni: siyosatdonlar, falsafiy tafakkur egalari, fikhshunoslar, ilohiyotshunoslar, olimlar, san'atkorlar, me'morlar va boshqalarni to'pladi. Mamlakatning ichki va tashqi siyosatini yurgizishda eng buyuk kuch hisoblangan xalqqa suyandi, uning hohish irodasini e'tibordan chetda qoldirmadi. Har bir ishga adolat bilan yondoshdi.

Muntazam ravishda fozil kishilar - olimlar, ulamolarning yig'ilishlarini chaqirib turdi. Bu yig'inlarda mamlakatni, fuqarolarni boshqarish, mamlakat madaniy hayoti uchun muhim ahamiyatga ega bo'lgan bunyodkorlik ishlari va boshqa muammolarni hal qilishga harakat qildi. Turli joylardan yig'ilgan mu'tabar kishilar bilan maslahatlashib, nafaqat Movarounnaxr, balki Oltin O'rda, Oq O'rda, Xuroson va Eron, Iroq va Turkiya, Hindiston va mag'rib mamlakatlari moddiy va ma'naviy hayotining eng dolzarb muammolarini muhokama qilib hal qilishga intildi.

U o'z mamlakatini iqtisodiy va madaniy jihatdan mustahkamlashda dehqonchilikka alohida e'tibor beradi. Ko'priklar, rabotlar, sardobalar, madrasalar shifoxonalar va yo'llarning qurilishiga ko'plab mablag'lar sarflaydi. Savdo-sotiq ishlarining mutadilligi uchun savdo karvonlarining xavfsizligini ta'minlaydi. Bular haqida Amir Temurning o'zi shunday deb yozadi: «Xarob bo'lib yotgan yerlar egasiz bo'lsa, xolisa (daromab va yer ishlari bilan shug'ullanuvchi hay'at) tarafidan obod qilinsin. Agar egasi bo'lsa-yu (lekin) obod qilishga qurbi yetmasa, unga turli asboblar va kerakli narsalar berilsin, toki o'z yerini obod qilib olsin. Yana amr qildimki, xarob bo'lib yotgan yerlarda korizlar qursinlar, buzilgan ko'priklarni tuzatsinlar, ariqlar va daryolar ustiga ko'priklar qursinlar, yo'l ustidagi har manzilgohga rabotlar qursinlar.

Amir Temur ilk Uyg'onish davri ilm va san'atparvar hukmdorlari ananalarini davom ettirib, matematika, geometriya, astronomiya, tarix, falsafa kabi fanlarning hamda shariyat, musiqa va memorchilikning rivojlanishiga katta imkoniyatlar yaratib berdi. U o'zining har bir safari chog'ida olimlarni, tarixchilarni, munajjimlarni, san'atkorlarni, hattotlarni o'zi bilan olib yurgan.

Amir Temur ilm ahllarini o'z homiyligiga oladi, ularni yetarli maosh bilan ta'minlaydi. Samarqand shahriga ilm-fan,

xalqning milliy g'ururi ham yuksak bo'ladi. Qaysiki, milliy g'urur - o'z xalqining tarixi, ma'naviy ahloqiy qadriyatlari va istiqbolini bilish va qadrlash bilan birga, boshqa xalqlar va millatlarni ham milliy qadr-qimmatini, udumlar, tarixi, adabiyoti, san'ati, umuman madaniyatini adolatli ravishda himoya qilish, o'rganish, hurmat qilish bilan bog'liq bo'lgan umuminsoniy fazilatlarini ham shakllantira boradi.

### **Qadimgi Sharq xalqlari madaniyatining ilk markazlari**

Qadimgi Sharq madaniyati deganda insoniyat madaniy taraqqiyotining ilk uchoqlari bo'lgan Messopatamiya ikki daryo oralig'idagi Shumer, Akkad va Bobil davlatlari madaniyati: Xett, Suriya, Finikiya, Falastin, Ossuriya, Urartu, Eron, O'rta Osiyo, Hindiston va Xitoy madaniyatlari ko'z oldimizga keladi.

Qadimgi Sharqda kishilar (neolit davrining oxiriga kelib) ovchilik va baliqchilik bilan shug'ullanganlar. Bir muncha keyinroq Botqoq yerlarni qurilib dastlab motiga dehqonchiligini, so'ngra omoch dehqonchiligini rivojlantiradilar. Dehqonchilikning rivojlaniishi iqtisodiy va ijtimoiy taraqqiyotga to'rtki beruvchi yangidan yangi ehtiyojlarni, mehnat qurollarini takomillashtirishni, sun'iy sug'orish sistemalarini (shaxobchalarini) barpo etishning, birgalikda mehnat qilish va yashash shart-sharoitlarini yaxshilash ehtiyojlarini vujudga keltiradi. Mesopatamiya bilan chegaradosh mamlakatlar-Urartu, Eron, Kichik Osiyo va Suriya bilan savdo sotiq ishlarini olib boradilar. Kemasozlik ancha taraqqiy etadi. Dajla va Frot daryolari savdo-sotiqning asosiy yo'lga aylanadi. Ikkinchi tomondan juda ko'plab buyumlarni: bochka, quvur, quti, pech, uchoq, duk, chiroq kabi buyumlarni ham loydan yasay boshlaydilar. Bu esa kulolchilikning rivojlanishi va kulolchilik charxining paydo bo'lishiga olib keladi.

Mesopatamiyaning qadimgi aholisi etnik jihatdan bir xil bo'lmagan. Tarixiy manbalarda ko'rsatilishicha, Frot va Dajla daryolari oralig'iga Sharqdan shumerilar, G'arb va Shimoli

G'arbdan, ya'ni Arabiston va Shimoliy Afrikadan somiy (semit) kabilari kirib kelib o'rtnashadilar. ular Akkad shahrini barpo etadilar va o'zlarini akkadlar deb atay boshlaydilar.

Lingvistikaga ko'ra shumeriylarning tillari miloddan avvalgi II-ming yillardayoq muomiladan chiqib ketadi, ya'ni boshqa kuchliroq etnoslarning tillari ta'sirida o'lik tilga aylanadi. Lekin Shumer tilidagi geografik nomlar va diniy e'tiqodlarga oid atamalar akkadliklar tomonidan saqlab qolinadi.

Ikki daryo oralig'i xalqlari madaniyatining Shumer-Bobil madaniyati deb atalishiga sabab, madaniyatining ko'pgina sohalari-da diniy e'tiqodda, yozuvda, adabiyot va san'atda, fan va boshqa sohalarda doimo shumeriylarning birinchi bo'lib kelganligi hamda Babil davlati (miloddan avvalgi XIX asrdan) yuksalib ikki daryo oralig'ini yagona davlatga birlashtirib yuksak madaniyatga erishganligidir.

Qadimgi shumeriylarning madaniyatining qo'lga kiritgan yutuqlaridan biri – yozuvning ixtiro qilinishidir. Olti yuzga yaqin belgilardan iborat bo'lgan shumeriylarning yozuvi miloddan avvalgi IV ming yillikdayoq paydo bo'lgan. Shumer yozuvi dastlab suratli (piktografik) yozuv shaklida bo'lgan. So'zlar suratlar orqali ifodalangan. Ayrim paytda bir xil surat bir necha ma'nolarni anglatgan. Bir suratning ko'p ma'noligi katta qiyinchiliklar tug'dirgan. Yozilgan so'zlarni o'qish nihoyatda murakkablasha borgan. Bu esa yozuvni soddalashtirishni talab qilgan. Vaqtlar o'tishi bilan yozuvning asosi hisoblangan tasvirlar yo'qola borib, so'zning tovush xususiyatlarini yozma belgilar orqali ifoda qilish vujudga keladi. Natijada biror so'zni ifodalovchi suratlarining harakterli qismigina chizila borgan.

Taxminan ming yillar o'tgandan so'ng suratlarining ayrim harakterli tomonlari tikkasiga, qiyalama pona shakliga kela boshlagan. yumoloq chiziqlar tez yozishda beixtiyor to'g'rilana boshlagan. Masalan, «quyosh» so'zini anglatuvchi doira rombgga uxshab yozila borgan va pona shaklini olgan.

Yozuv belgilari hali qotib ulgurmagan loy lavhalariga uchli, ponasimon mixlar yordamida o'yib yozilgan. (shu boisdan mixxat ham deb yuritiladi). So'ngra maxsus humdonlarda pishirilgan. Sopol lavhalar ibodatxonalar va saroylarning devorlari hamda

ilmiy zamin bo'ldi.

Uyg'onish davri kishilik jamiyati va uning tarixiga, davlat va huquqshunoslikka yangicha qarash bilan ham ajralib turadi Uyg'onish davrida teatr arxitekgura va tasviriy hamda professional musiqa san'atlari rivojlandi. Masalan, teatr san'ati Ispaniya, Italiya, Angliyada ayniqsa keng rivoj topdi. Ispaniyada Servantes, Lope de Vega /XVI asrning 2-yarmi XVII asrning boshlarida/ Angliyada Shekspir dramaturgiyasi teatr san'ati rivojida katta rol o'ynadi. Musiqa san'atida kantata, oratoriya, opera kabi yangi musiqa janrlari takomillashdi. Arxitektura va tasviriy san'atda N.Pizano, Jotto, Mazachcho, Sandro Botticelli, Leonardo da Vinchi, Rafael, Mikelanjelolar borliqni real aks ettirib, ibratli va o'lmas asarlar ijod qildilar.

Xulosa qilib shuni aytish kerakki, Uyg'onish davri Yevropa mamlakatlarining madaniy va g'oyaviy hayotida katta progressiv rol o'ynadi. Bu davrda jaxon madaniyatining eng nodir va bebaho asarlari yaratildi. Fan jamiyat ishlab chiqarishi jarayonning muhim omiliga aylanib bordi.

## **Temur va temuriylar davri madaniyati**

Agar o'rta Osiyo madaniy taraqqiyotiga nazar tashlansa, madaniy-tarixiy jarayonda O'rta Sharqda markazlashgan qudratli davlatni barpo etgan Amir Temurning roli beqiyos katta bo'lganligini anglab yetish mumkin. Amir Temur va temuriyodalalar Sharqning, ayniqsa, IX-XII asrlar musulmon madaniyati an'alarini davom ettirdilar.

Amir Temur o'z tasarrufidagi mamlakatlarning mavjud boyluklarini ishga solib, o'z imperiyasini iqtisodiy va madaniy jihatdan yuksalgan qudratli davlatga aylantirdi. Mamlakat ichida birlik va barqarorlikni o'rnatish, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlash uchun ko'plab chora tadbirlarni amalga oshirdi. Xalqning diniy e'tiqodini mustahkamlash maqsadida xalq ishonchini qozongn ruhoniylar, tasavvufning yirik vakilpari obro'sini yana baland ko'tardi.

aylanishini ochishga yaqinlashdi. Mexanika, matematika, xususan algebrada bir qancha kashfiyotlar qilindi. Buyuk kashfi-yotlar faqat geografiya sohasida emas, balki geologiya, botanika, zoologiya, etnografiya bo'yicha ham yangi ma'lumotlar berdi.

Yevropa Uyg'onish davri adabiyotga davr g'oyalari, gumanizm dunyoqarashi bilan chambarchas bog'liq edi. XIII asr oxiri va XIV asrning boshida Italiyada A. Dante, F.Petrarka ijodi adabiy til rivojiga katta hissa qo'shdi. Germaniyada va Niderlandiyada Erazm Rotterdamskiy, Frantsiyada M.Monten, F. Rable va boshqalar ijodida erksevarlik, insonparvarlik, g'oyalari publitsistik ruhda ifodalandi, sxolastika fosh etildi, yuksak insoniy tuyg'ular tarannum qilindi. J. Bokachcho o'zining «Dekameron» asari bilan Uyg'onish davri madaniyatida o'chmas iz qoldirdi. Hikoyanavis bu asarda ilgari surgan yangicha g'oyalari bilan kishini tabiatan «gunohkor» deb ko'rsatuvchi katolik cherkovi diniy aqidalarini fosh etdi.

So'nggi Uyg'onish davrida ko'pgina Renessans ideallari va normalari Italiyaning o'zida ham, undan tashqarida ham o'zgarishlarga uchradi. Keskin sinfiy kurash, ayrim mamlakatlardagi feodal-katolik reaksiyasining, boshqasida protestantizmning g'alabasi sharoitida Renessans gumanizmida krizis boshlandi. Gumanistlarining insonning erkin rivojlanishi uchun imkon beradigan yangi jamiyat haqidagi optimistik va hayotiy ishonchlari puchga chiqdi. Uyg'onish davri madaniyatida aristokragik tendentsiya kuchaydi. Bu manerizm va shunga o'xshash turli xil oqimlarning paydo bo'lishiga ta'sir ko'rsatdi. So'nggi uyg'onish gumanizmining yirik vakillari - Shekspir, Servantes, Mikelanjelo ijodida hayot o'z ziddiyatlari /»tragik gumanizm«/ bilan aks ettirildi, yomonlikka qarshi kurashda fojiviy motivlar paydo bo'la boshladi.

Uyg'onish davri falsafiy qarashlarida ham juda katta siljishlar yuzaga keldi. Uyg'onish davri falsafiy tafakkurining asosiy yutuqlaridan biri-ilohiyotga buysunishdan ozod bo'lgan naturfilosofiyaning paydo bo'lishidir. Uyg'onish davrida dinga qarshi fanni olg'a surgan bir necha olimlar:N.Kopernik. J.Bruno, N.Kuzanskiy, G.Galileylar o'zi yaratgan nazariyalari bilan sxolastik falsafaga qaqshatkich zarba berdilar, shu bilan birga, ular yaratgan kashfiyotlar materialistik dunyoqarashning umumiy rivojiga tabiiy-

ustunlariga maxkamlangan.

XIX asr oxirida Amerikalik arxeologlar qadimgi shumeriyalar shahri Nipurda qazishma ishlari olib boradi va bu yerdagi 62 ta xonalarga joylashgan bir necha ming sopol lavhalarni izlab topadilar. XX asr boshida esa nemis arxeologlari qadimgi Shurruk-pakda qazishma ishlarini olib boradilar va qadimgi shumer kutubxonasini izlab topadilar. Mixxat topilmalari turli sohani qamrab olgan sopol lavhalardan iborat bo'lganligini ular tasdiqladilar.

Uruk shahridan topilgan kutubxona xarobalari tagidan tol novdasidan to'qilgan savatlarga joylashtirilgan ko'plab sopol lavhalarga bitilgan mixxat yozuvlari qazib olinganda yuqoridagi fikr yana bir bor isbotlandi.

XX asrning 20 yillarida ingliz arxeologi L.Vulli boshchiligidagi ekspeditsiya 12 yil mobaynida qadimgi Ur shahri harobalarini ochish bilan shug'ullanadi. Saroylar, qasrlar, ibodatxonalar va podsholarning daxmalari qoldiqlari ochib o'rganiladi. Natijada 20 mingtacha mixxat yozilgan taxtachalar, ko'plab qimmatbaho zargarlik va uy – ro'zqor buyumlari hamda oltin idishlar topiladi. ingliz olimining Ur shahri xarobalarini o'rganishi san'at taraqqiyotining beshigi qadimgi Yunoniston deb xulosa chiqargan ko'pgina olimlarning fikrini chippakka chiqaradi. Ur xarobalaridan topilgan bo'rtma suratlar, haykalchalar me'moriy yodgorliklar qoldiqlari haqiqiy san'atning yuksalishi dastlab qadimgi Shumerda vujudga kelganligini isbotlab berdi.

Qadimgi shumeriyalar adabiyotining nodir va buyuk durdonasi «Gilgamesh haqida doston» dir. Dostonda odamning hayoti, hatto mashhur qahramonlarning ham o'lim oldida ojiz ekanligi, ulim azaliy taqdir ekanligi kuylanadi. Doston to'rtta qismdan iborat bo'lib, uning 1-qismida Gilgameshning qadimgi Uruk shahrini idora qilishi va dostondagi ikkinchi qahramon – Enkiduning paydo bo'lishi; 2-qismida Gilgamesh va Enkiduning dushmanlarga qarshi kurashdagi jasoratlari; 3-qismida Gilgameshning abadiy hayot o'tini qidirib bobosi Utnapishtim huzuriga o'tlanishi va yo'ldagi sarguzashtlari; 4-kismida Gilgameshning marhum do'sti Enkiduning arvohi bilan uchrashuvi hikoya qilinadi.

Shumerliklarning xo'jalik ehtiyojlarining chuqurlashuvi fan ko'rtaklarining vujudga kelishini boshlab berdi. Binolarning hajmini

belgilash, mahsulotlarning miqdori va og'irligini ulchash, binolarning hajmini belgilash, dalalarning yuzasini ulchash zarurati matematika va geometriyaning paydo bo'lishiga olib kelgan. 5, 6, 10 sonlari hamda ularning ko'paytmalari hisoblanuvchi 30 va 60 sanoq sistemasiga ham shumeriyalar asos solganlar.

Shumer-Akkad davridayoq astranomik kuzatish ishlari olib borilgan. Shumer va Bobilliklar astranomlar yetti qavatli ibodatxona - (zikkurat) larning tepa qismidagi maxsus maydonchadan turib osmon jismlarining harakatlarini kuzatganlar. Ular dunyoning to'rt qismga bo'linish to'g'risidagi tasavvurlarga ega bo'lganlari va yulduzlarni beshta planitadan ajrata bilganlar. Quyoshning tutilishi natijasida jamlangan kuzatish ishlari astranomik hujjatlarda berilgan. O'ziga xos taqvim yaratilib, bir yil 354 kuy deb ko'r-satilgan.

Tabobatda ko'proq seyr-jodudan foydalanishga uringanlar. Lekin turli xil o'tlardan dori-darmonlar tayyorlaganlar. Jarroxlikda bronza pichoqdan foydalanib, ko'z operatsiyalariga qo'l o'rganlar, ko'zga tushgan pardani olib tashlab, tashqi yara va o'simtalarni jarroxlik yo'li bilan tuzatganlar. Qadimgi shumer va bobilliklar me'morchilikda shuxrat qozonganlar. Mil. avv 1 ming yillikdayoq me'morchilikning yuksak namunalarini o'zida birlashtirgan Eridu, Nippur, Ur, Umma, Uruk, Lagash shaharlari vujudga kelgan.

Shumerlar dastlabki davrlarda sizot suvlarining binoga ta'sir qilishining oldini olish maqsadida, yirik imoratlar tagini tuproq bilan ko'tarib, uning tepa qismiga hozirgi asfaltga o'xshab ketadigan qotishma yotqizib, so'ngra bino qurganlar.

Shumer – Akkad me'morchiligi Urning III sulolasi davrida (mil. avv 2118-2007 yillar) nihoyatda gullab yashnagan. Qadimgi Ur, Eshnuna va Opis shaharlarida mahobatli saroylar, maqbara va ibodatxonalar qurilgan.

Birgina Bobilning muallaq bog'larining o'zi ham qadimgi davrda arxitekturaning qay darajada rivojlanganligini ko'rsatadi. Bu bog' qadimgi Yunon-makedonlarni bekorga hayratga solmagan. Bobil bog'larining mahobatliliigi, hashamdor qilib bezatilganligi va mustahkamligini ko'rgan yunonlar uni yetti iqlimning yetti mo'jizalari safiga kiritganlar. Rivoyatlarga ko'ra, bu bog'ni Bobil podshosi Novuxodanosar mil. avv. VI asrda bog'-rog'larga burkangan Midiyalik sevikli xotini sharafiga qurdiradi.

Italiya Sharq bilan G'arb o'rtasidagi savdo aloqalarining rivojlanishda muhim rol o'ynaydi. Shu sababli Italiya shaharlari tez o'sib, feodal hukmronlari ta'siridan ham ozod bo'la boshlaydi. Mustaqillikka erishgan shahar-davlatlarda respublikachilik tartiblari hukmron edi. Bu esa jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotning ildamlab ketishiga va gullab yashnashiga turtki bo'ldi.

G'arbiy Yevropada Uyg'onish davri burjua madaniyatining paydo bo'lishi bilan tavsiflandi. Yemirilib borayotgan feodalizm tartiblari o'rniga burjua munosabatlari yuzaga kela boshladi. Biroq Uyg'onish davrida hali burjua jamiyatining ziddiyatlari zaif edi. O'sha zamonning ilg'or kishilari mehnat taqsimoti va kapitalistik tartiblarning halokatli ta'siriga duchor bo'lmagan edilar. Shuning uchun Uyg'onish davri gumanistlari o'z asarlarida cherkov va feodal tuzumi iskanjasida ezilgan keng mehnatkash ommaning istak-orzularini ham ifoda qiladilar. Mamlakat madaniy hayotida misli ko'rilmagan yangiliklar yuz bera boshlaydi. XIII-XVI asrlar mobaynida Italiya shaharlarida 22 universitet ochiladi: huquqshunoslik, meditsina fanlari antik davr tarix, adabiyot va san'atini o'rganishga qayta e'tibor qaratiladi. Bu o'zgarishlar XV-XVI asrlarda buyuk kashfiyotlarni vujudga kelishiga zamin bo'ldi. Matematika, fizika, astronomiya fanlari sohasida erishilgan qator yutuqlar Uyg'onish davrida gumanitar bilimlar bilan bir qatorda tibbiyot fanlarining ham rivojlanganligidan darak beradi.

Bu davr tabiiy fanlarining eng muhim xususiyati san'at bilan uzviy bog'liqligidadir. O'rta asr diniy-mistik aqidalarini bartaraf etish jarayoni ayni vaqtda fanda, ham san'atda namoyon bo'lar. Ko'pincha bir shaxs ijodida uyg'unlashib ketardi. Masalan: Leonardo da Vinchi buyuk haykaltarosh, arxitektor va rassomgina bo'lib qolmay, mashhur matematik, mexanik va injener ham edi. A.Dyurer rassom, haykaltarosh, arxitektor, matematik edi. Tabiatshunoslikda, ayniqsa, astronomiya sohalarida yirik muvaffaqiyatlarga erishildi. Buyuk geografik kashfiyotlar /X.Kolumb, Vasko de Gama, F. Magellan va boshqalar sayohati/ amalda Yerning sharsimonligini isbotladi, quruqlikning katta qismini tasvirlashga imkon berdi. XVI asr o'rtalarida polyak astronomi N.Kopernikning geliotsetrik sistemani kashf qilishi, fanda inqilobiy to'ntarish bo'ldi. Ispan olimi M.Servet organizmda qonning doiraviy

Mufasssal», «Muqaddamat ul-adab» kabi asarlari, ahloqiy-didaktik mavzudagi Yusuf Xos Hojibning «Qutadg`u bilig», Ahmad Yassaviyning «Hikmatlar», Ahmad Yugnakiyning «Hibatul haqo-yiq», Rabg`uziyning «Qisas ul-anbiyo» kabi ko`plab asarlari yuzaga keldi. Rudakiy, Daqiqiy, Firdavsiy, Nosir Husrav, Haydar Xorazmiylarning yetuk asarlari yerli xalq vakillarining badiiy tafakkuri benazir ekanligidan nishona edi.

Buxoro, Samarkand, Ko`hna Urganch, O`zgan, Marv va boshqa shaharlarda bunyod etilgan me`moriy yodgorliklar xalq ustalari va hunarmandlarining me`morchilik va naqqoshlik san`atlarida milliylik va umuminsoniylikni umumlashtira olish iqtidorlarining yuksakligidam dalolat edi. Al Kindiy, Forobiy, Ibn Sinolarning musiqa nazariyasiga oid asarlari an`anaviy milliy va Sharq musiqasining o`zaro uyg`unlashuvi va boyishida muhim ahamiyat kasb etdi.

Umuman olganda, Sharq Uyg`onish davri madaniyati nafaqat islom dunyosi xalqlarining yuksak taraqqiyotga ega bo`lganligini ko`rsatadi, balki o`zidan keyin Yevropa Uyg`onish davri madaniy taraqqiyotiga zamin hozirladi.

### **G`arb uyg`onish davri madaniyati**

XV asr oxiri va XVI asr boshlarida G`arbiy Yevropa mamlakatlarida feodalizm yemirilib, kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlari shakllana boshladi. Bu davrni odatda Renessans yoki Uyg`onish davri deb ataydilar. Madaniyat tarixida Renessans nomi bilan yuritiladigan bu harakat dastlab Italiyada yuzaga kelib, ko`p o`tmay Yevropaning qolgan mamlakatlariga ham tarqala boshlaydi.

«Ressans" (Uyg`onish) termini birinchi bo`lib italyan gumanistlari, hususan rassom va san`atshunos J.Vazari /1511-1574/ muomalaga kiritadi, fanda asa bu atama XVIII asrlardan boshlab ishlatilgan.

Yevropada Uyg`onish harakatining ilk vatani-Italiyadir. XVI asrning ikkinchi choragidanoq Italiyada kapitalistik sanoatning dastlabki shakli manifaktura yuzaga keladi. O`rta yer dengizi sohillarida joylashgan va o`sha davrda ilg`or mamlakat hisoblangan

To`rt qavatli bog` sun`iy maydon ustiga quriladi va uzoqdan muallaq holda turgandek ko`rinagan. Shu boisdan bu bog` «Bobilning muallaq bog`lari» deb atalgan.

Bog`ning har bir qavatini toshdan yasalgan ko`plab baland naqshinkor ustunlar ko`tarib turgan. Ravoqlar ustidan g`isht, murakkab bog`lovchi material, ichiga hozirgi tsementga o`xshash qotishma to`ldirilgan chiy tushalgan, yana g`isht terilgan. So`ngra suv o`tmasligi uchun qurg`oshin quyib chiqilgan.

Har bir qavatga ulkan daraxtlarni ushlab turish uchun qalin qilib unumdor tuproq yotqizilgan. Bir qavatdan ikkinchi qavatga guldor qilib yasalgan zinapoyalar orqali ko`tarilgan. Bog` uchun juda ko`plab mamlakatlardan turli xil daraxtlar va anvoyi gullar keltirib ekilgan. Minglab qullar bog`ni parvarishlash bilan band bo`lganlar. Bog` Frot daryosidan ulkan charxpalaklar yordamida ko`tarib berilgan suv bilan sug`orilgan. Keyinchalik Frot daryosi o`z o`zanini o`zgartirib, muallaq bog`ni yuvib ketgan.

Qadimgi shumeriyalar haykaltaroshligi ham o`ziga xos tarzda rivojlangan. Ular haykallarni qotib qolgan tarzda yasagan bo`lsalar-da, asosiy e`tiborini uning ko`ziga qaratganlar. Haykalning ko`zi har xil toshdan terib ishlangan. Bo`rtma rasmlardagi odamlar hayvonlar juda sodda va qotib qolgan tarzda tasvirlangan.

Xulosa qilib aytganda, Shumer – Bobil madaniyati qadimgi Sharq xalqlari asosan, Old Osiyoning ko`pgina xalqlari madaniy hayotiga ta`sir ko`rsatgan. Shumer yozuvlari Osuriya, Xett, Urartu va Suriya xalqlari yozuvining shakllanishiga, Bobilliklarning o`quv sistemasi, birlik ulchovi, pul birligi Old Osiyoning ko`pgina xalqlari madaniyati keyingi davr-antik davr yunon madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan.

### **Qadimgi Misr madaniyati**

Misr madaniyati eng qadimgi madaniyatlardan biri bo`lib, taxminan mil. avv 4 ming yillik boshlarida vujudga kelgan. Misrning qulay tabiiy sharoiti eng avvalo dehqonchilikning yanada taraqqiy etishiga yordam bergan. Sun`iy sug`orish yangidan-yangi to`g`onlar, dambalar, ariqlarning qurilishiga charxpalaklar orqali

suv chiqarishning rivojlanishiga olib kelgan.

Qadimgi Misrliklar qurol-yaroqlar, uy ro`zg`or buyumlari, haykalchalar yasashda turli xil materiallardan –tosh, suyak, chig`anoq, yog`och, slanets, loy, teri va boshqalardan foydalanganlar. Masalan, ular toshdan boltalar, poyteshalar, o`q uchlari, xususan fil suyagidan taroq, qoshiq, tumorlar, chig`anoqdan esa qarmoqlar yasaganlar. Yog`ochdan bemerang yasagan bo`lsalar, teridan savat va matolar to`qiganlar. Loy esa har xil uy ro`zg`or buyumlarining asosiy materiali xisoblangan. Davlatchilikning vujudga kelishi kulolchilikning yanada rivojlanishiga, diniy e`tiqodlarda hukmronlarni ilohiylashtirishga, tasviriy san`at va arxitekturaning yanada yukslashiga olib kelgan.

Qadimgi Misrliklar o`likni mumiyolab, qabirga kundalik turmushda ishlatiladigan zarur buyumlarni, turli haykallarni, zebziyatlar, qurol – yarog`larni ko`mishi, maqbara devorlarini marhumning hayotiga oid voqealardan olingan parchalar bilan bezash odati ularning moddiy va ma`naviy madaniy yodgorliklarining hozirgi kunimizgacha saqlanib qolishiga yordam bergan.

Misrliklarning xalq og`zaki ijodi namunalari va yozma adabiy – badiiy asarlari bizgacha tosh bitiklar, papirus va ibodatxonalar, saroylar, piramida va maqbaralarning devorlariga tushirilgan yozuvlar orqali bayon etiladi. Misr adabiyotida turli xil mavzular vatanni qumsash, jasurlik, falsafiy va diniy, e`tikod ishq – muxabbat, yaxshilik va yomonlik, baxt va boshqa mavzular o`z ifodasini topgan. Masalan, Sinuxet (Yirik mansabdor) taxt uchun kurashda fitnada qatnashadi. Fitna bostirilgach, Fir`avanning g`azabidan qo`rqib Sinay cho`llariga qochib ketadi. U yerda boybadavlat qabila boshlig`ining qiziga uylanadi. Mahalliy polvonni yengib, nixoyatda mashxur kishiga aylanadi. Lekin vatan sog`inchi xamma narsadan ustun turgan. U Fir`avndan kechirim surab Misrga qaytadi.

Qadimgi Misr adabiyotining namunasi b o`lgan “Hayotdan kungli sovigan odamni o`z ruhi bilan suxbati” asarida hayotning ma`nosi va yashashdan maqsad mazmunida falsafiy mushoxada yuritiladi. “Piramidalar matnlari”, “Murdalar kitobi” asarlarida diniy mavzular bayon qilinadi. “Piramidalar matnlari” maqbaralar,

Musulmon Sharqining yana bir qomusiy olimi, mutafakkiri Abu Rayxon Beruniy /972-1048/ o`zining «O`tmish xalqlardan qolgan yodgorliklar» kitobida islom dinigacha bo`lgan ajdodlarimizning e`tiqodlari, urf-odatlari bayon qilish bilan birga shu kitobda matematikaga, geografiyaga doir qimmatli tarixiy ma`lumotlarni yozib qoldirdi. Beruniyning «Hindiston» asari shunday tarixiy qiymatga egaki, u o`zining bu asarida tilga olgan, ta`riflagan, turli o`simlik, hayvonot olami turlari, hind xalqining shu kunlarda yo`qolib ketgan urf-odatlari, marosimlari, adabiyoti va san`ati namunalarini bayon etib, ular haqida boy ma`lumotlar bergan. Shu kunlarda hind xalqi va boshqa xalqlar yo`qolib ketgan o`simlik, hayvon turlari va urf-odat hamda marosimlarini allomaning ana shu asari orqaligina bilib olmoqdalar. Allomaning «Mineralogiya» asari shu kunlarda ham ma`danhunoslik fanida o`z qiymatini yo`qotmagan asardir. Shuningdek, uning matematika, trigonometriya, geografiya, ilmi nujum, falakkiyotga doir asarlari nafaqat Sharq, balki G`arbda ham yetarli shuhrat qozongan.

Musulmon Sharqning yana bir buyuk allomasi, qomusiy olimi va tabibi Abu Ali Ibn Sino /980-1037/ o`zining tibbiyot, falakkiyot, handasa bobidagi qarashlari bilan butun jahonni lol qoldira olgan edi. Uning «Alqonun fitt tibb», /Tib qonunlari/, «Kitob ash-shifo» /davo kitobi / «Donishnoma» asarlari hali hanuz jaxon xalqlari tomonidan e`zozlab o`rganilmoqda. Uning «Tib qonunlari» asaridagi ko`uplab tibbiy qarashlar va dalillar hozirgi davr tibbiyot ilmi dalillaridan deyarli farq qilmaydi.

Bu davrning buyuk siymolarmdan biri shoir, mutafakkir, didaktikani tarannum etgan Umar Hayyom bo`lib /1040-1123/ matematika va astronomiya fanlari rivojiga ham ulkan hissa qo`shgan. Uning purhikmat ruboiylari shu kunlargacha ham har bir fuqarolarimiz xonadonlarida jaranglab, o`sha davr ahloqiy normalari, madaniyati va tafakkuri ziyosidan bahramand etmoqda.

IX-XII asrlar Markaziy Osiyo xalqlarining milliy o`zligini anglashi, milliy g`urur va iftixor tuyg`ularining mustahkamlanishi milliy ahloq, milliy tafakkur taraqqiyotiga erishilgan davr sifatida tarixdan joy oldi. Chunki bu davrda tilshunoslikka oid Mahmud Qashg`oriy ning «Devoni lug`otit turk», Abu Hayyon Andalusiyning «Turkiy tillarni bilish kitobi», Az-Zamaxshariyning «Al-

/»Tinchlik shahri»/ deb atalgan, o`z davrining ilmi, fani markazlaridan biri bo`lgan Bag`dod shahrida yuzaga kelgan «Baytul hikma» /Hikmatlar uyi/ maktabini tashkil etadi. Va o`sha davrining yetuk, zukko olimu - fuzalolarini, yig`ib, ularga boshchilik qilidi, riyoziyot, handasa, ilmi hayot, falakiyot va boshqa bir qancha fanlarga doir, hozirgi kunlarda ham o`z qiymatini yo`qotmagan izlanish olib boradi. Algebra fanida misli ko`rilmagan yangiliklar yaratdi. Bu fan shu alloma nomi bilan bevosita bog`liqdir. Ana shu paytlardan bu fan al-Xorazmiyning asari -»Aljabr val muqobala» nomi bilan bog`liq holda «Al-jabr» deb atalib, jaxonga tarqaldi.

Al-Xorazmiyning eng yaqin shogirdlaridan biri, unga kotiblik qilgan yirik astronom Ahmad Farg`oniy /861 yilda vafot etgan/ Bag`dodda tashkil etilgan akademiyaning ko`zga ko`ringan olimi, tashkilotchisi va falakiyot bobida o`zidan so`ng ko`plab yangiliklarni qoldirgan olimdir.

Sharqning yana bir yirik faylasufi, mutafakkiri, musiqashunos, yirik qomusiy olim Abu Nasr al-Forobiy /870-950/ o`zining «Fozil shahar kishilari» risolasidayoq Yevropa Uyg`onish davriga kelib ilgari surilgan insonparvarlik g`oyalarini madaniyat rivojida ustivor ahamiyatga molikligini ko`plab tomonlarini bayon etgan edi. Jumladan yuqorida ko`rsatilgan risolada u odil shaharning hokimi odil, to`g`ri so`z, fuqaroparvar kishi bo`lishi zarurligini, bu shaharda erkaklar bilan ayollarning teng mehnat qilishlari, ular ishda bo`lgan paytlarida ularning bolalarini saqlash va tarbiyalash joylari / bolalar bog`chalari/ mavjud bo`lishi zarurligini o`qitgan edi.. Forobiy shuningdek Aristotelning «Metafizika» asariga sharh yozib, bu asarni tushunish jarayonini qulaylashtirgan, shu bilan birga kishilardagi ayrim kasalliklarni musiqa yordamida /hozirgi musiqa terapiya/ davolash mumkinligini o`z davridayoq aytgan edi. Forobiyni o`zining madaniyatga bo`lgan qarashlarida o`z davridan bir necha asrlar ilgari ketgan qomusiy olim deyish mumkin.

Buyuk shoir alloma Firdavsiy /934-1025/ o`z qarashlarida musulmon Sharqi odobi va ahloqi, adolat muammolarini tarannum etib, o`zining bebaho hikmatli fikrlari bilan birga Sharq xazinasi-ning bebaho durdonasi sanalgan «Shohnoma» asarini yozib, hayotlik davridayoq o`ziga mangu haykal qo`yib, milliy madaniyatni, ahloqni yana bir pog`ona yuqoriga ko`targan edi.

piramidalar ichidagi dafn xonalariga yozilgan bo`lib, ularda “Xudolar dargohiga kirayotgan”, “Jannatga qadam bosayotgan” hukmdorning baxtli damlari va hayoti tasvirlangan.

“Murdalar kitobi” da ko`proq narigi dunyo podshosi Osiris uning rafiqasi Isida, singlisi Neftida, o`g`li Gor va yovuz ukasi Sit (U odamlar va tabiatga zarar keltiruvchi cho`l, garemse, shur suvlar hukmdori sifatida talqin qilinadi) to`g`risida afsonalar xikoya qilinadi.

Shuningdek Misr adabiyotida koxinlar qaytadan ishlagan xudolar to`g`risidagi afsonaviy qissalar ham joy olgan. Mazkur afsona-qissalarida Quyosh xudosi Ra bosh xudo hisoblangan. Ra ibtidoiy tufonlar zamoni vujudga kelgan emish. U nilufar gulidan chiqib kelib butun mavjudotni yaratgan. Raning og`zidan xudolar, ko`zidan odamzod kelib chiqqan. Osmon kengashini Ra boshqargan. Yozuvni ixtiro qilgan. Donishmandlik xudosi Tot uning kotibi bo`lgan. Ra obrazi yerdagi Fir`avn xislatlarini ola boshlagan. Fir`avn oldida hamma fuqaro yerga yiqilib ta`zim qilishga majbur bo`lgan. Feva davlatchilik yuksalgandan keyin yerli xudo Amon xudo Ra bilan tenglashtirilgan va Amon-Ra deb atala boshlangan.

Qadimgi Misrliklar matematika, geometriya, astronomiya, tibbiyot va geografiya fanlarining rivojiga ham o`z hissalarini qo`shganlar. Misrlik olimlar murakkab matematik masalalarni yechib, kesik piramida yuzasi va aylananing diametriga nisbatini aniq hisoblab chiqqanlar.

Ular Sirius yulduzining harakatini chuqur o`zlashtirib, Nil daryosining toshish davrini aniq kursatib beradilar. Ular quyosh taqvimini yaratganlar. Bir yilni o`n ikki oyga, har oyni o`ttiz kunga va qolgan besh kunni xech bir oyga qo`shmasdan bayram qilganlar. Bayramning beshinchi kuni tugagach, yana yangi yil hisobi boshlangan.

Misrlik tabiblar odam anatomiyasini yaxshi bilganlar. Tabiatga oid papirus matnlariga tabibdan bemorni atroflicha kurish, kasallik alomatlarini bilish. to`g`ri tashxis qo`yish va davolash uslubini to`g`ri tanlash talab qilinganligi yozib qoldirilgan. Shuningdek Misr tabobatida genekologiya, jarroxlilik, ichki va ko`z kasalliklari to`g`risidagi bilimlar ancha chuqur bo`lgan.

Misr arxitekturasini va tasviriy san`ati ibtidoiy jamoa

tuzumining va ilk podsholikning vujudga kelishi bilan taraqqiy eta boshlagan. Qadimgi Misr san'ati din va uning turli xil marosimlari bilan chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Me'morchilik san'ati esa, ular tomonidan qurilgan maqbaralar, piramidalar, saroylar, ibodatxonalarda o'z ifodasini topgan.

Yangi podsholik davrida / mil. avv. 1584-1071 yillar oralig'i/ yirik ustunli va maxobatli ibodatxonalar /. Masalan, Luksor, Karnak ibodatxonalari/ qurilgan. Ibodatxonaga kirish joyining o'zi o'ta dabdabali bo'lgan. Ibodatxonalar rufarasida qudrat va donishmandlik ramzi hisoblangan sfinkslar hiyoboni joy olgan. Ibodatxonalarning devorlariga turli rang bilan ishlangan suratlar va ieroglif /tasvirli yozuv/ lar tushirilgan. Rasmlardagi kishilar o'ta jiddiy qilib tasvirlangan.

Saroylar qurilishiga ham aloxida e'tibor berilgan. Masalan, fir'avn Axetaton / mil. avv. XIII asr / Nil daryosining qirg'og'ida ulkan saroy qurdiradi. Tarixiy manbalarda ko'rsatishicha, saroy fasadining uzunligi 700 metr bo'lgan. Saroy zallari serhasham qilib bezatilgan va yirik ustunlar bilan ko'tarilgan. O'sha davrning mashxur rassomlari saroy ichini bezash uchun turli xil manzaralar, saroy va fir'avn hayotini ifodalovchi suratlarni tushirgan.

Qadimgi Misr ehromlaridan birinchisini III dinastiya sulolaning fir'avn Joser o'zi uchun qurdirgan. Joser piramidasining qurilishiga astronom, tabib, donishmand va me'mor Imxotep boshchilik qilgan. Mazkur piramida mil. avv. 2780 yilda barpo etilgan bo'lib, u zinapoya shaklida yuqoriga ko'tarilib borgan. Piramidaning balandligi 60 metrilar chamasi bo'lgan uning atrofiga turli xil marosimlar o'tkazish uchun mo'ljallangan qo'shimcha binolar qurilgan.

IV suloladan boshlab qadimgi Misrda piramidalar va maqbaralar qurish odat tusiga aylangan. Sulolaning Xufu / Xeops /, Xafra / Xefren / va Minkaura / Mikeren / kabi fir'avnlari ulkan piramidalar qurdirgan. Xufu / Xeops / piramidasi eng ulkan piramida bo'lib, yunonlar maskur piramidani yetti iqlimning yetti mujizasiga kiritganlar. Xufu piramidasi eng ulkan va mustaxkam inshoot bo'lib, uning qurilishiga xar birining og'irligi 2,5 tonnadan iborat 2 million 300 ming dona oxak tosh bloklari ishlatilgan. Piramidaning ichki qismida bir-birini bog'lagan chalkash yullar bo'lib, ularning birgina ushoq jasadi qo'yilgan xonaga olib borgan.

korlik intilishlari bilan harakterlanadi.

Bizningcha, Sharq va G'arb uyg'onish davrlari madaniyatlarining bir-biridan farqlanib turadigan jihati mavjud bo'lib, Sharq Uyg'onish davrida asosiy e'tibor inson ma'naviyatini yuksaltirishga, uning ma'naviy ehtiyojlarini qondirishga qaratilgan bo'lsa, G'arb Uyg'onish davrida inson moddiy ehtiyojlari va manfaatlarini qondirish alohida vazifa qilib qo'yilgan. Agar Sharq va G'arb ma'naviyatiga e'tibor berilsa, Sharqda ma'naviy barkamol insonni shakllantirishga e'tibor berilganligini, kishilar o'rtasidagi munosabatlar ahloqiy barkamollikka, diyonatlilik asosiga qurilganligini ko'rish mumkin. G'arb madaniyatida esa asosiy e'tibor kishining moddiy jihatdan ta'minlanganligiga qaratiladi. Shu boisdan ham G'arbda ko'proq moddiy manfaat ustunlik qiladi.

### **Sharq uyg'onish davri madaniyati**

Agar Sharq madaniy taraqqiyoti tarixiga nazar tashlasak, Musulmon Sharqida VII asrning ikkinchi yarmidayoq fanlarning ko'pgina sohalari bo'yicha yangi fikrlar, g'oyalar va qarashlar ilgari surilganligini ko'ramiz. G'arbda esa XV-XVI asrlar oralig'iga kelibgina fan va tafakkurda ko'tarilish yuzaga kelganligini guvohi bo'lamiz.

Masala shundaki, Musulmon Sharqi falsafasi, madaniyati ilgari surgan g'oyalar IX-XII asrlardayoq etilgan bo'lib, bu g'oyalarning ko'pchiligi XV-XVI asrlarda G'arbda o'z isbotini topganligini alohida qayd etish mumkin.

G'arbda keyinchalik isbotlangan va ochilgan ko'plab fan yangiliklari dastlab musulmon Sharqi mutafakkirlari tomonidan aytilgan, lekin ilmiy isbotlanmaganligining sababi hali hanuz norma'lumligicha qolmoqda. Balki G'arb mamlakatlaridagidek aholining ko'pchiligi savodli emasligimi, yoki hali bizga nomalum yana boshqa sabablarning borligi tufaylimi bu g'oyalarni ko'pchiligi musulmon Sharqida o'z isbotini topmay, xilma-xil sabablar bilan izohlab kelindi.

IX asrning boshlarida buyuk vatandoshimiz Muhammad ibn - Muso al-Xorazmiy /780-847/ VIII asrdayoq «Madinatus salom»



kamlanishiga, ma'rifatning tarqalishiga, turli xil fan sohalarining rivojlanishiga boshchilik qilganlar. O'zlarining poytaxtlariga o'sha davrning ko'zga ko'ringan olimlar, fiqhshunoslar, muhandislar, tarixchilar, shoirlar, me'morlar, san'atkorlarini to'playdilar. Maxsus ilm markazlari, kutubxonalar, madrasalar barpo etdilar, ularni mablag' bilan ta'minlab turdilar. Shu boisdan ham IX asrdan boshlab ilm-fan, adabiyot va san'at, me'morlik va teologiya yuksak darajada rivojpana boshlaydi.

O'z navbatida G'arb Uyg'onish davri madaniy taraqqiyoti boshida ham o'sha davrning boy-badavlat kishilari rahnamolik qilgan edilar. Florentsiyada shaharning eng boy-davlat kishisi, bankir Kozima Medichi, so'ngra uning nevarasi Lerendo rahbarlik qilganligi tarixdan bizga ma'lum. Kozimo Medichi Florentsiyaning ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotini boshqarishni o'z qo'lga oladi. O'z atrofiga mashhur olimlar, san'atkorlarni to'playdi, ularni ish bilan ta'minlaydi, ularga homiylik qiladi. Natijada Florentsiya XV asr davomida Italiyaning madaniy jixatdan eng yuksalgan, vataniga aylanadi. Bu yerda antik dunyo san'ati yodgorliklarini o'zida mujassamlashtirgan birinchi badiiy muzey tashkil etildi. Falsafa akademiyasi, haykaltaroshlik, tasviriy san'at ustaxonalari vujudga keldi.

Uyg'onish davri madaniyatining yana bir muhim xususiyati - turli fan sohalarida demokratik jarayonning ro'y berganligidir. O'sha davrning buyuk siymolari-ilm-fan fidoyilari millati, diniy e'tiqodlari qanaqa bo'lishidan qat'iy nazar, yagona maqsad -fanlarni rivojlantirish uchun kurash olib boradilar.

Bu davrning donishmandlari insonning o'ziga, atrof-muhitga, o'tmish madaniy merosiga bo'lgan munosabatlarini o'zgartirishga alohida e'tibor beradilar. Inson, uning taqdiri, kelajagi, orzu-umidlari, his-tuyg'ulari fan va san'atning asosiy mavzusiga aylanadi. Madaniy va ma'naviy ta'sir real insonga qaratiladi. Natijada kishilarning dunyoqarashi, o'tmishga bo'lgan bahosi, ahloqiy va estetik qarashlari o'zgara boshladi.

Umuman olganda, Uyg'onish davri madaniy taraqqiyotining eng muhim xususiyati - ijtimoiy ma'naviy taraqqiyotda muayyan etnik birliklarning milliy madaniyatni, milliy qadriyatlarini qayta tiklash va yuksaltirishga bo'lgan yuqori darajadagi bunyod-

Jasad qo'yiladigan xana piramidaning o'rta qismida joylashgan. Xona xar birining og'irligi 60 tonnadan iborat granit bloklardan qurilgan. Piramidaning balandligi 147 metr pastki qismining xar bir tomoni 137 metrni tashkil etadi. Maskur piramida 20 yil mobaynida qurilgan.

V Suloladan boshlab hajmi uncha katta bo'lmagan piramidalar qurila boshlagan. Lekin asosiy e'tibor piramida majmuini tashkil etuvchi ibodatxonalarga qaratilagan. Umuman Misrda 70 dan ortiq piramidalar qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Misr madaniyati o'ziga xos taraqqiyot bosqichini bosib o'tgan bo'lib, umumjaxon madaniy taraqqiyotida muhim rol o'ynaydi. Qadimgi Misrliklarning yuksak did va aql - zakovat natijasida bunyod etilgan moddiy va ma'naviy madaniyat namunalari o'zidan keyingi, ayniqsa, antik davri yunon, Rim va shimoliy Afrika xalqlarining madaniy taraqqiyotiga ulkan ta'sir ko'rsatgan.

### **Qadimgi Falastin va Finikiya madaniyati**

Suriya va Falastin tog'li mamlakat bo'lib, unda yirik daryolar mavjud emas. Bu davlatlarning iqtisodiy - madaniy taraqqiyotiga mazkur davlatlar xududidan o'tgan yirik karvon yullari o'z ta'sirini o'tkazgan. Suriya va Falastin xududlaridan Mesopatamiyadan Misrga, Arabistondan O'rta Yer dengizi sohillari va Kichik Osiyoga boradigan karvon yullari o'tgan. Bu karvon yo'llari birinchidan, qadimgi Suriya va Falastinning iqtisodiy yuksalishiga yordam bergan bo'lsa, ikkinchidan, mehnat qurollari, uy ro'zg'or buyumlari va qurol-yarog'larning takomillashuviga, uchinchidan, axoli etnik tarkibining turli - tumaligiga olib kelgan.

Mil. avv. VII-IV ming yilliklar oralig'ida Suriya, Falastin va Finikiyada dexqonchilik rivojlangan. Eneolit davriga kelib, baland devorlar bilan o'rab olingan shaxar-davlatlar vujudga keladi.

O'rta Yer dengizi qirg'oqlaridagi unumdor yerda joylashgan Ugarit / Finikiyadagi shaxar / boshqa hududlarga nisbatan iqtisodiy jihatdan ilgarilab ketgan. Chunki, Ugarit, birinchidan savdo yo'li ustida joylashgan bo'lsa, ikkinchidan, Kipr, Krit-

Mikena bilan savdo-sotiq ishlarini olib borgan, uchinchi esa, rivojlangan dehqonchilik madaniyatiga erishganligi uchun ham iqtisodiy jixatdan yuksalgan.

Finikiyaliklar eng mashxur kemasoz xam bo'lganlar. Qadimgi podsho'olik davridayoq misrliklar kema turlaridan birini "Bibl kemasi" / Finikiyadagi shahar nomidan olingan / deb ataganlar, "Finikiyaliklar" deb ataluvchi qabilaning kemasoz degan ma'noni anglatishi "Fenxu" so'zidan kelib chiqqan, degan taxminlar mavjud.

Finikiya yozuvining vujudga kelishida Bobil mixxati va ayniqsa, Misr hieroglif yozuvi kuchli ta'sir ko'rsatgan. Finikiya yozuvida 22 ta belgi mavjud bo'lib, uning avzalligi alifbo belgilaridan iboratligi hisoblangan.

Yaxudiyalar va arameylar o'zlarining alifbolarini Finikiya alifbosidan olganlar. Arameylar tuzgan alifbo esa keyinchalik biroz o'zgartirilgan xolda Sharqning uzoq mamlakatlari, jumladan, Hindiston va Markaziy Osiyo hududlarigacha keng tarqalgan. Ayrim manbalarda qadimgi sanskrit, koreya, yapon, va boshqa xalqlarning yozuvlari xam ana shu Aramey alifbosi asosida vujudga kelgan degan taxminlar mavjuddir. Keyinchalik, Finikiya yozuvining ta'siri ostida qadimgi Yunon alifbosi vujudga keladi. Natijada Finikiya yozuvi butun yevropa yozuvlari uchun asosiy manba bo'lib xizmat qilgan. Suriyaliklar esa, o'z yozuvlarini vujudga keltirishda Bobilliklarning mixxatini ancha soddalashtirib o'zlarining 24 belgidan iborat mixxatlarini vujudga keltiradilar.

Qadimgi Suriya va Finikiya qabilalarining diniy qarashlari dehqonchilik e'tiqodi bilan chambarchas bog'liq bo'lgan. Finikiyada xudolarga atab xashamatli ibodatxonalar qurilgan. Xudolar to'g'risida ko'plab afsonalar yaratilgan. Masalan, afsonada hikoya qilinishicha, o'lim va tiriluvchi tabiat xudosi Vallni o'lim xudosi Mot o'ldiradi. Vaalning xotini, hosildorlik xudosi ma'buda Anat eri uchun o'ch olib Motni o'ldiradi. Vaal tiriladi va tabiat uyg'onadi. Bu afsona hamda o'luvchi va tiriluvchi tabiat xudosi e'tiqodlari keyinchalik Suriya va Finikiyada keng tarqalgan Adonis e'tiqodining kelib chiqishiga sabab bo'lgan.

Falastinda yashovchi aholining asosiy qismi eneolit davridan boshlab semit guruhining xanaan qabilasiga mansub bo'lgan.

ligiga qarshi qaratilgan edi.

Musulmon Sharqi falsafasi va madaniyati tarixini kuzatarkanmiz, u VII asrning ikkinchi yarmidanoq yuzaga kelib rivojlanib, IX asrdan boshlab ko'plab g'oyalar va fan dalillarining mustahkamlanganligi hamda yuqori cho'qqiga erishganligini ko'ramiz. G'arbda esa XIII-XIV asrlar oralig'iga kelibgina fan va tafakkurda ko'tarilish yuzaga kelganligini kuzatish mumkin. Shu o'rinda umuman „Uyg'onish davri madaniyati» tushunchasi Sharq va Fapb «Uyg'onish» davrlari madaniyati va ularning o'ziga xos xususiyatlari ham da xarakterli belgilariga qisqacha to'xtapib o'tish joizdir.

Uyg'onish davri - bu eng avvalo ijtimoiy taraqqiyotda ishlab chiqarish munosabatlarining ham, ma'naviy hayotning ham yangi bosqichga o'tish davridir.

IX-XII asrlar Movarounnaxr va Xurosonda vujudga kelgan Somoniylar, Qoraxoniylar, G'aynaviylar, Saljuqiylar, Xorazmshohlar davlatlari eng avvalo iqtisodiy jihatdan yuksalishga erishdilar. So'ngra islom ma'naviyatiga asoslangan madaniy taraqqiyotini vujudga keltirdilar. Ma'naviyat asoslari hisoblangan e'tiqod yakdilligi, siyosiy boshqaruv asoslari, qonun ustivorligi, axloqiy kamolot, aql-idrok takomili, ma'rifiy barkamollik va fan taraqqiyotining yuqori bosqichiga chiqa oldilar. «Uyg'onish davri madaniyati» tushunchasi bizningcha, birinchidan, muayyan millat yoki xalqning ma'naviy mahdudlikdan ozod bo'la borishi, milliy qobiqdan chiqib dastlab hududiy, so'ngra, umumjaxon ma'naviyatiga ta'sir ko'rsata borishi, ikkinchidan, tanazzulga yuz tutgan yoki boshqa kuchliroq xalqlar ma'naviyati taz'yiqiga uchragan, tarix sahnasidan tushib ketishga mahkum etilgan millat, elat yoki xalqning milliy madaniyatini qaytadan jonlashtirish, tiklash, rivojlantirish va yuksak darajaga ko'tarilishini anglatadi.

«Uyg'onish» davrlari madaniyatiga xos bo'lgan umumiy mushtarak tomonlari birinchidan, Sharq va G'arb uyg'onish davrlari madaniy taraqqiyoti boshida o'sha davr hukmdorlarining o'zlari turganlar va madaniy jarayonning rivojlanishiga imkoniyat yaratib berganlar. Masalan, Sharq uyg'onishi davri madaniyati rivojlangan paytda o'sha davrning hukmdorlari - halifa Xorun ar-Rashid, uning o'g'li Ma'mun, qolaversa o'sha davrda Somoniylar, Qoraxoniylar va boshqa sulolalarning vakillari turganlar. Ular islomning mustah-

## **o`ziga xos xususiyatlari**

Sir emaski qariyb bir yuz o`n besh yillik bosqinchilik siyosati dastlabki kunlaridanoq o`zbek millatiga qoloqlik, savodsizlik yoki kam savodlilik tamg`asini bosib keldi. Qoloq millatlarni «ilgor» millatlar bilan tenglashtirish» siyosatining amalga oshirilishi nafaqat o`zbek xalqining, balki madaniyatning ham beshigi hisoblangan Sharq mamlakatlari xalqlarining o`tmishi, tarixi, madaniyati va qadriyatlarini soxtalashtirdi va hukmron xalq manfaatlarini va mafkurasiga moslashtirdi.

Davrning shu kungi talablaridan kelib chiqib avvalgi tuzum to`g`ri, haqiqat deb singdirilgan ko`plab muammoli masalalarni qayta tahlil qilib, tarixiy haqiqatni o`z o`rniga qo`yish, yillar mobaynida xiralashtirilgan ilmiy bilim ko`zglasini qayta ta`mirlash va tozalash vaqti keldi.

Shu mulohazalardan kelib chiqqan holda quyida biz aniq javob berish biroz mushkul bo`lgan Sharq va Fapb madaniyati muammosi, «Uyg`onish» davri madaniyati tushunchasining asl mazmun va mohiyatiga qisqacha to`xtalib o`tamiz.

Ma`lumki, sobiq Shuro tuzumi davrida mafkura, madaniyat va falsafa Sharq va G`arbda deyarli bir paytlarda yuzaga kelgan, deb o`qtirdilar hamda Sharq xalqlari madaniy hayotida G`arbning ta`siri va ustunligi masalasi ilgari surilar edi. Olimlarimizning e`tiborlari bu masaladan chetlashtirilib, bu fikr haqiqat deb qabul qilingan edi.

Ma`lumki, Yevropada o`yg`onish davri madaniyati kapitalistik ishlab chiqarish munosabatlarining yuzaga kelishi davri bilan ortodoksal cherkov mustabidligiga qarshi kurash natijasida yuzaga kelgan bo`lib, bu davr «Renessans»davri deb atala boshlangan. Bu tushuncha o`sha davr tarixnavislari tomonidan XVI asrdan boshlab qo`llanilgan. Ularning fikriga ko`pa, XV-XVI asrlarga kelib, qadimgi antik davr madaniyatining ilg`or g`oyalarini qayta tiklash imkoniyatlari yuzaga kelgan. Lekin bu davr qadimgi madaniyatlar-dah batamom farq qiluvchi yangi madaniyat - burjua madaniyati yuzaga kelib, uning asosiga insonparvarlik /gumanizm/ g`oyalari qo`yila boshlagan edi. Bu qarashlar eski, ortodoksal feodalistik munosabatlar madaniyatiga, ayniqsa, din va cherkov mutaassib-

Mil. avv. II ming yillik Janubi-Sharqdan xabiru qabilasi ko`chib keladi. Natijada Falastin hududiga turli qabilalar ittifoqi vujudga keladi.

Mil. avv XIII asrga kelib habiru qabilasi orasidan bani Isroil va yahudiylar ittifoqi ajralib chiqadi. Bu qabilalar dastlab o`zlarining chorvalari bilan Sinay cho`llarida ko`chmanchilik hayot tarzida yashaganlar. Misr hududlarida ham bir muncha vaqt istiqomat qiladilar. Rivoyatlarga ko`ra, bani Isroil qabilasi xudo Yaxve amri bilan Muso payg`ambar boshchiligida Falastin yerlariga qaytadilar. Bani isroilliklar Falastinning ko`pchilik qismini, ayniqsa, dehqonchilik va bog`dorchilikka boy bo`lgan shimoliy qismlarini egallaydilar. Yaxudiylar esa janubiy xududlarda chorvachilik bilan shug`ullanganlar.

Isroil davlatining asoschisi Dovud Quddusni bosib olgach qurilish ishlariga alohida e`tibor beradi. Mohir ustalarni Finikiyadan taklif qiladi. Quddus/Ierusalim/da xudo Yaxvega atab mahobatli va hashamatli ibodatxona qurdiradi. Bu ibodatxona mil.avv.586 yili Bobil podshosi Novuxodanosar tomonidan yakson qilingan, ya`ni o`t qo`yiladi. Yahudiy adabiyotida nafaqat diniy asarlar o`rin egallagan, balki «Qo`shiq»nomli xalq dostonlari, «Ayyub kitobi» nomli falsafiy asar, «Debora qo`shig`i»nomli qahramonlik dostonlari ham mashxur asarlar hisoblangan.

## **Qadimgi Osuriya madaniyati**

Mil.avv.II ming yillik oxiri va I ming yillik boshlariga kelib, Dajla daryosining ikki irmog`i (Katta Zab va Kichik Zab) hamda Frot daryosining Xabur irmog`i oralig`ida harbiy qabila demokratiyasi shaklidagi yangi davlat Assuriya (Osuriya) davlati vujudga keladi. Osuriya davlati qadimgi Shumer, Akkad, Bobil, Xett va Misr singari kuchli davlatlarning zaiflashuvi davrida, maydonga keladi.

Mil.avv.I ming yillikning dastlabki choragiga kelib yaqin Sharqdagi eng qudratli davlatga aylanadi. Va o`zidan oldin hukum surgan barcha kuchli davlatlarni buysundiradi.

Osuriya davlatining iqtisodiy-madaniy jihatdan rivojlani-

shiga, birinchidan, tabiat boyliklarining ko`pligi va qulay geografik sharoitga egaligi, ikkinchidan, Eron va Mesopatamiya dan Urartu, Kichik Osiyo va O`rta yer dengiei mamlakatlarga boradigan eng maqbul yo`llar ustida joylashganligi, uchinchida dehqonchilik, ayniqsa, don yetishtirish va bog`dorchilikning rivojlanishi, to`rtinchidan, hunarmandchilikning tez suratlar bilan taraqqiy etishi o`z ta`sirini ko`rsatadi.

Qadimgi Osuriya (Ashshur shahri nomidan olingan bo`lsa kerak)ning etnik birigi asosan hurriylar va Akkaddan ko`chib kelgan semit qabilalarining birga qo`shiluvidan vujudga kelgan bo`lishi mumkin. Chunki Osuriyaliklar Akkad tilining osur shevasida gaplashganlar.

Osuriya madaniyati dastlabki davrlarda Akkad, Ur, Bobilliklar madaniyati ta`siri ostida shakllangan. Osuriyaliklar mixxatini, diniy e`tiqodlar sistemasini (ba`zi xudolarning nomlarini, ularga sig`inishni, ibodatxona qurilishi uslubini) adabiyot! san`atning harakterli jihatlari, ilmiy bilimlarni Mesopatamiyaning qadimgi xalqdaridan olganlar. Ayniqsa, Bobil madaniyatining ta`siri mil.avv. XIII asr - Osuriya Bobilni buysundirgandan so`ng, yanada kuchayadi. Natijada Bobilliklarning /diniy adabiyotlari, dunyoning yaratilishi to`g`risidagi dostonlar, Enlil va Marduk singari xudolarga bag`ishlangan madxiyalar Osuriyada keng tarqaladi. Shuningdek. Osuriyaliklar uzunlik ulchovlari va tarozilarni hamda davlat idorasini tashkil etish va boshqarishni ham bobilliklardan o`zlashtiradilar.

Osuriya podshosi Ashshurbanipal saroyining qoldiqlarini o`rganish chog`ida sopol lavhalarga tushirilgan yozuvlar, adabiy asarlardan parchalar, astronomiya va tabobatga doir ko`plab yozuvlar saqlangan kutubxona qoldig`i topiladi.

Bobil prdshosi Nabupalasar mil.avv. 612 yilda bu saroyga o`t qo`yganda bu kutubxona saroy vayronalari ostida qolib saqlanib qolgan. Sopol lavhalarga tushirilgan «tavba qasidalari» yoki kungiliga taskin beruvchi nolalar»da qadimgi muallif boshiga og`ir musibat tushgan, o`zini gunoxkor va g`arib deb hisoblagan kishining g`am-anduxlarini, ichki ruhiy kechinmalarini mazkur nola-qo`shiqlarda mohirlik bilan tasvirlab beradi. Birgina ana shu matnlarning o`zi Osuriya adabiyoti yuksak darajaga ko`tarila

bo`lgan Buyuk Xitoy devorini qurdiradi. Bu devorning qurilishida Min Tyan armiyasidan ajratilgan uch yuz ming askar harbiy asrlar, turli xil jinoyatchilar va qullardan iborat ikki million kishini ishlatadi.

Devorning balandpigi 6,6 metr, ayrim joylarida 10 metr-gacha, qalinligining pastki qismi 6,5 metr, ustki qismi zsa 5,5 metr-ni tashkil etadi. Devor o`n yil mobaynida qurilgan. Buyuk Xitoy devori granit toshlar, xom g`isht va loydan qurilgan bo`lib, har 60-100 metr masofaga minoralar o`rnatilgan.

Shahar qurilishi ham aniq reja asosida amalga oshirila boshlanadi. Shaharlarning atrofi zovur va qalin devorlar bilan o`rab olinadi. Imperator saroyi esa, minora va darvozali qilib qurilgan mustahkam devorlar bilan o`rab olinadi va «Berk shahar» nomini oladi.

Tan/ 618-907 yillar/ va Sun/930-1279 yillar/ imperiyalari davrida minoralar qurilishi va tasviriy san`atda bir qator muvaffaqiyatlarga erishiladi. Masalan, Tan davrida umumiy balandligi 60 metrli Dayanta minorasi quriladi. Minoraning kvadrat shaklidagi tag qismining har bir tomoni 25 metrdan iborat. Minora yetti yarus /pog`ona/ga ajratilgan bo`lib eng yuqori qismi stupa bilan tugalangan.

Bu davrda shaharlarning maishiy hayotiga bag`ishlangan tasviriy san`at asarlari, shuningdek, «Gul va qushlar» janri yuksaladi. Parda, yelpig`ich kabi buyumlarga qush, o`simlik, hasharotlarning tasvirlarini tushirish avj oladi.

Xulosa qilib aytganda, qadimgi Xitoy madaniyati boshqa Sharq xalqlari madaniyati ta`siri ostida rivojlanadi va qadimgi Mug`uliston, Manjuriya, Tibet, Hindi Xitoy mamlakatlari, Koreya va Yaponiya kabi mamlakatlar madaniyati taraqqiyotiga sezilarli ta`sir ko`rsatgan hamda umumjaxon madaniyatining bir qismi sifatida shakllanib borgan. Ko`pgina aniq fanlar taraqqiyotiga turtki bergan.

Eng qadimgi xalq qo`shiqlari to`plami hisoblangan «Shi tszin» /»Qo`shiqlar kitobi»/taxminlarga ko`ra, mil.avv.XI-VII asrlar oralig`ida yaratilgan bo`lib, unda Xitoy xalqining urf-odatlarini mehnat va marosim qo`shiqlari joy olgan. Ba`zi qo`shiqlarda afsonaviy ohanglar xalqning chinakam tarixiy voqealariga qo`shilib ketsa, ayrimlarida xalq tomonidan sevib ardoqlangan qahramon-larning jasorati madh etiladi, boshqalarida esa, podsho va amaldorlar ko`klarga ko`tarilib maqtaladi.

Qadimgi Xitoylar umumjaxon tabiiy fanlari taraqqiyotiga ulkan hissa qo`shganlar. Xitoyda matematika, geometriya rivojlangan. To`g`ri burchakli uchburchakning xususiyatlari ma`lum bo`lgan. Gepotenuzaning kvadrati katetlar yig`indisiga tengligi masalasi hal qilingan.

Astronomik kuzatishlar Shan/In/davridayoq boshlangan bo`lib Chjan Go zamon/mil.avv. IV-III asrlar/da nihoyatda aniqlikka ega bo`lgan 365 kunlik taqvim ishlab chiqilgan. Sayyoralar va yulduzlar harakatini to`g`ri kuzatish, Quyosh va Oyning tutilishini oldindan aytib berish imkoniyatini bergan. Masalan, mil.avv. 720 yilga oid ayrim yozma manbalarda Quyoshning tutilish davriyligi ko`rsatib o`tilgan bo`lsa, mil.avv. 20 yillardagi yozma ma`lumotlarda Quyoshda dog`lar borligi ta`kidlanadi.

Xitoy olimi Chjan Xen dunyoda birinchi bo`lib yer qimirlashini epitsentri/markazini/ni ko`rsatuvchi seysmografni yaratgan bo`lsa Nanchun Sho yer meridiani gradusi uzunligini o`lchagan.

Dunyoda birinchi bo`lib Xitoyda porox ishlab chiqarishda selitradan foydalanishgan. X asrda birinchi mushakbozlik raketalari tayyorlangan.

Milodiy II asrda qog`oz ishlab chiqarila boshlangan bo`lsa, V-VI asrlardan boshlab kitob chop qilish yo`lga qo`yilgan. VII asrda «Di bao» /»Poytaxt axboroti»/ nomli gazeta chiqqan boshlagan. Shuningdek, xitoylar dunyoda birinchi bo`lib, masofani ulchovchi spidometr va er qutblarini ko`rsatuvchi komposni ixtiro qilganlar. Qadimgi Xitoyliklarning eng muhim va nodir arxitektura yodgorligi Buyuk Xitoy devoridir. Buyuk Xitoy devori mil.avv. IV-III asrlarda shimolda yashagan Xun/turkiy/qabilalar taxdidi va hujumidan saqlanish maqsadida qurilgan. Imperator Tsin Shi Xuandi Xitoyning shimol va shimoli-sharqiy chegaralarida uzunligi 5000 kilometr

olganligini ko`rsatadi.

## Qadimgi Eron madaniyati

Bexistun qoyasidagi Doro I, Naqshi Rostam, Bobil va Misr yozuvlari qadimgi Eron madaniyati to`g`risida muayyan ma`lumot beradi. Eronning eng qadimgi poytaxti Persepolda olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimgi Eron halqlarining arxitekturasi, tasviriy san`ati, xunarmandchiligi to`qrisida muayyan tasavvurlar hosil qilishga yordam beradi.

Suza shahrida olib borilgan qazishmalar esa qadimgi Eron halqlarining tosh, sopol buyumlar yasashi, to`qimachiligi yuksak darajada rivojlanganligini ko`rsatadi. Forslar mixxatni isloh qildilar. Undagi ortiqcha alomatlarni olib tashlab, 42 belgini qoldirdilar. Idora ishlarini olib borishlarida aramey alifbosidan foydalanishadi. Pigment, papirus, sopol parchalari yozuv materiali hisoblangan.

Qadimgi Eronda suv muqaddas bo`lib, Vorukash ko`li to`g`risidagi tasavvur suvga etiqod qilishning asosiy unsuri hisoblangan. Bundan tashqari qadimgi eroniyalar o`rtasida suv ruhi Apam-Napatga, samoviy oliy xudo Ahura Mazdaga, uning o`g`li-olov Atarga (keyinchalik uning o`rmini Mitra egallaydi), yer, suv va xosildorlik ma`budasi Anaxitaga e`tiqod qilish keng tarqalgan.

Qadimgi Eron madaniyati o`zining eng gullagan davrini mil.avv. V asr boshlarida Doro I davrida boshdan kechirgan. Eron podsholari uchun qurilgan saroylar Osuriya me`morchiligi ta`siri ostida barpo etiladi. Masalan: Persepoldagi shoh saroyi tepalik ustiga qurilgan bo`lib, unga bo`rtma suratlar tushirib bezatilgan keng zinapoyadan chiqib borilgan. Ulkan darvoza devorlaridan biriga Axamoniylar davlatiga bo`ysungan 33 elat va ppyg` vakillarining shohga turli xil sovg`alar olib kelayotganligini tasvirlovchi suratlar tushirilgan. Suratda ularning kiyimlari va etnik qiyofalari aniq detallarda aks ettirilgan. Saroyga 17 metrli turta ustun ko`tarib turuvchi darvoza orqali kirilgan. Darvoza yon tomonlarida odam boshli qanotli xukizlarning haykallari o`rnatilgan. Shox qabulxonasining maydoni nixoyatda nafis naqshlar va suratlar

hamda xaykallar bilan bezatilgan. Ustunlarning muqarnas qismiga muqaddas ho`kizlarning bosh qismi o`yib ishlangan. Ularning yuza qismi oltin plastinkalar bilan qoplangan. Saroy devorlariga turli bo`rtma suratlar, ayniqsa, eroniylarning totemi hisoblangan hayvonlarning bosh qismi bilan bezab chiqilgan. Eron arxitekturasi buyuk mo`jizasi hisoblangan bu saroy Aleksandr Makedonskiy bosqini davrida, yunonlarning g`alaba nashidasi sharafiga tashkil etilgan bazm paytida yonib ketgan.

Albatta, qadimgi eron san`ati va arxitekturasi taraqqiyotida unga bo`ysundirilgan ko`pgina xalqlarning hissalarini ham katta bo`lgan. Masalan, eron podshoxlarining turli davrlaridagi poytaxtlari - Persepol va Suza shaharlaridagi shoh saroylarining qurilishida unga tobe bo`lgan Sug`diyona, Baktriya, Xorazm, Marg`iyona, Parfiya va boshqa joylardan kelgan moxir me`morlar, tasviriy san`at ustalari, duradgorlar qatnashganlar. Saroy devorlariga chizilgan suratlarda ko`prok Mesopotamiya, Old Osiyo tasviriy san`atining uslublari sezilib turgan. Lekin Eronlik san`atkorlar boshqa xalqlar san`atiga ijodiy yondoshganlar. Ulardan foydalanishda xalqning an`anaviy uslublari unutilmagan. Shuningdek, qadimgi Eron madaniyati o`z navbatida boshqa xalqlar madaniyatiga ta`sir ko`rsatmasdan qolmagan.

Xulosa qilish uni ta`kidlash lozimki, qadimgi Mesopotamiya, Yaqin Shark, Kichik Osiyo va Eron madaniyatlari yaxlit bir organizm sifatida bir-biridan quvvat olgan va to`ldirib borilgan. Ularning diniy e`tiqodlari, falsafiy tafakkuri, fani, adabiyoti va san`atida bir-biriga o`xshash jixatlari mavjud bo`lib, birinchidan har xil urug` va qabilalarning bir-biriga singib ketishi natijasida yirik va qudratli elat, so`ngra millat sifatida shakllanishiga, ikkinchidan, milliy rux va milliy qiyofalarning tarkib topishiga, uchinchidan, boshqa qo`shni xalqlarning ishlab chiqarish munosabatlarining, yozuvi, diniy e`tiqodlari, falsafasi, fani, adabiyoti va san`atining rivojlanishiga o`z ta`sirini ko`rsatgan, ularning hozirgi avlodlari tomonidan umumjahon madaniyatining nodir bir qismi sifatida saqlanib qolgan.

### **Qadimgi Hindiston madaniyati**

Arxeologik qazishmalar Xitoy hududlarida odamlar qadimgi davridayoq yashaganligini ko`rsatadi. Pekin yaqinidagi Chjoukoudyan g`oridan 40 taga yaqin sinatrop /xitoy odami/ qoldiqlari torilgan. Shuningdek, Xitoyning boshqa joylari/da masalan, Xenanda / ham qadimgi odamlarning madaniyat manzilgohlari bo`lganligi aniqlangan.

Mil.avv. II ming yillik o`rtalariga kelib, dehqonchilik, chorvachilik odamlarning asosiy mehnat faoliyatiga aylangan.

Yanshao /Xenan/ da olib borilgan qazishma ishlari odamlar tesha. bolta, sopol buyumlar, jumladan, uch oyoqli idishlardan foydalanishliklarini aniqlab berdi. Yanshao odamlari sholi ekib, qo`shni qabilalar bilan mol ayira boshlab savdo-sotiqni rivojlantirganlar.

Mil.avv.XVIII asrlarga kelib, Xuanxe/Sariq daryosi havzasida dehqonchilik nihoyatda rivojlanib, ishlab chiqarish kuchlari taraqqiy etgan. Natijada ilk Shan/In/ quldorlik davlati paydo bo`lgan.

Qadimgi Xitoylar dastlab ota-bobolarruhini ilohiylashtirganlar. Butun mavjudotning otasi hisoblangan Nyuyva olam va odamzodni yaratgan.

Qadimgi Xitoy falsafasida milodning 27-97 yillarida yashab ijod etgan faylasuf Van Chunning „Tanqidiy mulohazalar“ deb «nomlangan asari ham muhim o`rin egallaydi. Mazkur asarda bilish nazariyasiga alohida e`tibor berilib, bilish qobiliyati yuksalish darajada rivojlangan insonga xos xususiyatligi, to`g`ma bilishning yo`qligi, ko`z ko`radigan, quloq eshitadigan, hid biladigan va boshqa sezgi a`zolari sezadigan narsalargina bilimning manbai ekanligi ko`rsatib o`tiladi. Van Chunning fikriga ko`ra tabiatdan o`zgarishlar ongli faoliyat natijasi emas, balki tabiiy qonuniyat, suyuqlanish va quyuqlanish natijasidir. Ongli faoliyat faqat insonga xosdir, ruh va organizm birdir. Organizm o`z faoliyatini to`xtatgach, ruh ham so`nadi.

Xitoy yozuvi 1 dan 28 gacha bo`lgan standart chiziqdardan iborat bo`lgan ieroglif yozuvdan iboratdir. Bu yozuv uslubi milodiy I asrda ishlab chiqilgan. Xitoy yozuvida 5 mingdan iborat bo`lgan belgilar mavjud. Hozirgi Xitoy tilida 4-7 ming atrofidagi belgilar qo`llaniladi.

ataluvchi urug`larning o`zaro taxt talashishlarini hikoya qiluvchi «Mahobhorat» dostonini yaratadi. Vaqt o`tishi bilan «Mahobhorat» ga ko`plab afsonalar, ertaklar masallar, ibratli hikoyalar kiritib borilgan.

Hind arxitekturasi, haykaltaroshligi va tasviriy san`atining rivojlanishi bevosita buddaviylik dini bilan bog`liq holda ro`y bergan. Buddaga bag`ishlangan ibodatxonalar o`zida budda va uning izdoshlari haykallari hamda freskalarda o`z ifodasini topgan Buddaga bog`liq me`moriy yodgorliklardan biri stupalardir. Rivoyatlarga ko`ra, Buddaning hoki qoldiqlari va u bilan bog`liq buyumlar ana shu stupalarda saqlanadi.

Tarixiy manbalarning ko`rsatishicha, qadimgi xind astronomlari milodiy V-VI asrlarga kelib yerning sharsimon ekanligini, o`z o`qi atrofida aylanishini va tortish kuchiga ega ekanligi to`g`ri-sida xira tasavvurga ega bo`lganlar.

Mil.avv.III-II asrlardayoq hindlar o`nlik sanoq sistemasidan foydalanganlar. Nol belgisi ham hindlarda ishlatilgan. Buyuk ajdodimiz al-Xorazmiy o`zining «Hind arifmetikasi haqida kitob» asarida hindlarning ana shu o`nlik raqamlari sistemasini yana ham soddapashtiradi va har bir hisob raqami orqasiga 0 ni tirkash natijasida katta-katta sonlarni vujudga keltirish mumkinligini isbotlaydi. Natijada hindlarning o`nlik sanoq sistemi dastlab arab-musulmon matematikasida ishlatiladi, so`ngra Yevropa va butun dunyoga tarqaladi.

Braxmanizm dinining mashxur kohini Panini adabiy sanskrit tilining grammatikasini tuzib chiqib hind adabiy tilining keyingi rivojiga ulkan hissa qo`shadi.

Xullas, qadimgi hind madaniyati ham umuminsoniyat madaniyatining ajralmas bir qismi bo`lib, keyingi davr Shimoliy, Janubiy-Sharqiy Osiyo xalqlari madaniyatiga, uning rivojlanishiga o`zining ta`sirini o`tkazib kelgan.

## **Qadimgi Xitoy madaniyati**

Hindiston hududi o`zining iqlimi va tabiiy boyligi bilan, ya`ni insonning yashashi uchun zarur bo`lgan shart-sharoitlari hamda imkoniyatlari bilan ajralib turadi. Shu boisdan Hindiston insoniyat sivilizatsiyasining eng qadimgi maskanlaridan biri hisoblangan.

Hindistonning Braxmaputra, Hind va Ganga daryolaridan suv ichadigan xududlari qadimgi dehqonchilik rivojlangan vodiylar hisoblangan. Antropologik ma`lumotlar esa, Hindiston hududida taxminan bir million yillar ilgari odamlar yashaganligini aniqlab bergan. Dastlab ular ovchilik va termachilik faoliyati bilan shug`ullanganlar.

Hindistonning etnolingvistik tarkibi xilma-xildir. Taxminlarga ko`ra, dastlabki davrlarda munda va dravid tillarida so`zlashuvchi etnik guruhlar istiqomat qilganlar va qadimgi hind madaniyatiga asos solganlar. Mil.avv. II ming yilliklarga kelib, Eron va O`rta Osiyo tomonidan yevropeoid irqining janubiy tarmog`iga kiruvchi qabilalar kirib keladilar va mahalliy etnik birliklar bilan aralashib ketadilar. Ayrim ma`lumotlarda berilishicha, Hindistonda bir yarim mingdan oshiqroq til va shevalar mavjud.

Hindiston hududlarida olib borilgan arxeologik qazishmalar qadimiy madaniyat mil.avv. III ming yillikdayoq paydo bo`lganligini aniqlab bergan. Moxinjodaro va Xarrapa qazishmalari esa mil.avv. III va II ming yilliklar oralig`ida shahar madaniyati tarkib topganligini ko`rsatadi.

Mil.avv. VII- VI asrlarga kelib quldorlik davlatlari, so`ngra Chantragupta asos solgan yirik Mauriya imperiyasi vujudga keladi. Qadimgi hindlarning eng dastlabki diniy qarashlari ota-bobolari ruhiga topinish, tabiatni (xinduizm diniga xos e`tiqod turi) iloxiy-lashtirish va totemistik ko`rinishda bo`lgan.

Hinduizmda tog`lar, joylar, daryolar (masalan, Ganga daryosi), o`simliklar, hayvonlar (masalan, sigir, fil, maymun, ilon) muqaddas sanaladi va ularga topiniladi. Hindistonda sigirni ona bilan tenglashtiriladi. Ayollar go`zalligini ta`riflamog`chi bo`lsalar, «sigirdek go`zal», «sigirdek soxibjamol» iboralarini ishlatadilar. Hindlarning dastlabki diniy qarashlari «Veda»(!.Muqaddas bilim) lar to`plamida o`z ifodasini topgan. «Veda» larda ko`rsatilishicha,

qadimgi hindlar olov xudosi Agniga, yomg'ir va momoqaldiraq xudosi Indraga, Oy va sarxush qildiruvchi ichimliklar xudosi Somoga, qurg'oqchilik xudosi Vritraga, Quyosh xudosi Varunaga, dexqonchilik va hosildorlik xudosi Aditiga e'tiqod qilganlar.

Veda»lar mil.avv.II ming yilliklarda yaratilgan bo`lib, to`rt kitob «Rigveda», «Samoveda», «Yajurveda», «Atxarvaveda»dan iborat bo`lgan. Barcha to`plamlar xudolarni madx etuvchi qo`shiklar, diniy marosimlarni bajarish tartiblari va marosimlarda qo`llaniladigan duolardan iborat bo`lgan.

Markazlashgan yirik davlatlarning tarkib topishi, yagona xudolar to`g`risidagi tasavvurlarning shakllanishiga olib keladi. Dastlab podsholarni iloxiylashtirish, so`ngra yagona xudo e'tiqodi paydo bo`ladi. "Veda"larda ko`rsatilishicha, yagona xudo Prajapati munavvar olamni, yerni, nurni, keng osmonni, odamlarni, xayvonlar va barcha maxluqotlarni yaratgan.

Qadimgi hindlarning falsafiy qarashlari ham asosan, «Veda»larda, epik dostonlar hisoblanuvchi «Ramayana», «Mahobxorot» hamda «Manu qonunlari», «Arxashstra» kabi qadimgi yozma madaniy yodgorliklarida uchraydi.

Mil.avv. IV asrlarga kelib, afsonaviy donishmandlar tomonidan ko`plab diniy-falsafiy ta`limotlar yaratiladi. Vadhamana tomonidan yaratilgan «Jaynizm», Brixaspati tomonidan asos solingan «Charvaka», Gotome asos solgan «Nyaya», Kanade asos solgan «Vaysheshika», Kapila rahbarlik qilgan «Sankhya», Patan-jale yaratgan «Yogat», Jaymini boshchilik qilgan «Simansa», Badrayana tashkil etgan «Vedenta' kabi diniy-falsafiy oqimlar ana shular jumlasidandir. «Charvaka» ta`limotida tabiatdagi barcha narsalarning 4 element: suv, havo, olov va tuproqdan yaratilganligi, ruhning tanadan ajralmasligi va bilishning birdan.-bir manbai tajriba ekanligi masalalari ilgari suriladi.

«Nyaya» va «Vaysheshika»diniy-falsafiy ta`limotlarida esa dunyodagi barcha narsalar efir, vaqt va fazodagi suv, tuproq, havo va olovning turli xil mayda zarralaridan /anularidan/ iboratligi, ularning abadiy o`zgarib turishi, yo`q bo`lmasligi to`g`risidagi tushunchalar ilgari suriladi.

«Yogat» falsafiy, odob-ahloq va psixoterapiyaga oid ta`limotdir. Bu ta`limotga ega bo`lish uchun kishi eng avvalo

falsafiy ta`limot bosqichini bosib o`tishi, tegishli bilim, ko`nikma va malakaga ega bo`lishi zarur. O`z ruhini boshqara oladigan, mod-daning u yoki bu holatini o`zgartirishga ta`sir eta biladigan, o`z fikrini olis masofaga yetkaza oladigan va o`zgalar fikrini bilib olishga qodir bo`lgan kishi bu ta`limotga ega bo`la oladi.

Qadimgi Hindiston hozirgi paytda butun dunyoga keng tarqalgan, eng qiziqarli boshqotirma o`yin,- shohmotning ham vatanidir.

Shohmot Chaturangga shaklida milodning boshlarida Hindistonda paydo bo`lgan. Shoxmot/Shatranj/ so`zi aslida qadimgi Hind tili - sanskrit tilidagi «Chatur»-«turt», «anga»-«tarkib» ma`nolarini anglatadi. Keyinchalik bu so`z talaffuzi o`zgarib «chaturanj» shaklida ishlatila boshlagan.

O`rta Osiyo, Eron va arab mamlakatlarida tarqalgach, «Shatrang» va nihoyat «shatranj» deb talaffuz etila boshlagan.

Dastlabki paytlarda chaturanggani 4 kishi o`ynagan. Har bir o`yinchining «armiyasi» to`rt turdagi qo`shindan - fillar, otlar jangavor aravalar va piyodalardan iborat bo`lgan. Raqib armiyasi. donalarini yutgan g`olib deb hisoblangan. VII-VIII asrlarga kelib arab mamlakatlariga keng yoyiladi va bu yerda o`yin tartibi donalarga ayrim o`zgarishlar kiritiladi. So`ngra Yevropa mamlakatlari-dan Ispaniya va Italiyaga tez tarqaladi. Shaxmat takomillasha borib, donalar soni, taxtaga terish tartibi o`zgaradi Ikki kishi o`ynaydigan bo`ladi.

Qadimgi hindlar yaratgan badiiy asarlar syujetlarida asosan o`tmishda ro`y bergan tarixiy voqealar, hind xalqining sevimli qahramonlari va mamlakat tarixiga oid voqealar aks ettirilgan. Masalan, rivoyat va afsonalardan iborat bo`lgan «Puranalar» to`plami diniy aqidalar, odamlar, xudolar va qahramonlarning kelib chiqishiga bag`ishlangan bo`lsa, «Ramayana» va «Mahobhorot» qahramonlik dostonlari hisoblanadi.

«Ramayana» dostoni mil.avv. VI-V asrlarda shoir Valmiki tomonidan yozilgan bo`lib, unda Hindlarning afsonaviy qahramoni Ramaning jasurligi va qahramonliklari, inson hayoti va oilaviy munosabatlariga oid ko`plab rivoyatlar beriladi.

Afsonaviy donishmandga aylangan V`yasa mil.avv. I ming yillikda podshoh-urug`laridan bo`lgan Kavruklar va Pandular deb